ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
M. Shodiyeva	4	Zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etishning samarali shakl va usullari
G. Mirzayeva	7	Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikalarini takomillashtirish (Xalq hunarmandchiligi misolida)
D. Zikirova	12	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish
S. Isroilov	15	Elektron ta'lim muhitida talabalarning kasbiy kompetentligini fanlararo bog'lanish asosida rivojlantirish muammolari
N. Mamanazarova	19	Raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashda o'qituvchi kasb standartining o'rni va ahamiyati
X.Tillaxodjayeva	24	Talabalarda kreativ qobiliyatni shakillantirishda integrativ yondashuvning ayrim aspektlar
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
L. O'ktamov	28	Hosilaning iqtisodiy masalalarda qo'llanilishi
Q. Voxidov	31	Bo'lajak iqtidorli talabalarni saralash va uning metodik asoslarini takomillashtirish (Musiqa ta'limi misolida)
F. Abdikarimova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun integratsiyalashgan ta'limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati
A. Karimov	37	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari sohasida qo'llanilayotgan xorijiy atamalarning ahamiyati va tahlili
A. Abdinobiyev	42	"Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlari" fanini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etish
B. Nazarov	46	5-sinf "Informatika" fani mavzularini takomillashtirilgan metodika asosida o'qitish
		TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
S. Rasulova	50	Loyihalash orqali dars jarayonini boshqarish yo'llari
D. Zikirova, G. Egamova	54	Zamonaviy ta'limni tashkil etish shakllari va ularning ahamiyati
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
G. Xolmatova	58	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari
D. Eshmurodova	61	Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni
U. Usmonova	63	Nasriy asarlarni "Blum taksonomiyasi" metodi asosida tahlil qilish (Abdulhamid Sulaymon Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani misolida)
A. Raxmatullayeva	70	Biologiya darslarida o'quvchilar mustaqil ta'limini blum taksonomiyasi asosida tashkil etish
M. Shodmonqulov	75	Arxitektura va qurilishda raqamli ta'lim jarayonining shakllanish va rivojlanish omillari
N. Karimova	79	Ta'limda raqamli sinflardan foydalanishning ahamiyati

J. Haydarov	84	Muhandislik ta'lim yo'nalishidagi talabalarga dasturlash tillarini o'qitishda kompyuter modellashtirishning ahamiyati
B. Elmurodov	88	Umumiy o'rta ta'limda kompyuter imitatsion modellarni o'quv jarayoniga joriy etish
		TA'LIMDA MARKETING
N. Mirxadjaeva, L. O'ktamov	93	Mehnat unumdorligining yuqori daromadi
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
S. Shodiqulov	97	Bo'lajak kurashchilarni saralashda pedagogik metodlarning ahamiyati va dolzarbligi
F. Asadov	100	Bo'lajak voleybolchilarni saralashda pedagogic usul va vositalarning ahamiyat
U. Axunov	103	Ommaviy sport samaradorligini tizimli shakllantirishda jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA YAYYORLASH
U. Karimova	106	Pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish
		MAKTABGACHA TA'LIM
L. Ahmedova	109	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kasb dunyosiga olib kirishning amaliy ahamiyati
N. Tashbayev	112	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida ta'lim sifati monitoringi va uning samaradorligini oshirish
Y. Yuldasheva	115	Maktabgacha ta'lim tashkilotida integratsiyalashgan mashg'ulotlarini tashkil qilishning pedagogik shart-sharoitlari
M. Xikmatova	118	Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchisining kasbiy malakasini oshirishning pedagogik shartlari
		PSIXOLOGIYA
D. Shomalikova	124	Boshlang'ich sinf o'quvchisining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari
Z. Dexkambayeva, D. Sattarova	128	Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini shakllantirish jarayonlarini modellashtirish
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
М. Ахмедов	132	Социально-педагогические проблемы повышения качества общего среднего образования
Ш. Мансурова	137	Изучение иностранного языка в транспортных вузах как неотъемлемая составляющая качественной профессиональной подготовки специалистов (на примере английского языка)
		ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И ПЕРЕПОДГОТОВКА
М. Абдухоликова	141	Совершенствования системы непрерывного развития профессиональных компетенций учителей начальных классов на основе потребностей

Matluba SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

ZAMONAVIY ANDRAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI SHAKL VA USULLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etishning samarali shakl va usullari yoritilgan. Shuningdek, pedagogning kasbiy rivojlanishida o'z ta'lim faoliyatini loyihalashning bir-birini taqozo qiluvchi uchta darajasi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar. Andragogika, kattalarni o'qitish va ularga ta'lim berish, hayot davomida ta'lim olish, modellashtirish, loyihalash, refleksiya (fikrlash, baholash, korreksiyalash), dasturlash.

В данной статье описаны эффективные формы и методы организации современной андрагогической практики. Также анализируются три взаимозависимых уровня проектирования собственной образовательной деятельности в профессиональном становлении педагога.

Ключевые слова. Андрагогика, образование и обучение взрослых, непрерывное обучение, моделирование, проектирование, рефлексия (мышление, оценка, коррекция), программирование.

This article describes effective forms and methods of organizing modern andragogic practice. Also, three interdependent levels of designing one's own educational activities in the professional development of the pedagogue are analyzed.

Key words. Andragogy, adult education and training, lifelong learning, modeling, design, reflection (thinking, evaluation, correction), programming.

Kattalarni o'qitish va ularga ta'lim berish hayot davomida ta'lim olishning muhim qismi bo'lib hisoblanadi va hozirgi zamonda bunday ta'lim butun dunyodagi insonlar va jamiyat duch kelayotgan masalalarni yechishda muhim rol o'ynamoqda. YUNESKOning kattalar ta'limi bo'yicha 2009-yil dekabrda o'tkazilgan oltinchi Xalqaro konferensiyasida (CONFINTEA VI) aytilishicha, kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish insonlarga o'z haq-huquqlarini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish hamda o'z taqdirining egasi bo'lishlari uchun zarur bilim, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida kreativ, nostandart fikrlaydigan, o'z sohasida yangi usullarni taklif qila oladigan professional mutaxassislarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Har bir soha uchun kadrlarni tayyorlash ta'lim beruvchining zimmasiga yuklatilgan vazifadir. Shunga muvofiq, ta'lim beruvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish omillaridan biri – andragogik tamoyillarga tayanish bo'lsa, andragogikaning o'ziga xos xususiyati esa, uzluksiz ta'lim jarayonida kattalarni o'qitish nazariyasi va metodikasi hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili andragogik bilimlarning ilmiy talqini quyidagi kategoriyalar orqali belgilanishini ko'rsatdi:

– inson (kattalik bilan xarakterlanuvchi hayot faoliyati davridagi yaxlitlik);

– kattalik (katta odamning o'qitish subyekti sifatidagi o'ziga xos jihati);

– ta’lim (tizimli ta’lim va tarbiya asosida insoniy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmi);

– kattalar ta’limi (uzluksiz ta’lim jarayoni kontekstida insonning kasbiy va shaxsiy jihatdan ulg‘ayishi);

– uzluksiz ta’lim (kishi hayot faoliyatining bir butunligi, davomiyligi asosidagi ta’lim);

– andragog (kattalar ta’limi sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning umumiy nomi).

Zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etishning samarali usullari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: modellashtirish; loyihalash; refleksiya (fikrlash, baholash, korreksiyalash); dasturlash.

Andragogik tamoyillarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida quyidagi funksiyalar orqali intensiv natijalarga erishish mumkin:

– yuksalib borayotgan ehtiyojlar (ijodiy va ruhiy ehtiyojlarni qondirish);

– kompensatsiya (qoldirilgan bo‘shliqlarni to‘ldirish);

– adaptatsiya (ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitga moslashuv, tayyorlov va qayta tayyorlov).

“Hayot davomida ta’lim olish” g‘oyasini aks ettiruvchi mazkur funksiyalarni YUNESKO tashkiloti tomonidan tan olingan, shuningdek, mamlakatimizning yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunida “katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish” shakli sifatida alohida qayd etilgan rasmiy, norasmiy va informal shakllar orqali amalga oshirish mumkin.

Rasmiy (formal), ya’ni maxsus ta’lim muassasalarida olib boriladigan va tasdiqlangan sertifikat, guvohnoma yoki diplom berish bilan yakunlanadigan ta’lim. U kasbiy ta’lim tizimi, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirishning turli xil kurslaridan iborat.

Norasmiy (non-format), u istalgan joyda olib boriladi va sertifikat, guvohnoma yoki diplom berilishi shart emas. Bunga turli to‘garaklar, klublar, seksiyalar kiradi. Aynan shu ta’lim bilan muassasalar shug‘ullanadilar. Rivojlangan davlatlarda norasmiy ta’lim ahamiyatiga ko‘ra rasmiy ta’lim bilan bir xil, ko‘pincha, yuqoriroq darajada turadi, chunki aynan unda inson o‘z shaxsining ijodiy rivojlanishi uchun qulay sharoitga ega bo‘ladi.

Informal ya’ni kutubxonalar, ommaviy axborot vositalari, do‘stlar bilan muloqot, teatr, muzey yoki ko‘rgazmalarni tomosha qilish orqali uyushmagan, maqsadga yo‘naltirilmagan holda axborotga ega bo‘lish. Bunday holatlar ko‘pchilikda ro‘y berayotganligi tufayli inson o‘zi sezmagan holda butun hayoti davomida o‘qiydi, o‘rganadi. Informal (axborotli) ta’lim deganda, hayot davomida o‘zaro muloqot uchun ijtimoiylashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari ta’sirida yangi axborot tizimlari orqali turli-tuman ommaviy ijtimoiy-madaniy tadbirlar, ijtimoiy-badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishish vaqtida o‘zining va boshqalarning tajribasini anglashda qo‘llaniladi.

Katta yoshdagilarning uzluksiz ta’limini tashkil etishning bunday shakli pedagogning kasbiy rivojlanishida o‘z ta’lim faoliyatini loyihalashning bir-birini taqozo qiluvchi uchta darajasi orqali tashkil qilinadi individual ta’lim dasturi, individual ta’lim yo‘nalishi, individual ta’lim trayektoriyasi.

Individual ta’lim dasturi – pedagogning kasbiy ehtiyoj va qiyinchiliklari tashxisining natijalari, qiziqishlari, motivlari asosida mustaqil tuziladigan, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan, uzluksiz malaka oshirishning turi va shakllarini maqbullashtirish imkonini beruvchi hamda mustaqil ta’limni nazarda tutuvchi dasturni ifoda etadi.

Individual ta’lim yo‘nalishi – pedagogning individual ta’lim dasturini vaqt mezonlari va bosqichlariga bog‘liq holda o‘zlashtirish izchilligini maslahatchining kuzatuvida

amalga oshirishini hamda o‘quv jarayonining mavjud sharoitlariga moslashuvchanligini belgilaydi.

Individual ta’lim trayektoriyasi – pedagogning ta’lim jarayonida shaxsiy salohiyatini amalga oshirishi, kasbiy takomillashuvi, o‘z mavqeyini anglashi, o‘zini namoyon qilishiga doir belgilagan, ongli va tajribalariga asoslangan o‘ziga xos alohida harakat yo‘lidir.

Natijada katta yoshdagilar butun hayoti davomida bilimlarini kengaytiradi, ko‘nikma va malakalarini boyitadi hamda talab etiladigan kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishida o‘z ta’lim faoliyatini loyihalashning bir-birini taqozo qiluvchi uchta darajaga ajratilishi pedagogni ta’lim obyektidan o‘z kasbiy mahoratini doimiy oshirib borishning faol subyektiga aylantirish, o‘quv mazmunini kasbiy ehtiyojlari tashxisi natijasida shaxsiy ishtiroki asosida belgilash, jarayonni optimal rejalashtirish, moslashtirish, refleksiv tahlil qilish, konsultativ yordam ko‘rsatish va ta’lim maqsadiga erishishda ichki salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi. Individual ta’lim trayektoriyasini tuzishga sharoitlar yaratilishi pedagogning malaka oshirish samaradorligi, natijadorligiga bo‘lgan mas’uliyatining ortishi, faoliyatidan maqsad, vazifalarini anglangan holda belgilay olishi, ro‘yobga chiqarishi, refleksiv ko‘nikmalarining rivojlanishi, o‘quv motivlari darajasining ko‘tarilishi va qiziqishlarining kengayishi hamda nafaqat malaka oshirish, balki butun ta’lim jarayonida mustaqilligining ortishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova O‘.M., Abdullayeva M.A., Boltaeva M. Andragogika // o‘quv qo‘llanma. Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2014. 114-b.

2. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss… (DSc). – T., 2022, – 386 b.

3. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari // Zamonaviy ta’lim. – T., 2021. – 4 (101)-son. – B.58-64.

4. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fan.dokt.diss…avtoreferati…(DSc). Samarqand. 2018. 56-b.

5. Международная конференция по образованию взрослых CONFINTEA VI [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.unesco.org/ru/confinteavi (дата обращения: 14.09.2017).

Gulmira MIRZAYEVA,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetiining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti mustaqil tadqiqotchisi

SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH METODIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH (Xalq hunarmandchiligi misolida)

Annotatsiya

Maqolada xalq hunarmandchiligi yo‘nalishida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi bayon qilingan. Buning uchun “Quroqchilik san‘ati” bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi yoritilgan va to‘garakning ish rejasi ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Quroq, quroqchilik, mato, to‘garak, applikatsiya, xalq hunarmandchiligi,ma’ruza, taqdimot,bahs, munozara, materiallar.

В данной статье изложена методика организации и проведения внеклассных занятий по народным промыслам. Для этого намечается методика организации и проведения занятия кружка по” искусству лоскута « и разрабатывается план работы кружка..

Ключевые слова. Лоскут, лоскутное шитьё, ткань, кружево, аппликация, народные промыслы, доклад,презентация, дебаты, дебаты, материалы.

This article describes the methodology for organizing and conducting extracurricular activities in the direction of folk crafts. To do this, the methodology for organizing and conducting a round-robin training session on The” Art of drought « is described and the Working Plan of the round-robin is developed.

Key words. Patchwork, fabric, lace, applique, folk crafts. report, presentation, debate, discussion, materials

Xalq hunarmandchiligida o‘quvchi va talabalarning kasb-hunarga o‘rgatish ishlari dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida hal qilinadi. Majburiy o‘quv dasturlaridan tashqariga chiqadigan va o‘qituvchi tomonidan darsdan tashqari vaqt davomida olib boriladigan turli xil o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlar darsdan tashqari ishlar deb ataladi. U o‘quv ishining organik qismini tashkil qiladi, o‘z vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlari va maqsadiga ega.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy roli o‘quvchilarga fanning ma’lum bir sohasiga, faoliyat turiga barqaror qiziqishlarni aniqlashda, dasturiy masalalarni, shuningdek o‘quv dasturidan tashqari, talabalar tushunishi mumkin bo‘lgan masalalarni chuqur o‘rganish jarayonida moyillik, qobiliyat va iste’dodlarni aniqlashda yordam berishdir. O‘qituvchilar, psixologlar, metodistlar shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni inson hayotining birinchi kunlaridan boshlanishi kerakligini ishonchli isbotladilar, bu esa bolaning potentsial imkoniyatlarini ochib berish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu imkoniyatlarni aniqlash va ochib berishga sinfdan tashqari ishlarning har xil turlari yordam beradi.

Maktablarning amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning eng yaxshi natijalariga dars mashg‘ulotlarini sinfdan tashqari ishlar bilan to‘g‘ri birlashtirish orqali erishish mumkin. Darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi, takomillashtirishi kerak.

Darsning qat’iy doirasi va dasturning to‘yinganligi har doim ham yoshlarni qiziqtirgan ko‘plab savollarga javob berishga imkon bermaydi, shundan keyin darsdan tashqari mashg‘ulotlar yordamga keladi. Sinfdan tashqari ishlar deganda o‘quvchilarning ixtiyoriy tamoyillarga asoslangan va darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta’lim bilan bog‘liq uyushgan va maqsadli ta’lim-tarbiya ishlari tushunilishi kerak. U talabalarning fan bo‘yicha bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, o‘quv faoliyatini faollashtiradi va dasturiy materiallarni muvaffaqiyatli o‘rganishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarda axloqiy tuyg‘ular va xulq-atvor normalari rivojlanadi, bu estetik tarbiya uchun qulay sharoit yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarga uyushgan va maqsadli ta’sir ko‘rsatishga vaqt ajratish, ularning darsdan tashqari vaqtini, bo‘sh vaqtlarini oqilona tashkil etish va to‘ldirish, faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va shu bilan xatti-harakatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

“Quroqchilik san’ati” yo‘nalishi bo‘yicha tashkil qilingan to‘garak mashg‘ulotining rejasi:

Mavzu: “Quroqchilik” san’ati tarixi.

Ajratilgan soat: 2 soat

To‘garak mashg‘ulotining maqsadi:

a) ta’limiy – yoshlarga xalq hunarmandchiligiga oid kasblarga doir reja tuzishni o‘rgatish, kasb tanlashda yo‘l qo‘yiladigan xatolarni tushuntirish;

b) tarbiyaviy – yoshlarda o‘zlarining kasbiy jihatdan muhim sifatlarini baholashda o‘zini o‘zi tanqid qila olish va kasb tanlashga obyektiv yondashish xislatini tarbiyalash;

c) rivojlantiruvchi – yoshlarning xalq hunarmandchiliggiga oid kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, ularni to‘g‘ri kasb tanlashga o‘rgatish.

Kasbga yo‘naltiruvchi maqsad: yoshlarga xalq hunarmandchiligiga oid kasblarni tanlashda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri hisobga olishni o‘rgatish.

Mashg‘ulotning vazifalari:

– yoshlarning xalq hunarmandchiligiga oid kasb tanlash rejasini tuzishni va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishda ko‘maklashish;

– yoshlarni xalq hunarmandchiligiga oid kasblarni ongli ravishda tanlashga yo‘naltirish.

Mashg‘ulot tipi: yangi bilimlar berish.

Mashg‘ulot turi: nazariy.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari: ma’ruza, tushuntirish, suhbat, taqdimot, bahs-munozara, savol-javob.

Fanlararo bog‘lanish: ishlab chiqarish sohalari.

Mashg‘ulot jihozi: tarqatma materiallar, quroq bo‘laklari, quroqdan tayyorlangan buyumlar, kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar va boshqa ko‘rgazmalar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O‘tilgan darsni so‘rash va baholash.

Yangi mavzuni bayon qilish.

Reja:

1.Quroqchilik san’ati va tarixi haqida ma’lumot.

2.Quroq turlari.

3.Quroq uchun ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar.

Quroqdo‘zlik — mayda bo‘laklardan ulab, to‘plab bezak yaratish san’ati. Shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Amaliy san’atda keng tarqalgan.

Ko‘rpa, ko‘rpacha, choyshab, so‘zana, dasturxon, gilam va boshqa jihozlar qadimdan shu usulda tayyorlanib, ajoyib san’at namunalari yaratilgan. Yana quroq applikatsiya ham deb ataladi.

Applikatsiya usulida turli buyum yoki mato parchalarini birlashtirib tikish usuli dunyoning turli xalqlari orasida keng tarqalgan. Yevropada ushbu hunar turi “petchwork” (inglizcha “patch” – yamoq, “work” – ish), ya’ni “yamoq ishi”, Shimoliy Amerikada esa kvilt deb ataladi. Vaqt o‘tishi bilan bu yo‘nalish san’at darajasiga ko‘tarildi.

Mato parchalarini yig‘ib, applikatsiya usuli bilan ko‘rpa va boshqa buyumlarni tikish qadim davrlardanoq dunyoning ko‘plab davlatlarida bir-biridan holi ravishda paydo bo‘lgan. Mato bilan ishlangan joyda ortiqcha qoldiqlarni tashlab yubormaslik maqsadida ham bu san’at turi shakllangan bo‘lishi mumkin.

Manbaalardan ma’lum bo‘lishicha, uning tarixi milloddan avvalgi yillarga borib taqaladi. Misrda topilgan ilk applikatsiya topilmasi bu – ohu terisidan bir xil shaklda birlashtirib tikilgan bezak edi. U milloddan avvalgi 980-yillarga tegishli bo‘lib, Qohirada joylashgan Bulat muzeyida saqlanadi.

1920-yilda Mingta Budda g‘orida IX asrga oid gilam topilgan bo‘lib, u ziyoratchilarning kiyim qoldiqlaridan tikilgan. XVI asrda Angliyaga hind paxtasidan tayyorlangan turli dizayndagi rang-barang matolar kela boshladi. Kashtashilik yoki gul tikish yo‘li bilan bezatilgan yopinchiqlar uyning ichki bezagi sifatida ommalashdi.

1712-yilda Angliyaga hind matolarini olib kirish taqiqlanganidan so‘ng, chit matosining taqchilligi kuzatildi. Natijada mato parchalaridan narsalar tikish ommalasha boshladi. Hind matolarini taqiqlashi orqali hukumat mamlakatning tarixiy an’analaridan bo‘lgan jun va ipak matolarni saqlab qolishni maqsad qilgan. Chit Angliyaga kontrabanda yo‘li bilan kirib kela boshladi va natijada uning narxi keskin oshib ketdi. Shu tufayli chitdan tikilgan liboslarning qiyqimlarini tashlab yubormasdan, undan yangi narsalar tika boshlashdi. Chit matosidan qolgan katta qiyqimlardan applikatsiya texnikasidan foydalangan holda jun yoki zig‘ir matolari bilan bezatilgan narsalar yaratishgan. Matoning kichik qoldiqlaridan esa bir-biriga tikib, mayda narsalarni tikishgan.

Shimoliy Amerikaga quroqdo‘zlik san’ati 1620-yillarda ko‘chmanchilar bilan birga paxtalik choyshablar orqali kirib kelgan. Gazlamalar taqchilligi tufayli ko‘rpa-to‘shaklar eski kiyim qiyqimlari bilan yamalgan. Bu esa keyinchalik mahalliy xalq orasida ommalashgan kvilt san’atining paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan har bir tikuvchi o‘z nusxasi va ranglar uyg‘unligini shakllantirib, kvilt san’atini rivojlantirib bordi. Amerikalik uy bekalari qishda choyshabning yuqori qismini tikishgan bo‘lsa, bahorda barcha qo‘shnilar yig‘ilishib, yopinchiqning qolgan qismlarini tikishgan. Kechalari esa ishdan qaytgan erkaklar ularga yordamlashishgan.

1750-yilgacha ishlab chiqarilgan deyarli barcha amerika choyshablari kvilt texnikasidan foydalangan holda tayyorlangan. Vaqt o‘tishi bilan quroq naqshlarining an’anaviy nusxalari shakllandi. Bu nusxalarning nomlari kundalik turmush tarzini ifodalovchi iboralar: ‘‘Arra tishi’’, ‘‘Ayiq panjasi’’, ‘‘Yamoq paypoq uchun savat’’ deb atalgan. Mahalliy xalq tomonidan o‘ylab topilgan quroq nusxasi esa “Ogoyo va Texas yulduzi” nomi bilan atalgan.

1876-yilda Filadelfiyada bo‘lib o‘tgan Butunjahon ko‘rgazmasida yangicha krezy (crazy) texnikasida, ipak matolardan tikilgan quroqdo‘zlik namunalari namoyish etildi. Qo‘l ishining yangi turi haqida 1879-yilda “Peterson” jurnalida maqola chop etiladi. Quroqdo‘zlikning bu yo‘nalishi “guldor kvilt” yoxud “Yapon ipagi” nomini oldi.

1910-yillarga kelib, kreziy uslubining dovrug‘i pasayib, odatiy petchwork uslubiga yo‘l ochdi. 1970-yillarda Qo‘shma Shtatlarda quroqdo‘zlikka qiziqish qayta jonlandi.

Kvilt-klublar ommalashdi, maxsus do‘konlar ushbu turdagi san’at va hunarmandchilik uchun barcha kerakli materiallarni, keng qamrovli mavzudagi kitob va jurnallarni taklif qila boshladi. 1971-yilda Yves Saint Laurent modaning yangi tendensiyasini – xalq romantizmidan foydalangan holda jozibador quroqdo‘zlik modelini yaratdi.

Mintaqada quroqdo‘zlik XIX asrning ikkinchi yarmida sotuvda chetdan keltirilgan chit matosining paydo bo‘lishi bilan yanada avj oldi. Eni 40 smdan iborat bo‘lgan uy choyshablaridan farqli o‘laroq, chetdan keltirilgan chitlarning eni 75-80 sm bo‘lgan. Ulardan biror narsa tikilganda esa juda ko‘p miqdorda qiyqimlar ortib qolgan. XIX asrning oxirlariga kelib Rossiyada quroqdo‘zlik avj cho‘qqisiga chiqadi. Tikuv mashinalarining paydo bo‘lishi esa o‘z navbatida ushbu san’atning rivojiga hissa qo‘shdi. Quroqdo‘zlikning asosiy namunalari xristianlar tomonidan tayyorlanib, sovuqdan himoya qilishda qo‘llanilgan. Dastavval yamoqlardan tikilgan liboslar tartibsiz nusxalangan bo‘lsa, XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, liboslarga kashtachilik va quroqdo‘zlik elementlari qo‘shildi.

Rus an’anaviy quroqdo‘zligining o‘ziga xosligi shundaki, unda kashta tagligidan foydalanmasdan, har xil o‘lchamdagi mato parchalarini o‘zaro birlashtirib, qo‘l mehnati orqali buyumlar yaratilgan. O‘zbekistonda ham quroqdo‘zlik san’ati qadimdan ma’lum va o‘ziga xos an’analari bilan boshqa xalqlar san’atidan ajralib turadi. Quroqdo‘zlik hunarining yurtimizda qachon paydo bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Ammo u xalq ehtiyojidan kelib chiqib yaratilgani aytiladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida “muraqqa’” so‘zi uchrab, bu so‘z ham darveshlarning libosi o‘rnida qo‘llanilgan. O‘rta asr tasavvuf ahli, asosan, muraqqa’ va shunga o‘xshash liboslarda tasvirlanadi. Masalan, Kamoliddin Husayn Fanoiyning “Majolis ul-ushshoq” asarida shunday tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Muraqqa’ yoxud quroqdan tikilgan liboslar yomon nazar va balolardan asraydi, deb ishonilgan. Har bir viloyatning o‘ziga xos quroq tikish usullari bor. Jumladan, “qatlama quroq”, “turna nusha”, “ko‘z”, “oqqush”, “turna”, “tegirmon”, “tuduq” va “qoraqosh” singari turlari o‘ziga xos ramziylikka ega. Hunarmand ularda nafaqat o‘zining estetik didi, balki mahalliy urf-odat, an’analarni ham namoyon etadi. Quroq tikishda, avvalo, turli matolar, rangi, shakl-shamoyili jihatidan mos keluvchi mato parchalari tanlab olinadi. Keyin mato parchalaridan har xil geometrik shakllar, asosan, uchburchak, kvadrat yoki romb qirqib olinadi. Keyingi bosqichda mato parchalari rangi va shakliga qarab bir-biriga qo‘shib tikib chiqiladi. So‘ng har bir parcha birlashtirilib, bir butun shaklga keltiriladi. Quroqdo‘zlik san’ati nafaqat kerakli shakl va rangni to‘g‘ri tanlay bilish, balki yangi g‘oya va fantaziyalar yaratishni ham talab qiladi. O‘zbek xonadonlarida oddiy uy bekasidan tortib mohir hunarmandlargacha quroqdo‘zlikni san’at darajasiga olib chiqdi.

O‘qituvchi quroqchilik tarixi haqida ma’lumot bergach, o‘quvchilarga quroq tayyorlash texnologiyasi va o‘zbek xalq hunarmandchiligi sohasidagi o‘rni va ahamiyati, o‘zbek kelinlarining xonadonlarida bezak sifatida ishlatilishi haqida malumot beradi, quroq tayyorlash texnologiyasini tushuntiradi.

Talabalar 5 tadan qilib 4 ta guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga quroqchilik asosida mahsulotlarni dizaynini yaratish topshiriladi.

1-quroq nimcha

2-quroq asosida fartuk

3-guruh asosida choynakpo‘sh

4-guruhga quroq asosida sumkaning yangi dizaynini yaratish topshiriladi. Tala-

balar guruhlarda ishlab yangi dizayn yaratishga harakat qilishadi. Yaratilgan dizayn asosida o‘z taqdimotlarini o‘tkazishadi. Dars yakunida xulosa qilinadi va bajarilgan ishlar yuzasidan guruhlar ishi baholanadi.

“Quroqchilik san’ati” to‘garagi bo‘yicha to‘garakning ish rejasini quyidagicha qilib tuzishni maqsadga mufoviq deb hisobladik:

“Quroqchilik san’ati” to‘garagi bo‘yicha to‘garakning ish rejasi. 1-jadval

№	Mavzular	Ajratilgan soat	Izoh
1	Quroqchilik” san’ati haqida ma’lumot	2	
2	“Quroqchilik” san’ati tarixi haqida	2	
3	“Quroqchilik” uchun islatiladigan materiallar, jihozlar va asbob – uskunalar haqida ma’lumot	2	
4	Quroq eskizini chizish, gazlama qiyqimlarini tayyorlashni o`rganish	2	
5	Gul quroq tikishni o‘rganish	2	
6	Xrizentema quroq asos qismini tikish	2	
7	Kashta quroq va undan buyumlar tayyorlash texnologiyasi	2	
8	Parcha quroq va undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
9	Applikatsiyali quroq va undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
10	Olma va olma parchali quroq va undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
11	Yulduzchali quroq va undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
12	Qamay quroq va undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
13	Shaxmat quroq va undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
14	Tasmali va tirnoqcha quroq hamda undan buyumlar tikish texnologiyasi	2	
15	Tish va turna -1 -2 quroq tikish va undan buyumlar texnologiyasi	2	
	Jami	30 soat	

Shunday qilib, sinfdan tashqari ishlar jarayonida to‘garak ishlarini tashkil qishni xalq hunarmandchiligi yo‘nalishida olib borish maqsadga mufoviq hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning birinchidan, mazkur fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalari rivojlanadi; ikkinchidan, to‘garak ishining xalq hunarmandchiligi yo‘nalishida bo‘lishi talabalarning kasbiy mahoratini oshiradi, uchinchidan , talabalar xalq hunarmandchiligi yo‘nalishida yangi dizaynni loyihalashni o‘rganadilar, mahsulot yaratishda ishtirok etishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Ozbekiston, 2023 y.118 b.t.

2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005

3. Учений XXИ века, Научний журнал, 1-2, 2001, О свойствах узбекской техники тканевой мозаики “курок”, Людмила Соколова, Наманганский государственний университет, Узбекистан

Dildora ZIKIROVA,
Toshkent davlat texnika universiteti, “Pedagogika psixologiya”
kafedrasi tayanch doktaranti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbi bo‘yicha mas’ul shaxs ekanligi maqsad qilingan vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, shu bilan bir qatorda o‘z ustida muntazam ishlashi, kasbiy kompetensiya va uning turlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Shaxs kamoloti, kompetentlik, kompetensiya, kompetensiya turlari, mutaxassis, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijodiy izlanish, mas’uliyat.

В статье рассматриваются задачи, которые ставит перед собой учитель начальных классов как ответственное лицо в своей профессии, организация учебно-воспитательного процесса, а также регулярная работа над собой, профессиональная компетентность и ее виды.

Ключевые слова. Личностное развитие, компетентность, компетентность, виды компетентности, специалист, самосознание, самоуправление, творческий поиск, ответственность.

The article focuses on the tasks for which the elementary school teacher is the person in charge of his profession, the organization of the educational process, as well as regular work on himself, professional competence and its types

Key words. Personal development, competence, competence, types of competence, specialist, self-awareness, self-management, creative search, responsibility.

Bugungi kunda dunyo ta’lim sohasida ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar, loyihalar qilinib ta’lim jarayonlari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha jarayonlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosida-

gi texnologik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injenering, ijodiy san’at va matematika) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerakligi ushbu konsepsiyada keng bayon qilingan. Shuning uchun ham oliy ta’lim talabalarida keng qamrovli ta’lim jarayonini tashkil qilishimiz kerak bo‘ladi.

Ta’lim jarayonining fundamental asosini boshlang’ich sinf o‘qituvchilari yaratadilar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlashda har bir kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali o‘z kasblariga layoqatli bo‘ladilar. Kompetensiya va uning turlariga to‘xtalamiz.

“Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta’limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o‘qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Vazifalari esa:

– talabalarga pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o‘rgatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri – ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo‘nalishi bo‘lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;

– pedagogik kompetentlikka qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bilan qurollantirish;

– ta’lim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neuropsixologik, neuropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallashlarini ta’minlash;

– pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Pedagogik kompetentlik bir qator ya’ni pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neuropedagogika, pedagogik imidjalogiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologiya, pedagogik psixologiya fanlari bilan o‘zaro aloqada shakllanadi. Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta’lim muassasasi bitiruvchisi o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg‘unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi kasbiy kompetinsiyalarni o‘zlarida shakllantirib rivojlantirib borishlari kerak:

– pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;

– o‘z ustida tinimsiz va uzluksiz ishlash;
– ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
– talabalar ehtiyojini anglay olishi;
– talabalarda motivatsiyani shakllantirish;
– ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;
– o‘z fanini mukammal darajada bilishi;
– xorijiy tillarni yaxshi bilishi;
– mas’uliyatni his qilish;
– zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilik kasbi ancha murakkab bo‘lib, o‘qituvchidan ancha mehnat talab qiladi. Har bir o‘quvchining psixologiyasini bilishi, har bir dars uchun didaktik vositalar bilan qurollanishi, ta’lim jarayonini tizimli taqsimlay olishi, o‘quvchilarda har bir dars uchun motivatsiya berishi kerak bo‘ladi.

Masalan, yuqorida berilgan xorijiy tillarni bilish kompetensiyasini o‘zida yaxshi shakllantirgan o‘qituvchi fanlarni integratsiya qilgan holda dars tashkil qilinsa, dars jarayoni qiziqarli va mazmunli bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan darslarni ingliz tilida nomlanishini, o‘tiladigan mavzuning nomi, mashq raqamlanishi va boshqa jarayonlarni integratsiyalash orqali tashkil etishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompetensiyalarni shakllantirib rivojlantirib borish orqali o‘qituvchilarda kasblariga va olib boradigan ish faoliyatlariga mehr-muhabbat shakllanadi. O‘quvchilar, ularning ota-onalari va rahbariyat bilan ishlash jarayonlari oson kechadi. Pedagogika sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy dunyoqarashini boyitishda, ularni innovatsion ta’lim texnologiyalari, shakl metodlari bilan tanishtirish ,kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish malakalari va tajribalari orqali kreativ qobilyatlari rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 08.10.2019-yildagi PF-5847-son

2. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

3. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-son (2021-yil, iyun)

4. Qo‘chqarova N.M. “Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativligi” –T.: Bookmany print 2022.260 bet

5. Aslanova D.X., Salomov F.F., Halikov Y.M. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: Iqtisodiyot, 2020 yil, 86-bet

6. https://lex.uz/ru/docs/-4545884

7. https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-kasbiy-kompetensiyani-shakllantirishga-oid-ilmiy-yondoshuvlar

Suxrob ISRAILOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti

ELEKTRON TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarni kasbiy tayyorlashda fanlararo bog‘lanish muammosini hal qilish, xorijiy olimlar tahlili, iqtisodiy bilim berish omillari, talabalarga bilim berish kompetentining tuzilishi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. fanlararo bog‘lanish, iqtisodiy bilim berish omillari, talabalarga bilim berish kompetenti, kompetensiya, iqtisodiy bilim.

В данной статье представлено решение проблемы междисциплинарности в профессиональной подготовке студентов, анализ зарубежных ученых, факторы передачи экономических знаний, структура компетенции передачи знаний студентам.

Ключевые слова. междисциплинарность, факторы экономического образования, компетентность студентов, компетентность, экономическое образование.

This article presents a solution to the problem of interdisciplinarity in the professional training of students, an analysis of foreign scientists, factors for transferring economic knowledge, and the structure of competence for transferring knowledge to students.


Key words. interdisciplinarity, economic education factors, students’ competence, competence, economic education.

Respublikamizda oliy ta’limni modernizatsiyalash talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini tajribalar asosida takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni iqtisodiy va statistik jihatdan tayyorlashni yanada takomillashtirish, talabalarda yuqori darajali kompetentlikni shakllantirishning me’yoriy asoslari yaratildi. Bunda “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta’lim sifatini tubdan oshirish” yo‘nalishi ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, bo‘lajak iqtisodchilarning iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishga, fanlararo aloqadorlik prinsiplarini ta’lim jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlari kengayadi.

Bo‘lajak iqtisodchilarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanish muammolariga bag‘ishlangan ayrim taqdiqot ishlarini ko‘rib chiqamiz. R.B.Lotshteyn va N.I.Gorbachovalarning tadqiqot ishlari bo‘lajak iqtisodchilarni tayyorlashda fanlararo bog‘lanish muammosini hal qilishga muhim hissa qo‘shgan. R.B.Lotshteyn bo‘lajak iqtisodchining konstruktiv malakalarini shakllantirishga fanlararo bog‘lanishning ta’sirini o‘rgangan. N.I.Gorbachevaning tadqiqotida bo‘lajak iqtisodchilarni mustaqil bilim olishga, olingan bilimlardan o‘qitish va tarbiyalash amaliyotida foydalanishga tayyorlash samaradorligini oshirishda, iqtisodchilarning og‘zaki va yozma nutqni kasbiy darajada egallashlarida iqtisod fakultetida o‘qitiladigan majburiy fanlarning imkoniyatlari o‘rganilgan. Har ikkala tadqiqotchi juda muhim bo‘lgan fanlararo bog‘lanishlarning kasbiy-iqtisodiy yo‘naltirilganligini o‘rganishgan. Bunday yondashuv oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonining pedagogikaga yo‘naltirilganligiga oid tadqiqotlar sabab bo‘ldi.

O‘qitishda fanlararo bog‘lanish muammolari izchil, xususan N.N.Baranskiyning (“Iqtisodiy geografiyani o‘qitish metodikasi”) o‘quv qo‘llanmasida tahlil qilina boshladi,

unda o‘sha davrda shu muammoga oid o‘tkazilgan tadqiqotlarning ba’zi natijalari aks ettirilgan edi. Biz tadqiqotimiz davomida bo‘lajak iqtisodchilarda iqtisodiy bilimni egallashi lozim bo‘lgan omillarni quyidagicha aks ettirdik.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga iqtisodiy bilim berish omillari

G.I.Shukin tahriri ostidagi “Pedagogika” darsligida mualliflar “o‘quv fanlarining mazmuni vaqt bo‘yicha mos tushganida emas, balki o‘quv fanining ichki mantig‘i asosida o‘rnatilishi kerak bo‘lgan” fanlararo bog‘lanish muammosiga ancha batafsil to‘xtaladilar. Bu yerda fanlararo bog‘lanishlar ta’lim oluvchilarning bilimlarida yaxlitlikni, tizimlilikni yaratish zarurati sababli kiritiladi. “Tizimlilik tamoyilining mazmuni ta’lim oluvchilar o‘zlari egallayotgan bilimlari yaxlit, yagona tizimning elementlari sifatida anglashlaridan iborat”. Va keyinroq: “fanlararo izchil bog‘lanishni o‘rnatmasdan turib, haqiqiy tizimni yaratish mumkin emas”.

“Oliy ta’lim pedagogikasi” darsligida fanlararo bog‘lanishlar o‘qitishning amaliy vazifalari sifatida qaraladi. M.A.Verb fanlararo bog‘lanishlarning muhimligini tan olgan holda ularning tushuncha va ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘lanishlarini hisobga olish zarurligidan kelib chiqib, o‘quv dasturlarini tuzishdagi rolini ajratib ko‘rsatadi. U, shuningdek, “fanlararo bog‘lanishlar umumlashtiruvchi kurslarning dasturlarida to‘liq aks etgan” deb ta’kidlaydi.


Iqtisodki, pedagogika darsliklarida fanlararo bog‘lanish muammosi ko‘plab pedagogik muammolarning bittasi sifatida o‘rganiladi. Biroq shu kungacha bu muammo darsliklarda nisbatan kam, eng asosiysi, anchagina mavhum, yetarlicha aniq bo‘lmagan shaklda bayon qilinadi. Albatta, pedagogika darsliklari fanlararo o‘zaro bog‘lanishlar tamoyilini aniq ko‘rinishda hal qilinishi kerak bo‘lgan oliy ta’lim darsliklarining butun majmuasini aks ettirishga qodir emas. Biroq, fanlararo bog‘lanish tamoyilining o‘zi tizimlilik tamoyili sifatida qaralishi mumkinmi? Chamasi, fanlararo bog‘lanish tamoyilini o‘ta muhimlik nuqtai nazaridan aks ettirayotib, pedagogika darsliklarida, masalan, uning turli jihatlari va namoyon bo‘lish shakllarining ahamiyatini ko‘rsatib berish kerak. Kontseptual-mantiqiy (o‘quv dasturlarini, darsliklarni tuzish), tarbiyaviy-psixologik (o‘qitish jarayonida ilmiy dunyoqarashni maqsadga yo‘naltirib, bosqichma-bosqich shakllantirish, uning shu maqsadlarga mos kelishi, ularga erishish usullari, erishilgan natijalarni tekshirish), pedagogik-tashkiliy (o‘quv rejalarini tuzish, iqtisodchilar uchun fanlararo bog‘lanishni ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-metodik tadbirlar). Bu jihatlarning ma’lum shartlariga, ular orasidagi qat’iy chegarani ko‘rsatish mumkin emasligiga (ular

o‘zaro bog‘langan) qaramasdan, ularning ajratib ko‘rsatilishi iqtisodchilarga fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish bo‘yicha aniq vazifalarni yaxshiroq anglab yetishga yordam berdi.

Fanlararo bog‘lanish, didaktik muammo sifatida o‘qitish mazmuni va metodlariga taalluqli bo‘lganligi sababli ko‘pqirrali xususiyatga ega. Chamasi, shuning uchun ham ba’zi tadqiqotchilar fanlararo bog‘lanishni didaktik tamoyil deb hisoblaydilar. Masalan, Yu.Sharov, N.A.Lashkareva, V.Zagvyazanskiy, N.G.Ogurtsov fanlararo bog‘lanishni didaktik tamoyil deb hisoblaydilar. I.D.Zverev bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “Fanlararo bog‘lanish, avvalo, turli fanlar bo‘yicha ta’lim mazmunining o‘zaro moslashganligini, ham ta’limning umumiy maqsadlari, ham har bir fanning o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni optimal hisobga olgan holda qurish va materialni tanlab olishni ko‘zda tutadi”.

Alohida ilmiy maqolalar va tadqiqotlarda ham fanlararo bog‘lanish muammosi odatda, fanlararo bog‘lanishning biror bir funksiyasini alohida tomonini batafsil tadqiq qiladi. Oxirgi o‘n yil ichida iqtisodiyot nazariyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasining fundamental muammolarini ishlab chiqishga e’tibor kuchaydi. Bu iqtisodchilar duch keladigan obyektlarning murakkabligi tadqiqotga yondashuvlarga mos kelmayotganligi sababli yangi tadqiqot metodlarini izlab topishni talab qildi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha shunga mos tahlillar o‘tkazilgan. Ba’zi tadqiqotlar va maqolalarda iqtisodiy-ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishga yo‘naltirilgan fanlarning murakkab o‘zaro bog‘lanishlari o‘rganilgan: biznes matematika – iqtisodiy matematika, amaliy matematika – ekonometrika, oliy matematika – diskret matematika va boshqalar. Bu bog‘lanishlarning ilmiy-amaliy ahamiyati, ularning ta’lim oluvchilarining bilishga qiziqishlarini rivojlantirishga ta’siri ochib beriladi va iqtisodiy bilim berish komponenti hosil bo‘ladi. (2-rasm)



2-rasm. Talabalarga iqtisodiy bilim berish komponentining tuzilishi

Iqtisodiy bilimlarning ularning bir xil fan ichida birlashishini va turli fanlar o‘rtasidagi muvofiqligini belgilovchi fan asoslari va fanlararo sohalarga oid bilimlar “oltin jamg‘armasi” ta’siriga yo‘naltirilgan tegishli sohalarini tahlil qilish ayniqsa samaralidir. Bunday tahlil iqtisodiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlar tizimi hamda iqtisodiy oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak iqtisodchilarni kasbiy-iqtisodiy va metodik tayyorlashda aks etishi kerak bo‘lgan zamonaviy o‘qitishning umumiy ilmiy asoslarini aniqlab beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, fanlararo bog‘lanishni elektron ta’lim muhitida yaratsak, maqsadga erishish yanada samaraliroq bo‘ladi. Bugungi kunda zamonamiz axborot texnologiyalariga tobora ko‘proq qaram bo‘lib borayotgani va kelajak o‘qituvchilardan turli-tuman bilimlar, jumladan, axborot texnologiyalarini bilishning katta zaxirasiga ega bo‘lishni muqarrar ravishda talab qilishi mutlaqo aniq. Bu yangi axborot kommunikatsiya texnologiya (AKT)larni joriy etish bilan o‘z-o‘zini tarbiyalash, kasbiy o‘sish va ijodiy rivojlanishga kuchli rag‘bat oladi. Yangi axborot jamiyatida amalga oshiriladigan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda AKTlarni o‘zlashtirish va o‘quv jarayoniga kiritish orqali maxsus fanlar o‘qituvchisi o‘z kasbiy mahoratini ko‘paytirgan holda ta’lim sifatini, mutaxassislar tayyorlash darajasini yaxshilaydi.

Mazkur muammo ta’riflaridan N.M.Muslimov “kompetentsiya – qobiliyat demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga ham xizmat qiladi’’ deb ko‘rsatgan bo‘lsa, A.X.Maxmudov “kompetentlik – bu, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi integrativ bilim, ko‘nikma va malakalarning alohida qirralarini (kognitiv komponent) hamda ijtimoiy muhim jihatlarini (qabul qilinayotgan qarorga tayyorlik, layoqatlilik va mas’uliyatlilik) qamrab olgan shaxsning integrativ sifatidir (ijtimoiy-psixologik komponent)” deya izohlaydi.

N.V.Kuzminaning nuqtayi nazariga ko‘ra, kompetentlik – bu, yo‘naltirilgan, uddalay olinadigan motivatsiyadir. A.M.Novikovaning fikricha, kompetentlik munosabati – ilg‘or jarayon hisoblanadi. Bu olim tomonidan ilgari surgan g‘oya – “xabardorlik” dan “g‘ayratli ish faoliyatiga” o‘tish, ya’ni umumiy holda yangi ta’lim paradigmasiga o‘tish bilan dalillanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kasbiy kompetensiya rivojlanishi axborot bilan maqsadga muvofiq ishlash ko‘nikmasi va uni olish, qayta ishlash va yetkazish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya’ni axborot ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilgan elektron ta’lim faoliyatini amalga oshirish sifatida qaraladi. Mazkur holatda, bizning fikrimizcha, axborot kompetentligi to‘g‘risida aytish o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лотштейн Р.Б. Межпредметные связи в подготовке учителя (на материале английского языка и профилирующих предметов в педагогическом неязыковом вузе): Дис. ... канд. пед. наук. − Алма-Ата, 1976.

2. Горбачева Н.И. Взаимосвязь учебных дисциплин как условие эффективности профессиональой подготовки будущего учителя (на маиериале исторических факультетов педвузов).: Автореф. ... дис. канд. пед. наук. − Алма-Ата, 1981.

3. Акользина Е.А. Использование электронных образовательных ресурсов в процессе обучения: достоинства, недостатки. Психолого-педагогический журнал Гаудеамус, №2 (22), 2013. Стр. 95-97.

4. Abdujabbarova M.L. O‘smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari. Avtoref. dis... ped fan. nom. -T.: 2007. -45 b.

Nargiza MAMANAZAROVA,
“ORIENTAL UNIVERSITETI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi professori v.b.,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

RAQOBATBARDOSH PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA O‘QITUVCHI KASB STANDARTINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchi kasb standartining o‘rni va ahamiyati, uni qo‘llash va amaliyotga tatbiq etish samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchi kasb standartini amaliyotga joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim, kasb standarti, pedagog kadr, kadrlarni tayyorlash, raqobatbardosh kadr, ta’lim standarti, ta’lim sifati.

В статье освещается роль и значение профессионального стандарта учителя в подготовке конкурентоспособных педагогических кадров в системе высшего образования, эффективность его применения и внедрения в практику. Также разработаны предложения и рекомендации по внедрению в практику профессионального стандарта учителя при подготовке педагогических кадров в высших учебных заведениях.

Ключевые слова. Общее образование, карьера стандарт, педагог кадровый, подготовленные кадры, конкурентоспособные кадры, обучение стандарт, качество обучения.

The article covers the role and significance of the teacher’s professional standard in the training of teaching staff in the system of Higher Education, the effectiveness of its application and implementation in practice. Also, in the training of pedagogical personnel in higher educational institutions, proposals and recommendations have been developed for the introduction into practice of the teacher’s professional standard.

Key words. General education, career standard, teacher personnel, trained personnel, competitive personnel, training standard, quality of education.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida oliy ma’lumotli raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan talab miqdor va sifat jihatidan ortib bormoqda. Raqobat muhitining keskinlashuvi, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini va yangi bilimlarni egallash, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, ilg‘or innovatsiyalarni tezkor amaliyotga joriy etish, zamonaviy bilimlarni iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylantirish barcha rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarning bugungi kundagi eng muhim vazifalari hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish, mamlakatimizda inson kapitalini to‘laqonli rivojlantirish, oliy va professional ta’limning sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida “mehnat bozorini, shu jumladan uning kasbiy-malakaviy tuzilmasini monitoring qilish, baholash va strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish va yangi progressiv texnologiyalarni rivojlantirishni inobatga olgan holda, malakali kadrlarga

bo‘lgan joriy va istiqbolli ehtiyojni qondirish” vazifasi belgilangan. Bu borada zamonaviy talablarga mos ta’lim tizimini yaratish va malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qabul qilinayotgan qonun, farmoyish va qarorlarda kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini ta’minlash, malaka va bilimlarni, nafaqat shaxs tomonidan olingan ta’lim, balki uning kasbiy tajribasi, ko‘nikmalari hamda shaxsiy va ishbilarmonlik xususiyatlarini inobatga olgan holda tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikatsiya) qilishning moslashuvchan, shaffof va xolisona mexanizmlarini joriy etish, kasbiy standart qabul qilinganda, tasarrufida ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar navbatdagi o‘quv yili boshlanishidan oldin ta’lim tashkilotlarining tegishli ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirishni tashkil etish vazifalari belgilanmoqda. Mazkur vazifalar ta’lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish orqali bugungi kun mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarni olib borishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kasb standarti asosida ta’lim standartlarini ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatish uchun olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og‘zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

O‘zbekistonda bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishga va ta’lim berishning yuqori natijalariga erishishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu masalalarga tizimli yondashish va uzoq muddatli istiqbolni aniqlab bergan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Shunday hujjatlardan biri 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonidir. Hujjatda ta’lim sohadagi mavjud muammolar orasida “direktor va o‘qituvchilar bilishi va bajarishi kerak bo‘lgan aniq belgilangan milliy standartlarning mavjud emasligi, ularning salohiyati o‘sishiga hamda amaldagi muassasalar rahbarlarini tanlash va tayinlash tartibining samarasizligiga olib kelmoqda” deb alohida ta’kidlangan.

Ushbu farmon ijrosini ta’minlash, professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish umumiy o‘rta va professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisining kasb standarti ishlab chiqilgan.

Kasb standartlari ish beruvchilar tomonidan, boshqaruv faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, kadrlar siyosatini shakllantirishda va xodimlarni boshqarishda, xodimlarni malakasini oshirish va attestatsiyadan o‘tkazishni tashkil qilishda, malaka toifalarni belgilashda foydalanish belgilangan.

Kasb standarti o‘qituvchi o‘z kasbiy vazifalarini sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan mehnat vazifalariga asosiy talablarni belgilaydi. Mehnat vazifalari bilimlar, ko‘nikmalar va o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida o‘qituvchining samarali faoliyatga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘unlashgan jamlamasini ifodalaydi.

Kasb standarti kompetentlik yondashuvi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchining o‘quvchilarga bilimlarni uzatishga, ularda ko‘nikmalar va qadriyatlar shakllantirishga qaratilgan faoliyatni nazarda tutadi. Kasb standarti o‘qituvchining ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalariga talablarni hamda u o‘z kasbiy faoliyatida rioya qilishi zarur bo‘lgan qadriyatlar to‘plamini ta’riflaydi. Ijtimoiy kompetensiyalar barcha pedagoglar uchun umumiy hisoblanadi. O‘qituvchining kasbiy harakatlariga talablar yetti yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan:

1) o‘quv jarayonini rejalashtirish;
2) ta’lim samaradorligini ta’minlash;
3) o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani ta’minlash;
4) tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish;
5) o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish;
6) xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitni yaratish va ta’minlash;
7) hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik.

Bu mehnat sohalari kasbiy faoliyatning (mehnat funksiyalarining) tuzulmasini aks ettiradi, o‘quvchilarga ta’lim berish va ularni rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning yuqori sifatini ta’minlash uchun muhim hujjat hisoblanadi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha o‘qituvchining kasbiy mehnat harakatlariga talablarni aks ettiruvchi standartlar to‘plami taqdim etilgan. Standartlarni bajarish pedagogning bu sohadagi faoliyati samaralidir degan ma’noni bildiradi. Har bir mehnat funksiyasi doirasida har bir standartda mehnat harakatlari sifatida ifodalangan o‘qituvchi faoliyatining ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Ular standartni bajarish uchun o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan aniq harakatlarni belgilab, sohalar bo‘yicha standartlar talablarini bajarish kerak bo‘lgan mehnat harakatlarining har bir sohasi bo‘yicha belgilangan bilimlar va ko‘nikmalarni qo‘llanishi bilan bevosita bog‘liq va o‘qituvchining kasbiy qadriyatlariga asoslangan[1].

Bo‘lajak o‘qituvchi nimalarni bilishi, bajarishi va qadrlashini tushunish kasbning obro‘si va martabasini oshirish borasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimligini ko‘rsatadi.

Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining ta’lim standartlari va dasturlari o‘qituvchi kasb standarti asosida tayyorlanganligini o‘rganish natijasida oliy ta’lim muassasa professor-o‘qituvchilarida mazkur hujjat va jarayon haqida to‘liq shakllanmaganligi aniqlandi.

So‘rovnomada ishtirok etgan professor-o‘qituvchilarning aksariyati (82 foiz) umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchisining kasb standarti haqida ma’lumotga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, 18 foiz respondentlar ushbu kasb standarti pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining davlat ta’lim standartlarining tarkibiy qismi bo‘lib, bo‘lg‘usi pedagoglarni tayyorlashda ta’lim mazmunini tartibga soluvchi hujjat ekanligidan xabardor emasligi ma’lum bo‘ldi. Ya’ni 2021-yilda qabul qilingan kasb standarti 3 yildan so‘ng ham amaliyotga to‘liq tatbiq etilmaganligi ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, zamon, mehnat bozori hamda ta’lim oluvchilar talabi va ehtiyojlariga javob beradigan pedagog kadr-mutaxassislarni tayyorlashda, ta’lim sohasidagi siyosatni amalga oshiradigan islohotlarning asosiy qismini oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etishi lozim. Oliy ta’lim tizimi tayyorlayotgan kadlarning kasbiy faoliyati maktabgacha hamda umumiy o‘rta ta’limning sifatini, bitiruvchi o‘quvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kadrlar bilan mamlakatimizda olib borilayotgan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlat va jamiyat qurilishi jarayonini jadallashtirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatorida munosib o‘rin egallashini ta’minlash mumkin.

So‘rovnoma davomida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining o‘qituvchi kasb standartiga bo‘lgan munosabati o‘rganilib, quyidagilar aniqlandi:

53 foiz respondentlar kasb standartini amaliyotga tatbiq etishga tayyor;

22 foiz respondent kasb standartini amaliyotga joriy etish shart emas, mavjud

[1] Mamanazarova N.K, Axmedov M.U. O‘qituvchining kasbiy standarti – milliy ta’limni xalqaro darajaga ko‘tarish vositasi sifatida. / Innovatsion in the modern education system conference. USA. Part 6-may 2021.

ta’lim standartlarida berilgan malaka talablari yetarli deb hisoblaydi;

– 3foiz kasb standartini takomillashtirish kerakligini ta’kidlaydi;

– 7foiz respondent kasb standartini joriy etish kadrlarni tayyorlashda hech nimani o‘zgartirmaydi deya fikr bildirdi;

–15 foiz respondent kasb standartini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha savolga javob berishga qiynaldi.

Tadqiqot davomida o‘qituvchi kasb standarti pedagog kadrlarni tayyorlashdagi zarurati o‘rganilganda:

– 47 foiz ishtirokchilar kasb standarti asosida ta’lim standartlari va dasturlarini tayyorlash bo‘lajak pedagog kadrlarni amaliyotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etgan. Ya’ni, so‘rovnoma ishtirokchilari kasb standartida nazariy bilimlar bilan birga o‘qituvchining faoliyatida amalga oshiradigan mehnat harakatlarini belgilovchi hujjat bo‘lib, bevosita amaliyot bilan bog‘liq talablarni aks ettiradi hamda bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash uchun aniq yo‘nalishlarni belgilaydi deb hisoblaydi;

– 23 foiz ishtirokchilar kasb standarti asosida tashkil etilgan ta’limning va bo‘lajak kadrlarning sifati oshadi degan fikr bildirdi;

– 17 foiz ishtirokchilar kasb standarti kadrlarni tayyorlashda kreativlikni chegaralab, o‘qituvchining faoliyatida qolip paydo bo‘lishiga olib keladi deb hisoblaydi;

– 8 foiz ishtirokchi kasb standarti asosida ta’limni tashkil etishga oliy tizim tayyor emas deb hisoblaydi;

– 5 foiz ishtirokchi kasb standarti pedagoglarni tayyorlashda kerak emas deb hisoblaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar pedagog kadrlarni tayyorlashda yagona fikr mavjud emasligini, bu masalada jahon tajribasini o‘rganish lozimligini hamda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimni takomillashtirish kerakligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “malakali kadrlar tayyorlash jarayoni va o‘quv-uslubiy ta’minoti, o‘quv reja va dasturlarini kadrlar iste’molchilarining yetakchi mutaxassislari tomonidan tanqidiy tahlil etilishini ta’minlash, pedagogika ta’lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan talablarni ish beruvchi tashkilotlar va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda shakllantirish”[2] zarurati hukumat qarorlarida belgilangan.

O‘qish bilan amaliyotni birgalikda olib borish, talabalarning bevosita ishlab chiqarishda amaliy mashg‘ulotlarini va malakaviy amaliyotlarini o‘tkazish, ta’lim mazmunini shakllantirish o‘qituvchi kasb standarti asosida tashkil etilishi ilm-fan va ta’lim jarayonining o‘zaro integratsiyalashuvini ta’minlab, mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda o‘tkazilgan tahlillar asosida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar o‘qituvchi kasb standarti bilan yetarlicha tanish emasligini va kadrlarni tayyorlashda qanday ahamiyatga ega ekanligi, hujjat mazmuni haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligi aniqlandi. Shu bilan birga, aksariyat professor-o‘qituvchilar o‘qituvchi kasb standartini amaliyotga tatbiq etilishini ma’qullaydilar hamda bu borada aniq vazifalarni belgilash pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim qadam deb biladilar.

Kasb standartlari kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, baholash, attestatsiyadan o‘tkazish, kasbga tayyorlash uchun asos sifatida ishlab chiqilganligi va foydalanuvchilarning keng doirasiga mo‘ljallanganligini inobatga olib, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida malakali kadrlarni tayyorlashda

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori.

quyidagilarga e’tibor qaratishni nazarda tutadi:

– o‘qituvchi kasb standartini o‘rganish va tahlil qilish, uning mazmuni, ahamiyati va o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi o‘rni haqida aniq tasavvurlarni hosil qilish;

– fan-ta’lim va ishlab chiqish integratsiyasini inobatga olgan holda o‘qituvchi kasb standartini amaliyotga joriy etish. Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarda kadrlarni tayyorlashda tayanch hujjat asosida foydalanish;

– o‘qituvchi kasb standarti asosida ta’lim standartlari, dasturlari va modullari hamda bitiruvchining malaka tavsiflarini ishlab chiqish;

– o‘qituvchiga qo‘yilgan talablar haqida talabalarni xabardor qilish.

– baholash vositalarini ishlab chiqishda va moslik darajalari bo‘yicha talabalarning malaka talablarini ishlab chiqish.

– bitiruvchining o‘qituvchi kasbiga munosibligini aniqlashda yakuniy davlat attestatsiyasini kasb standarti asosida tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ‘‘Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalari’’ga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilish ma’ruzasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi 34-son bayoni, 2019-yil 23-avgust.

4. Адолф В.А. Подготовка будущего педагога к профессионалной деятелности в условиях внедрения профессионалного стандарта // Вестник Красноярского государственного педагогического университета имени В.П. Астафева. - 2015. - № 1 (31). - С. 5-11.

5. Ibragimov A. Comparative Analysis of Foreign Experiences in the Development of Professional Standards of Teachers / Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments.

6. Mamanazarova N.K, Axmedov M.U. O‘qituvchining kasbiy standarti – milliy ta’limni xalqaro darajaga ko‘tarish vositasi sifatida. / Innovatsion in the modern education system conference. USA. Part 6. May 2021.

7. Steiner L. Using Competency-Based Evaluation to Drive Teacher Excellence. Lessons from Singapore. - 2010. - Public Impact, Chapel Hill, NC, 2010. 22 p.

Xosiyatxon TILLAXODJAYEVA,
“ALFRAGANUS UNIVERSITI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Pedagogika va psixologiya” yunalishi magistranti

TALABALARDA KREATIV QOBILIYATNI SHAKILLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AYRIM ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada kreativlik tushunchasining paydo bo‘lishi, ahamiyati va adabiyotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, talabalarda kreativ qobiliyatini shakillantirishda integrativ yondashuvning strukturaviy komponentlari ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Konvergent, divergent, fikrlash, kreativlik, kreativ qobiliyat, shakillantirish, integrativ, yondashuv, talaba.

В статье рассмотрено возникновение понятия креативности, его значение, проведен анализ литературы, рассмотрены структурные компоненты интегративного подхода к формированию креативных способностей студентов.

Ключевые слова. Конвергентное, дивергентное, мышление, креативность, творческие способности, формирование, интегративный, подход, студент.

The article presents the emergence of the concept of creativity, its importance and literature analysis, and the structural components of the integrative approach to the formation of students’ creative abilities are considered.

Key words. Convergent, divergent, thinking, creativity, creative ability, formation, integrative, approach, student.

Zamonaviy talablar va xorij tajribalarini o‘rganish asosida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

“Kreativlik” tushuncha sifatida G‘arbda XIX asrning 30-yillarida paydo bo‘lgan. Ushbu muammoni o‘rganishning falsafiy jihati Platon va Aristotelga borib taqaladi . Agar Aflotun inson (birinchi navbatda, san’at ahli): ilhomni, ijodiy g‘oyalarni oladi va ularni hayotga yo‘naltiradi, deb hisoblasa, Aristotel ilhom manbalarining aqliy birlashmalari natijasida g‘oyasini ilgari suradi. Genetik va atrof-muhit omillari bilan belgilanadigan kreativlik haqidagi g‘oyalar XVIII asrda da ishlab chiqilgan .Uilyam Daff ishida kreativ daholar orasida g‘oyalarni uyg‘unlashtirish va baholash imkonini beruvchi assotsiativ tasavvur, g‘oyalar izlanishiga yo‘l ko‘rsatuvchi estetik sifatlar kabi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi.

“Kreativlik g‘ayrioddiy ijod sifatida” tushunchasini chuqurlashtirish qobiliyatlar qatorida J. Gilford ivergent fikrlashni davom ettirdi . J. Gilford fikrlashning ikki turini aniqladi:

1) konvergent fikrlash izchil, mantiqiy, bir yo‘nalishli;

2) muqobil bo‘lgan, mantiqdan chetga chiqqan, muammolarni yechishning variant yo‘llariga imkon beruvchi divergent fikrlash (yoki ijodiy fikrlash), kutilmagan hodisalarga olib keladi.

Uni xarakterlashi mumkin: shaxsiyat, umuman olganda va (yoki) uning:individual qobiliyatlari haqida.

Sternberg va Lubartning fikriga ko‘ra, kreativlik olti turdagi resurslarni talab qiladi. Bular aql, bilim, shaxsiyatning kognitiv uslublari, motivatsiya va atrof-muhitning jismoniy

va ijtimoiy rag‘batlantirishni ta’minlovchi jihatlari bo‘lib, ular g‘oyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, D.B.Bogoyavlenskaya, V.N.Drujinin, V.D.Shadrikov tomonidan ishlab chiqilgan iqtidorning ishchi konsepsiyasida uchta jihatni aniqladi: kreativlikning operativ ta’rifi, uning shakli va ma’nosi.

1. Kreativlik, shaxsning integral sifati bo‘lib, o‘zining yo‘nalishida namoyon bo‘ladi, boshqa motivatsiya turlariga nisbatan kognitiv motivatsiyaning ustunligi, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati sifatida ifodalanadi.

2. Kreativlikni ikki shaklda ko‘rib chiqish mumkin: potentsial va dolzarb. Potensial kreativlik – bu faoliyatdan oldingi kreativlik, u ma’lum bir tashqi sharoitda kreativlikni namoyon qilish qobiliyati nuqtayi nazaridan shaxsni tavsiflaydi. Yashirin ijodiy imkoniyatlar shaxsning ijodiy faoliyatida aktuallashadi.

3. Kreativlikni shaxsning samarali rivojlanishining asosi, uning o‘sishini ta’minlovchi salohiyat sifatida, u yoki bu darajada har bir insonga xos.

Kreativlikni shakllantirishda ta’limning roli bo‘yicha o‘tkazilgan madaniyatlararo tadqiqotlar natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

– madaniyatning tabiati kreativlik turiga va uning rivojlanish jarayoniga ta’sir qiladi;

– kreativlikning rivojlanishi genetik jihatdan aniqlanmaydi, lekin bola tarbiyalangan madaniyatga bog‘liq;

– kreativlikning rivojlanishida uzluksizlik yo‘q, kreativlik rivojlanishining pasayishini bola duch keladigan yangi talablar va stressli vaziyatlar qanday ifodalanganligi bilan izohlash mumkin;

– kreativlikning rivojlanishidagi pasayish har qanday yoshda maxsus tayyorgarlik orqali olib tashlanishi mumkin.

Ta’lim muhiti uchun ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishning quyidagi usullari, ayniqsa, dolzarbdir:

1.Qulay muhitni ta’minlash. O‘qituvchining xayrixohligi, uning bolani baholash va tanqid qilishdan bosh tortishi divergent fikrlashning erkin namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

2.Talabaning qiziqishini rivojlantirish uchun atrof-muhitni turli xil yangi narsalar va stimullar bilan boyitish.

3.Asl g‘oyalarni ifodalashni rag‘batlantirish.

Mashqlar va amaliyot uchun imkoniyatlarni ta’minlash. Turli sohalarda, ham ta’lim, ham darsdan tashqarida turli xil xarakterdagi savollardan keng foydalanish va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvning shaxsiy misolidan foydalanish.

Respublikamizda N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayevlarning fikricha, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. “Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi” deb ta’kidlaydilar.

Ularni fikricha kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Ularni fikricha pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur:

Kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shuning uchun bugungi kun ta’lim jarayonida kreativ o‘qitish, har

qanday vaziyatga nisbatan noodatiy echim topish davr talabi.

Zamonaviy talablar va xorij tajribalarni o‘rganish asosida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Kreativ qobiliyatni shakillantirishda integrativ yondashuv, talabalarda tajribaviy, analitik, va intellektual ko‘nikmalarini birlashtirishni maqsad qiladi. Bu yondashuv talabalarni farzandchilik, ta’lim, ijtimoiy fanlar va texnologiyalar orasidagi munosabatlarni o‘rganishga rag‘batlantiradi. Talabalarda kreativ qobiliyatini shakillantirishda integrativ yondashuvning strukturaviy komponentlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Tajribaviy ko‘nikmalar, ya’ni talabalar o‘z o‘zlarining tajribalaridan o‘rganish orqali yangiliklarni yaratish va ularni o‘rganib chiqish orqali kreativliklarini rivojlantirishadi.

Analitik ko‘nikmalar, ya’ni analitik ko‘nikmalar, talabalar uchun muhimdir, chunki ular muammolarni tahlil qilish va yechishda yordam beradi. Kreativ fikrlashda analitik ko‘nikmalar talabalarga muhimdir.

Intellektual ko‘nikmalar, ya’ni intellektual ko‘nikmalar, masalalarni hal qilishda fikr yuritish va yechish jarayonlarini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar talabalarga kreativliklarini oshirishda yordam beradi.

Ijtimoiy munosabatlar, ya’ni ijtimoiy munosabatlar, talabalarga boshqa insonlar bilan ishbilarini boshlash, guruh ishbilarida ishtirok etish va boshqa insonlar bilan fikrlar almashish imkoniyatini beradi. Bu, kreativlikni rivojlantirishda muhimdir.

Integrativ yondashuv, talabalarga bir necha turdagi ko‘nikmalar va ko‘nikma turlarini bir-biriga bog‘liq qilish orqali kreativ fikrlash va yaratuvchi yondoshuvni rivojlantiradi.

Bu strukturaviy komponentlar kreativlikni rivojlantirishda muhimdir va talabalarga o‘zlarini rivojlantirish, yangiliklarni qabul qilish va muammolarga yangi yechimlar topishda yordam bera oladi.

Fikrimizcha, aynan mazkur tarkibiy elementlar kreativlikni shaxsning integral xususiyati sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, u maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayondagina shakllanishi mumkin, chunki u kreativlik ijodiy mahsulotda (moddiy, ideal, xulq-atvor tarzida) namoyon bo‘lib, ushbu mahsulot noyob, nostandart bo‘lishi zarur. Noyoblik va nostandartlik muammoni ko‘ra bilish hamda original farazlarni ilgari surish qobiliyatidan kelib chiqadi, shu sababli aksariyat fikrlashning o‘ziga xos tipi sifatida divergent tafakkur tadqiq etilib, bu muammoni har tomonlama ko‘rib chiqish va bir qator farazlarni ilgari surish imkonini beradi.

Demak, kreativlikning ilk ko‘rsatkichi divergent mahsuldorlik bilan aloqador bo‘lgan fikrlash qobiliyatidir.

Insonni ijodkorlikka yo‘naltirish kreativlikka xos ikkinchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Kreativ shaxs fazilatlarining qirralari stereotip va tashqi ta’sirdan qat’iy nazar, mustaqil tafakkurga tayanuvchi faoliyat uslubida namoyon bo‘ladi; shuningdek, muammoni ilgari surish va hal etish uchun mustaqil izlanish ham shunday fazilat qirralaridan hisoblanadi. Kreativlik o‘z-o‘zini anglaydigan va faollashtiradigan shaxs xususiyatlarini (bilishga intilish, mustaqillik, avtonomiya va b.) qamrab oladi, shu sababli uchinchi ko‘rsatkich shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirish darajasi hisoblanadi.

Talabalarda kreativlikni shakllantirish uchun quyidagilar orqali shakllantirish mumkun:

Kreativlik uchun ilg‘or muhit yaratish juda muhimdir. Tarbiyachilarga fikr-mulohazalarni ifoda qilish, yangi yondashuvlar topish va ularni amalga oshirish uchun rohat muhit yaratish kerak.

Tarbiyachilarga fikr yuritishda yordam bera oladigan maslahatlar berish juda mu-

himdir. Ularga savollar berish, savollarga javob izlash va yangi yondashuvlar topishda yordam bera oladigan usullar o‘rgatish.

Tarbiyachilarga kreativlikni rivojlantirish uchun muammoli mashq vazifalar berish. Bu vazifalar tarbiyachilarni yangi yondashuvlar qidirishga majburlaydi va ularning fikrini o‘zgartiradi.

Tarbiyachilarga kreativlikni rivojlantirish uchun ishbilar va loyihalar berish. Bu, ularning o‘zlarini sinash, yangi yondashuvlar topish va ularni amalga oshirishlari uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Kreativlikni rag‘batlantirish uchun taqdimotlar va darslar o‘tkazish juda muhimdir. Bu orqali tarbiyachilar o‘z fikrlarini ifoda qilish, yangi yondashuvlar qidirish va ularni amalga oshirishlari mumkin.

Tarbiyachilarni kreativlikni rivojlantirishda hamkorlik va jamoatchilikni rag‘batlantirish juda muhimdir. Ularga bir-birlariga qo‘llab-quvvatlash, fikrlarini baholash va jamoatchilik bilan ishlash imkoniyatini berish kerak.

Shunday qilib, yuqoridagilarni hisobga olgan holda bizning fikrimizcha kreativlik – muqobil bo‘lgan, mantiqdan chetga chiqqan, muammolarni echishning imkon yo‘llariga beruvchi divergent fikrlash, yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq bo‘lib, nostardart fikrlash natijasida yangi, original g‘oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish hamda faoliyatida, samarali ishlarida, shaxsiy fazilatlarida, muammoli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Albert, R. S. A history of research on creativity / R. S. Albert, M. A. Runco. - Cambridge : Cambridge University Press, 1999. -P. 16-31., b . 21

2. Lukov V. A. Sotsialnoe proektirovanie : uchebnoe poso¬bie / V. A. Lukov. - M.: Flinta: Nauka, 2006. - 240 s.16-b.

3. Clifford, M. M. Effects of payoff and task context on aca¬demic risk taking / M. M. Clifford, F. C. CHOU // Journal of Education¬al Psychology.- 1991. -№ 83(4).-P. 499-507

4. Lubart, T. L. An investment approach to creativity: Theory and data / T. L. Lubart, R. J. Sternberg // Thecreative cognition ap¬proach. - Cambridge (MA) : MIT Press. - 1995. - P. 271-302Bundan tashqari, atrof-muhit kreativlikni ijtimoiy baholash manbai hisoblanadi [http:moluch.ru/conf/ped/archive/192/pdf/#1

Laziz O'KTAMOV,
Toshket davlat iqtisodiyot universiteti,
''Amaliy matematika'' kafedrasi katta o'qituvchisi

HOSILANING IQTISODIY MASALALARDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Maqolada ba'zi iqtisodiy masalalar juda murakkab va bu masalalarni hal qilishga yordam berish uchun "hosila" kabi tushunchalar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, iqtisodiy masalalarda hosilaning qo'llanilishini ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar. Hosilaning qo'llanilishi, funksiya, limit yoki limit qiymatlar, iqtisodiy obyekt, o'zgarish intensivligi.

Некоторые экономические вопросы очень сложны, и в статье рассматриваются такие понятия, как "производная", чтобы помочь решить эти проблемы. Также упоминается использование производной в экономических вопросах.

Ключевые слова. Применение производной, функции, предельных или предельных значений, экономического объекта, интенсивности изменения.

The article reflects on some economic issues that are very complex and concepts such as "derivative" to help solve these issues. Thus, the application of the derivative in economic matters is considered.

Key words. Application of the derivative, function, limit or limit values, economic object, intensity of change.

Hosila matematikaning asosiy tushunchalardan biridir. Iqtisodiy masalalarda hosila tushunchasi, ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar, limit tahlili va funksiyalarning elastikligi bilan chambarchas bog'liq.

Ta'rif: y=f(x) funksiyaning hosilasi deb, funksiya orttirmasining argument orttirmasiga nisabining argument orttirmasi 0 ga intilgandagi limitiga aytiladi va y' kabi belgilanadi.

$$f'(x)=\lim_{\Delta x\to 0}\frac{f(x+\Delta x)-f(x)}{\Delta x}$$

Shunday qilib,

$$y'=\lim_{\Delta x\to 0}\frac{\Delta y}{\Delta x}$$

yoki

Agar x ning biror qiymatida masalan x=a, funksiya orttirmasning argument orttirmasiga nisbati Δx 0 da chekli songa intilmasa, u holda y=f(x) funksiya x=a da hosilaga ega emas deyiladi.

Limit yoki limit qiymatlar holatni (jami yoki o'rtacha qiymat sifatida) emas, balki jarayonni, iqtisodiy obyektning o'zgarishini tavsiflaydi. Binobarin, hosila ma'lum bir iqtisodiy obyektning (jarayonning) vaqt o'tishi bilan yoki o'rganilayotgan boshqa omilga nisbatan o'zgarish intensivligi sifatida ishlaydi.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: y – ishlab chiqarish xarajatlari, x – mahsulotning miqdori, u holda ∆x- mahsulotning ortishi, a ∆y - ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi.

Bunday holda, hosila mahsulotning marjinal qiymatini ifodalaydi va qo‘shimcha mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun qo‘shimcha xarajatlarni taxminan tavsiflaydi.

$$MC = \frac{dTC}{dQ}$$

Bunda MC – marjinal xarajat (marginalcosts)
TC – umumiy xarajatlar (totalcosts)
Q – miqdor.

Hosilaning iqtisodiy ma’nosini tahlil qilib, shuni payqash mumkinki, ko‘pchilik, shu jumladan, ishlab chiqarish va iste’mol nazariyasining asosiy qonunlari, talab va taklif, matematik teoremalarning bevosita oqibatlari bo‘lib chiqadi.

Ferma teoremasi (nolga tenglik haqida)

Matematik talqin	Iqtisodiy talqin
Agar X oraliqda differensiallanuvchi $y = f(x)$ funksiya shu oraliqning x_0 ichki nuqtasida eng katta yoki minimal qiymatga yetsa, bu nuqtadagi funksiyaning hosilasi nolga teng, ya’ni $f'(x_0) = 0$ bo‘ladi.	Ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarishning optimal darajasi marjinal xarajatlar va marjinal daromadlarning tengligi bilan belgilanadi.

Ya’ni, ishlab chiqarish miqdorining darajasi Q_0 ishlab chiqaruvchi uchun optimal bo‘ladi agar,

$MR(Q_0) = MC(Q_0)$ bo‘lsa.

Bunda MC - marjinal xarajat,
MR - marjinal daromad.

Daromad funksiyasini $F(Q)$ bilan belgilaymiz. U holda $F(Q) = R(Q) - C(Q)$, bunda R – daromad, a C – jami ishlab chiqarish xarajatlari.

Shubhasiz, ishlab chiqarishning optimal darajasi foyda maksimal bo‘lgan darajadir, ya’ni ishlab chiqariladigan Q_0 mahsulot miqdorining $F(Q)$ funksiyasi ekstremumga (maksimal) ega bo‘ladigan qiymati.

Bu nuqtada Ferma teoremasi bo‘yicha $F'(Q) = 0$. Lekin $F'(Q) = R'(Q) - C'(Q)$ shuning uchun $R'(Q_0) = C'(Q_0)$, bundan kelib chiqadiki, $MR(Q_0) = MC(Q_0)$.

Sement zavodi kuniga X tonna sement ishlab chiqaradi. Shartnomaga ko‘ra u qurilish kompaniyasiga kuniga kamida 20 tonna sement yetkazib berishi kerak. Zavodning ishlab chiqarish quvvati shundayki, sement ishlab chiqarish kuniga 90 tonnadan

oshmasligi kerak.

Agar xarajat funksiyasi quyidagi shaklga ega bo‘lsa, ishlab chiqarish birligining xarajatlari eng katta (eng kichik) bo‘lishini aniqlang:

K=-x3+98x2+200x. Qilingan xarajatlar quyidagini tashkil etadi K/x=-x2+98x+200

Bizning vazifamiz quyidagi funksiyaning [20;90] oraliqda eng katta va eng kichik qiymatlarini topishdan iborat У= -x2+98x+200.

Xulosa: x=49, funksiyaning kritik nuqtasi. Funksiyaning qiymatini intervallar oxirida va kritik nuqtada hisoblaymiz.

f(20)=1760

f(49)=2601

f(90)=320.

Shunday qilib, kuniga 49 tonna sement ishlab chiqarishda birlik xarajatlari maksimal bo‘ladi, bu iqtisodiy jihatdan foydali emas va kuniga 90 tonna ishlab chiqarishda minimaldir, shuning uchun biz zavodga maksimal quvvatda ishlashni, texnologiyani takomillashtirishni va boshqa imkoniyatlarni topishni maslahat beramiz, chunki rekonstruksiyasiz ishlab chiqarish hajmini oshirib bo‘lmaydi.

Vazifa 2. Moliyaviy jamg‘arma haqidagi masala.

Zavod oyiga x dona avtomobil ishlab chiqaradi. Aniqlanishicha, zavodning moliyaviy jamg‘armalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi f(x) = –0,02x3 + 600x – 1000 formula bilan ifodalanadi. Masalni hosila yordamida o‘rganamiz. So‘ng x = 100 da funksiya maksimal darajaga yetganini topamiz.

Xulosa qilib aytganda, zavodning moliyaviy jamg‘armalari ishlab chiqarish hajmining 100 donaga ko‘payishi bilan o‘sib boradi, x = 100 da ular maksimal darajaga yetadi va jamg‘arish hajmi 39 000 pul birligiga teng. Ishlab chiqarishning keyingi o‘sishi moliyaviy jamg‘armalarning qisqarishiga olib keladi.

Hosilning iqtisodiy ma’nosi quyidagicha: hosila ma’lum bir iqtisodiy jarayonning vaqt o‘tishi bilan o‘rganilayotgan boshqa omilga nisbatan o‘zgarish tezligidir.

Hosiladan eng ko‘p foydalanish marjinal tahlilda kuzatiladi, ya’ni marjinal qiymatlarni o‘rganishda (marjinal xarajatlar, marjinal daromad, mehnatning marjinal unumdorligi yoki boshqa ishlab chiqarish omillari va boshqalar).

Hosila iqtisodiyot nazariyasida keng qo‘llaniladi. Ko‘pchilik, jumladan, ishlab chiqarish va iste’mol nazariyasining asosiy qonunlari, talab va taklif matematik teoremalarning bevosita oqibatlari bo‘lib chiqadi (masalan, ferma teoremasining iqtisodiy talqini, funksiyaning qavariqligi va boshqalar qiziqish uyg‘otadi).

Hosilani bilish iqtisodiy nazariyaning ko‘plab muammolarini hal qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Малыхин В. Л. Математика в экономике. — М.: ИНФРА-М, 2001.

2. Розен В. В. Математические модели принятия решений в экономике. — М.: Книжный дом «Университет». Высш. шк., 2002

3. Солодовников А. С., Бабайцев В. А., Браилов А. В. Математика в экономике. В 2-х ч. — М.: Финансы и статистика, 2001

4. Н.Ш. Кремер. Высшая математика для экономистов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.

Qobil VOXIDOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK IQTIDORLI TALABALARNI SARALASH VA UNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH (Musiqa ta’limi misolida)

Annotatsiya

Maqolada yaxshi musiqachi – bu nafaqat musiqiy asarlarni professional tarzda bastalash yoki ijro etish hisoblanishi xususida so‘z yuritilib, uning musiqa orqali fikr va g‘oyalarni ifodalashni va his-tuyg‘ularni uyg‘otishi, shuningdek, bo‘lajak musiqachini tanlashda ko‘plab yangi metodlar taklif qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Musiqa, ta’lim, uslub, g‘oya, fikr, etika, estetika, muloqot, tuyg‘u, his, psixologik, fiziologik, iste’dod, musiqachi, havaskor.

В статье говорится о том, что хорошим музыкантом считается не только профессионально сочинять или исполнять музыкальные произведения, но и выражать мысли и идеи через музыку, передавать настроение и вызывать чувства, а также будущее. Предлагается множество новых методов для выбор музыканта.

Ключевые слова. Музыка, образование, стиль, идея, мысль, этика, эстетика, общение, чувственный, психологический, физиологический, талант, музыкант, любитель.

The article talks about the fact that a good musician is considered not only to compose or perform musical works professionally, but also to express thoughts and ideas through music, convey moods and evoke feelings, as well as future Many new methods are offered for choosing a musician.

Key words. Music, education, style, idea, thought, ethics, aesthetics, communication. feeling, psychological,physiological,talent,musician, amateur.

Qadim zamonlardan beri musiqa insonga butun umri davomida hamroh bo‘lib kelgan va uning eng muhim voqealari bilan bog‘liq bo‘lgan: qishloq ishi, fasl almashishi, bolalar tug‘ilishi, to‘ylar va dafn marosimlari. Bu inson tuyg‘ularining keng va mazmunli olamini anglash yo‘lidir. Tuyg‘ular, his-tuyg‘ular, kayfiyatlar, kechinmalar - bu musiqaning mazmunidir. Artur Shopengauer shunday degan: “Har bir bola ma’lum darajada dahodir”. Ko‘p yillar davomida dunyoning barcha mamlakatlarida keng qamrovli tadqiqotlar olib borildi va iqtidor fenomenini o‘rganish uchun ko‘plab tajribalar o‘tkazildi. Musiqadagi iste’dod haqida gapirish, ayniqsa, qiyin, chunki uning o‘zi san’atning eng mavhum shaklidir. Musiqiy iste’dod - musiqiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan iste’dod turi bo‘lib, uning tarkibiy qismlari o‘ziga xos tizimga birlashtirilgan nihoyatda murakkab psixologik, fiziologik va intellektual kompleksdir. Musiqada o‘ziga xos faoliyat va iste’dod haqida g‘oyalarga ega bo‘lgan ko‘plab mutaxassisliklar mavjud. Musiqachi bastakor, ijrochi, ovoz muhandisi, musiqashunos yoki tanqidchi bo‘lishi mumkin. Musiqiy ijrochilik san’ati doirasida dirijyor, vokalchi, xor solisti, turli cholg‘u asboblarida ijrochi kabi ko‘plab kasblar mavjud. Iqtidorli bolaning iste’dodli musiqachi bo‘lib yetishishi uchun shubhasiz, unga pedagogik yordam, shuningdek, jamiyatga moslashish bilan bog‘liq psixologik va ma’naviy yordam kerak.

Ko‘p odamlar musiqani yaxshi ko‘radilar, ba’zilari uni mashq qiladilar va tanlangan bir nechtasiga musiqachining iste’dodi beriladi. Darhaqiqat, musiqachilarni nafaqat har qanday cholg‘u asbobini chalayotganlarni, balki vokalistlar va bastakorlarni ham chaqirish odatiy holdir. Aslida, “musiqachi” atamasi musiqa bilan shug‘ullanadigan har

qanday shaxsga tegishli.

Shunday qilib, musiqachilar havaskor yoki professional bo‘lishi mumkin. Birinchilari ruh uchun, o‘zlari yoki tor doiradagi odamlar uchun musiqa yaratadilar. Professional musiqachilar tirikchilikni musiqadan topadi.

Musiqachining kasbi musiqa kabi qadimiydir. Birinchi musiqa asboblari paydo bo‘lishi bilan birinchi musiqachilar paydo bo‘ldi. Ular marosim raqslari va qo‘shiqlari, marosim an’analari va diniy tadbirlarning asosiy qahramonlari edi. Bu daqiqalarning barchasi qadimgi xalqlar hayotida muhim rol o‘ynaganligi sababli, musiqachining roli juda sharafli edi.

O‘rta asrlarda musiqachilarning roli ko‘pincha rohiblar va boshqa cherkov amaldorlari tomonidan to‘ldirilgan, chunki musiqaning rivojlanishi xristian dini (Yevropada) atrofida joylashgan edi. Shu bilan birga, sargardon musiqachilar ham bor edi, ular uchun musiqa ko‘pincha hayotdagi asosiy faoliyat edi. Qolaversa, ularning og‘zidagi musiqa g‘oya va his-tuyg‘ularni keng ommaga yetkazuvchi mafkuraviy qurolga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda musiqachi kasbining o‘rni.

Bir tomondan, musiqa o‘yin-kulgidir. Bizning ixtiyorimizda radio va televideniya, disklar va konsertlar bor – musiqiy materiallar hajmi juda katta. Lekin shu bilan birga, musiqa tarbiyaviy va hatto mafkuraviy vazifalarni ham bajara oladi. Shuning uchun musiqachining kasbi uning qo‘lida nafaqat kayfiyatni, balki ko‘plab odamlarning g‘oyalarini ham boshqarishga qodir quroldir. Musiqachi - o‘qituvchi: ular uni tinglashadi, uning ishi odamlarning ongi va intilishlariga ta’sir qiladi.

Darhaqiqat, jonli musiqa, jonli asboblar va professional san’atkorning haqiqiy vokali, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan musiqaga bo‘lgan ishtiyoq ham rivojlandi. Bu esa, texnologik taraqqiyot, jamiyatning axborotlashuvi yoki boshqa o‘zgarishlardan qat’i nazar, iste’dodli ijodkorlar har qanday vaqtda talabga ega bo‘lishidan dalolat beradi. Xo‘sh, bo‘lajak musiqachini qanday metodlar orqali saralash kerakligi mavzu ko‘lamining nechog‘li ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Avvalo bo‘lajak musiqa egasida badiiylik muhimdir. Zero, bu fazilatni san’atkorning o‘z chiqishlari davomida jonli his-tuyg‘ularini va kechinmalarini tomoshabinga xuddi shu his-tuyg‘ularni yetkazadigan tarzda ifodalash qobiliyati deb ta’riflash mumkin. Ba’zi odamlar buni tug‘ma sovg‘a deb bilishadi, boshqalari uni rivojlantirish mumkinligiga ishonch hosil qilishadi. Bir narsa aniq: yaxshi musiqachining fazilatlari orasida bu asosiylaridan biridir. Bundan tashqari, badiiylik moslashuvchanlikni, o‘zgartirish qobiliyatini, muayyan voqealarga moslashishni anglatadi. Badiiylik, shuningdek, tomoshabinlarni o‘ziga jalb qilish va ularni ijrochi bilan birligini his qilish uchun eng oddiy narsa va harakatlarga maxsus, ramziy ma’no berish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Ustalik. Iste’dod – bu iste’dod, lekin musiqa asboblari, o‘z tanasi va ovozi bilan ishlashda aniq ko‘nikmalarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu ijodiy jarayonning odatda “hunarmandchilik” deb ataladigan qismidir. Sahnadagi har qanday spektaklning qulayligi va go‘zalligi ortida uzoq soatlar mashaqqatli mehnat, mahoratni oshirish, o‘nlab g‘alabalar va muvaffaqiyatsizliklar yotadi.

Muloqot qobiliyatlari va tadbirkorlik. Eng zo‘r musiqachi uchun ham, ayniqsa, ijodining boshida o‘z iste’dodini keng ommaga targ‘ib qila olish juda muhimdir. Prodyuser, homiylar, chiqishlar uchun mos platforma topish va, nihoyat, hamfikrlardan iborat kuchli jamoani birlashtirish – bu karyeraning eng muhim bosqichlari bo‘lib, ular dastlab rassomning ijrochilik tajribasi va mahoratidan ham kattaroq rol o‘ynaydi. Ijodiy birlik rivojlanishining keyingi bosqichlarida aynan muloqot qobiliyatlari izlanuvchan musiqachi bo‘lib qolishga yordam beradi.

Ba’zi musiqiylik ko‘pchilik uchun odatiy holdir, lekin u odamdan odamga farq qiladi. Ijodiy rivojlanish muhitini yaratish iqtidorli bolaning imkoniyatlarini ochishga

yordam beradi. Biroq, hatto eng ijodiy o‘qituvchi ham ochiqlik va innovatsiyalarni rad etuvchi qattiq, statik tizimda juda ko‘p narsaga erisha oladi. O‘qituvchilarning namuna bo‘lib xizmat qilishi, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish, o‘quvchilar qiziqishini ijtimoiy va uyushqoqlik bilan qo‘llab-quvvatlash orqali bolalar o‘zlarining musiqiy iste’dodi imkoniyatlarini kashf etishlari va ro‘yobga chiqarishlari mumkin bo‘ladi. Qo‘shimcha ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiyaning umumiy yuqori darajasi alohida musiqa qobiliyati va iste’dodi bo‘lgan bolalar ta’limini rivojlantirish uchun zarur asosdir.

Xulosa qilib aytganda, musiqa eng avvalo san’at ekanligini unutmasligimiz kerak, ya’ni musiqachi ijodkorlik kasbidir. Ijodkor odamlar alohida, ularni boshqarish qiyin va ulardan hech narsa talab qilish deyarli mumkin emas. Shuning uchun musiqachining kasbi uchun bunday mezonlar yo‘q. Yaxshi sozanda bo‘lish uchun avvalo iste’dod, musiqa chalishda tug‘ma qobiliyat bo‘lishi kerak. Yaxshi eshitish va ovozsiz musiqachi bo’lish qiyin.

Lekin har qanday iste’dodni rivojlantirish kerak. Faqat juda iqtidorli shaxslar mustaqil ravishda professional musiqachi bo’lib yetishadi.

Musiqa ta’limini olishning ko‘plab usullari mavjud – musiqa to‘garaklari va o‘qituvchi bilan individual darslardan tortib, musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan institutlarni o‘z ichiga olgan uch bosqichli musiqa ta’limi tizimigacha. Bu bilimlarni tizimlashtirish, malaka oshirish va doimiy ravishda kasbiy o’sishning ishonchli yo‘lidir.

Afsuski, hatto eng yaxshi ta’lim ham musiqachining muvaffaqiyati va mashhurligini kafolatlamaydi. Ushbu kasbning asosiy xavfi - bu talab qilinmasdan qolish xavfi. Musiqachining shuhrati tushuntirish qiyin bo‘lgan va hech qanday aniq omillarga bog’liq bo’lmagan hodisadir. Siz musiqachi bo‘lib tug’ilishingiz kerak, siz ushbu kasbni chin dildan sevishingiz va o’zingizni unga bag’ishlashingiz, o’ziga xos xarizmaga ega bo‘lishingiz va omma oldida qiziqarli va zaruriy ishtiyoqni ko’tarishingiz kerak – bu o‘zingizni bunday ko‘p qirrali va qirrali dunyoda anglashning yagona yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksakal, E., Dağdeviren, M., Eraslan, E., Yüksel, I. (2013). Personel Selection Based on Talent Management. Social and Behavioral Sciences, 73, 68–72.

2. Armstrong, M. (2009). Praktika upravleniya chelovecheskimi resursami [The practice of human resource management]. SPb.: Piter. Axelrod, B., Handfield-Jones, H., Michaels, E. (2002). A new game plan for C players. Harvard business review, 80(1), 80–88.

3. Baum, M., Kabst, R. (2014). The effectiveness of recruitment advertisements and recruitment websites: indirect and interactive effects on applicant attraction. Human Resource Management, 53(3), 353–378. ORGANIZATIONAL PSYCHOLOGY Address: 20 Myasnitskaya Str., Moscow 101000, Russian Federation E-mail: alexandra.osipoffa@gmail.com Organizational Psychology, 2018,Vol. 8, No. 4. www.orgpsyjournal.hse.ru 72

4. Berger, L. A., Berger,D. R. (2011).The talent management handbook: creating a sustainable competitive advantage by selecting, developing and promoting the best people. New York: McGraw-Hill. Bidwell, M. (2011). Paying More to Get Less: The Effects of External Hiring versus Internal Mobility. Administrative Science Quarterly, 56(3), 369–407.

5. Björkman, I., Ehrnrooth, M., Mäkelä, K., Smale, A., Sumelius, J. (2013). Talent or not? Employee reactions to talent identification. Human Resource Management, 52(2), 195–214.

6. Богоявленская, Д. Б., Шадриков В. Д. (Эдс.) (2003). Рабочая конепия одаренности [Working concept of giftedness]. М.: Magistr.

Fotima ABDIKARIMOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI UCHUN INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMDA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun integratsiyalashgan ta’limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati va shu sharoitda tanqidiy fikrlash yordamida o‘qitishning zamonaviy pedagogik usullari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Tanqidiy fikrlash, integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim, xulosa, qaror, video namoyish, onlayn uchrashuv va hamkorlik.

В данной статье анализируется значение критического мышления в интегрированном образовании для будущих учителей начальной школы и современные педагогические методы обучения с использованием критического мышления в этом контексте.

Ключевые слова. Критическое мышление, интеграция, интегрированное обучение, вывод, решение, видеодемонстрация, онлайн-встреча и сотрудничество.

The significance of critical thinking in integrated education for primary school teachers is examined in this article. Additionally, contemporary teaching strategies that employ critical thinking in this setting are emphasized.

Key words. Critical thinking, integration, integrated learning, conclusion, decision, video presentation, online meeting and collaboration.

Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda odamlarni axborotlar oqimi o‘rab olmoqda. Shuning uchun ham odamlar turli xildagi ma’lumotlarni ayni bir vaqtda qabul qilib tez oqilona xulosaga kelishi talab qilinmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillari kundalik turmushlarida turli axborotlarni bir vaqtda qabul qilishmoqda va ular shu axborotlardan kerakli xulosalarga kelishiga to‘g‘ri kelmoda. Natijada bunday yosh avlodni bunday axborotlar olamida yashashga tayyorlash maktab oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sohasiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazmoqda. Ta’limni birlashtirish muammosi tobora ko‘proq bahs munozaralarga sabab bo‘lmoqda va olimlar, metodistlar va o‘qituvchilarni uni amalga oshirishning samarali usullarini, metodlarini izlashga majbur qilmoqda.

Adabiyotlarda integratsiyasi so‘ziga bir qancha ta’riflar keltirilgan.

“Integratsiya” so‘zi lotincha integratio - tiklash, to‘ldirish, “integer” - butun so‘zidan kelib chiqqan. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalaming bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

Integratsiya so‘zma-so‘z “bir butunga birlashish” degan ma’noni anglatadi, bu boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilganda ma’noni aniqlashtirishga yordam beradi. O‘quv rejalariga fanlarni integratsiyalashganda alohida mavzularga emas, balki tushunchalar va mavzularni har tomonlama va to‘liq tushunishga e’tibor qaratiladi. Integratsiya talabalarga turli fanlarni har tomonlama tushunishga yordam berishni anglatadi.

Integratsiya bu – markaziy mavzuni, muammoni yoki tajribani o‘rganish uchun bir nechta fanlardan metodologiya va tilni ongli ravishda qo‘llaydigan o‘quv dasturi yondashuvi.

Glatthorn va Foshay (1991) integratsiyani “bir-biri bilan yaqinroq o‘quv dasturining alohida bo‘limlarini bog’lashga urinish” deb ta’riflagan.

Boshlang‘ich maktab ta’lim-tarbiyasini integratsiyalash hozirgi kunda o‘zining dol-

zarb ahamiyatini kasb etmoqda. Bu masalaga keyingi paytlarda turli xil yondoshuvlar bo‘ldi. Ko‘pgina olimlar, tadqiqotchilar va o‘qituvchilar yosh bolalarda qanday qilib bir vaqtda turli xil fan sohalaridan bilimlarni shakillantirish mumkin degan savolni muhokamaga qo‘yishdi. Boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili, matematika, tabiat, tarbiya va mehnat kabi bir qancha fanlardan dars beradi. Bu esa o‘qituvchiga bilimlariga tayangan holda bolalarga yangi bilimlarni boshqa aloqador tushunchalarga bog‘lab o‘rgatishida muhim rol o‘ynaydi. Shriner, Schlee va Libler (2010) ta’kidlashicha, integratsiyalashgan o‘quv dasturi markaziy mavzuni hal qilish uchun ko‘p qirrali ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ana shunday yangi bilimlarni berish, dunyoni yaxlit holatda yosh bolalarga tushuntirish pedagog oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’limda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini shunday malaka va ko‘nikmalarga ega etib tayyorlash XXI asr ta’lim-tarbiya sohasi oldida turgan asosiy masaladir.

Ana shunday malaka va ko‘nikmalarga ega qilib tayyorlashda tanqidiy fikrlashning o‘rni beqiyosdir. Chunki o‘qituvchi yosh bolada olam haqida yaxlit tasavvur yaratish, uni idrok etishiga yordam berishi uchun o‘zi to‘g‘ri fikrlay olishi, oqilona xulosa chiqara olishi, fikrlar ketma-ketligini to‘g‘ri tanlay olishi kerak. Yosh bola o‘zining kichkina dunyoqarashiga ega bo‘ladi, olamni o‘zini bilgan, yon atrofidagi narsalari orqali tasavvur qiladi. Masalan, ular kundalik hayotlarida ko‘p uchratadigan narsalar uy hayvonlari, transport vositalari, ovqatlar va hakozolar haqida tasavvurlarga ega bo‘lishadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchising eng asosiy vazifalaridan biri ana shu “kichkina olam”ni yanada kengaytirish, bolalarni olam va jamiyatga yaqinlashtirishdir. Bunda tanqidiy fikrlash xuddiki ikkita “kichkina olam” va “katta olam” ni birlashtirishga yordam beruvchi “ip” vazifasini bajaradi deb o‘xshatish qilish mumkin. “Ip”ning mustahkamligi va uzunligi o‘qituvchining, eng avvalo, fikrlash qobiliyatiga bog’liq. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir qancha fan doirasida bilimga ega bo‘ladi, shu bilimlarni fikrlash orqali to‘gri qo‘llay olsa, nafaqat o‘quvchi markaziy muammoga yechim topadi balki bir qancha fan doirasida ozgina bo‘lsa ham turli tuman tushunchalarga ega bo‘ladi. Bunda tanqidiy fikrlashning ahamiyati quyidagicha:

Tanqidiy fikrlay oladigan o‘qituvchi yaxshi qaror qabul qila oladi. Bu esa turli fanlar doirasida kerakli masalaga aniq yechim topishda muhimdir. Yaxshi qaror qilish orqali to‘g‘ri xulosa chiqariladi. Bu esa kerakli mavzudan juda uzoqlashib ketmaslikka asosiy masalaga diqqat-e’tibor qaratishda juda muhim.

Tanqidiy fikrlay oladigan o‘qituvchi integratsiyalashgan dasturda analitik fikrlash orqali murakkab masalalarni oddiy qismlarga ajratib o‘quvchilarga zarur bilimlarni bera oladi. Ma’lumki, integratsiyalashgan ta’limda turli fan sohalaridan tushunchalar, qoidalar, nazariyalar bir biriga chambarchas bog‘liq tarzda ifodalanadi. Ana shunday sharoitda o‘quvchilarga ma’lumotlarni oddiy qismlarga ajratish orqali har bir fan sohasidagi tushunchalarni o‘rgatish va ular haqida ma’lumotlar berish o‘quvchilarning kerakli bilimlarni ayni bir paytda egallashlarida muhim rol o‘ynaydi.

Tanqidiy fikrlaydigan o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlarining dunyoqarashlaridan tashqari fikrlashni o‘rgatadi va innovatsion g‘oyalar yaratuvchisi qilib tarbiyalaydi. Innovatsion ta’limning eng asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarning dunyoqarashini yanada kengaytirish, ularni o‘zlarini o‘rab turgan olam, jamiyatga yaqinlashtirishdan iboratdir. Ana shu maqsadni hisobga olib qarasak, dunyoqarashi keng o‘qituvchi bu maqsadga erishishda muhimdir.

Tanqidiy fikrlay oladigan o‘qituvchi bolalarda turli fan sohalarining turli-tuman tushunchalaridan tasavvurlar hosil qilishda ularni shu tushunchalar doirasida kreativ fikrlaydigan qilib o‘qitadi. Bolalar uchun ayni bir vaqtda miyada turli-tuman tasavvurlar hosil qilib borish ancha murakkab jarayon.

Tanqidiy fikrlay oladigan o‘qituvchi to‘g‘ri savollar bera oladi. Tushunchalarni yanada mustahkamlash ularni o‘xshash tushunchalar bilan bog‘lashda to‘g‘ri savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilib turish bilimlarni chuqurroq egallashga yordam beradi.

Integratsiyalashgan muhitda tanqidiy fikrlash orqali bilim olishning turli usullari mavjud.

Video namoyishlar. Video namoyish vaqtni tejaydi va ko‘p ma’lumotlarni uzatadi. Bundan tashqari, bu o‘qituvchi ma’lum bir vazifani bajara olmaydigan yoki qila olmaydigan holatlarda bilimlarni uzatishni osonlashtiradi. Yosh bolalarga integratsiyalashgan o‘quv muhitida fanni o‘rgatishning eng qiziqarli usullaridan biri bu video namoyishlardir. Bunda o‘quvchiga noma’lum bo‘lgan har bir yangi o‘quv g‘oyasini o‘rgatish uchun videodan foydalaniladi. O‘quvchilar har bir masala bo‘yicha o‘zlarining shaxsiy fikrlarini o‘qituvchi so‘raganda baham ko‘rishadi va muhokamalar boshlanadi. Keyin o‘qituvchi bu fikrni batafsilroq ko‘rib chiqadi.

Zamonaviy ijtimoiy media platformalarida virtual yig‘ilishlar (Zoom, WhatsApp va boshqalar). U noan’anaviy darslarda yoki to‘garaklarda qo‘llanilishi mumkin. Bolalarning integratsiyalashgan kontekstdagi darsni tushunishi va faolligini oshirish uchun o‘qituvchi olimlar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar kabi ko‘plab sohalar mutaxassislari bilan virtual jonli yig‘ilish tashkil qiladi. Bolalar bunday uchrashuvlarni qiziqarli deb bilishadi va ularni doimo eslab qolishadi. Ushbu shaxslar bilan birgalikda kuchli tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar g‘oyalarning butun ahamiyatini saqlab qolgan holda o‘quvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “bolaning tilida” tushunchalarni yetkazadilar.

Ota-onalar bilan hamkorlik. Bunday holda, o‘qituvchi yangi mavzu tushunchalarini o‘rganishni o‘z ichiga olgan uy vazifasini beradi. Ota-onalar o‘z bolalariga ushbu g‘oyalar haqida qisqacha ma’lumot berishadi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega o‘qituvchi bolalarga yangi mavzu bayonidagi tushunchalarni sintez qilishda yordam berish uchun bir qator savollar beradi. Savolga turli javob olish uchun boshqa o‘qituvchi boshqa bolalarga ham murojaat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy davr talablaridan biri – integratsiyalashgan ta’limdir. O‘qituvchi kelajak avlodni integratsiyalashgan ta’lim sharoitida o‘qitish uchun turli xil majburiyatlarni bajarishi kerak. Bunday vaziyatda o‘qituvchilar uchun eng samarali vosita bu tanqidiy fikrlash bo‘lib, ular sinfda o‘quvchilarni turli usullar bilan o‘qitish uchun foydalanishlari mumkin. O‘quvchilar bunday taktikalarni juda jozibali deb bilishadi va eng muhimi, ular zamonaviy sinf talablarini to‘liq qondirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N.X. Boshlang’ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T.; 2009 yil

2. Cliffs Notes Praxis II: Elementary Education (0011, 0012, 0014) Jocelyn L. Paris. 2012

3. Integrating music across the elementary curriculum Christine Harney. Oxford University Press. 2020

4. EBS228SW: SOCIAL STUDIES AS AN INTEGRATED SUBJECT. PROF. COSMAS COBBOLD, INSTITUTE OF EDUCATION, UCC, 2022

5. Teachers’ perceptions, attitudes, and beliefs regarding curriculum integration Michael Shriner Bethanne M. Schlee Westat, Rockville, MD, US. The Australian Educational Researcher, Volume 37, Number 1, April 2010

6. Video demonstrations as a way of teaching in education. Ivan Vrbik, Andrea Vrbik. Croatian Journal of Education. DOI:10.15516/cje.v19i0.2674. February 2018

Abduboqi KARIMOV
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, PhD

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA TIZIMLARI SOHASIDA QO‘LLANILAYOTGAN XORIJIY ATAMALARNING AHAMIYATI VA TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari sohasida qo‘llanilayotgan xorijiy atamalarning ahamiyati va tahlili mavzusi, zamonaviy texnologik rivojlanish jarayonida muhim o‘rin tutishining asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, turli davlatlar va kompaniyalar o‘rtasida AKT mahsulotlari va xizmatlarining muvofiqligini ta’minlanishi, xorijiy terminologiya, innovatsiya va yangiliklar kirib kelishi xorijiy atamalar yangi texnologiyalar va g‘oyalar bilan tanishtirishni osonlashtirishi, bu esa mahalliy texnologik ekotizimning rivojlanishini tezlashtirishi haqida fikr yuritilgan. Muallif ta’lim va o‘qitish xorijiy terminologiya orqali AKT sohasidagi eng so‘nggi tendensiyalar va texnologiyalar haqida ma’lumot olish va ularni o‘rganish imkoniyatlarini aytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Axboro-kommunikatsiya, texnologiya, tizim, xorijiy atamalar, tendensiya, xorijiy terminologiya, mahalliy texnologik ekotizim, tahlil, texnik hamkorlik.

В статье рассматривается тема значимости и анализа иностранных терминов, используемых в обла-сти информационно-коммуникационных технологий и систем, основных аспектов их значимости в современном технологическом процессе развития. Также было высказано предположение, что обеспечение соответствия ИКТ-продуктов и услуг между различными странами и компаниями, по-явление иностранной терминологии, инноваций и инноваций облегчит внедрение иностранных терминов в новые технологии и идеи, что ускорит развитие отечественной технологической экоси-стемы. Автор обрисовал в общих чертах возможности образования и обучения через зарубежную терминологию получать информацию о последних тенденциях и технологиях в области ИКТ и изу-чать их.

Ключевые слова. Инфокоммуникации, технологии, системы, зарубежная терминология, тренд, зарубежная термино-логия, отечественная технологическая экосистема, анализ, техническое сотрудничество.

The article covers the topic of the importance and analysis of foreign terms used in the field of information and communication technologies and systems, the main aspects of their important place in the process of modern technological development. It was also thought that ensuring compliance of ICT products and ser-vices between different states and companies, foreign terminology, innovation and news penetration would facilitate the introduction of foreign terms with new technologies and ideas, which would acceler-ate the development of the domestic technological ecosystem. The author has mentioned the possibili-ties of learning and learning about the latest trends and technologies in ICT through foreign terminology.

Key words. IInformation Communication, Technology, System, foreign terms, trend, foreign terminology, domestic technologi-cal ecosystem, analysis, technical cooperation.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi ingliz tilidagi atamalarning o‘zbek tiliga kirib kelishi ko‘plab omillar tufayli sodir bo‘ladi. Bu jarayon asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: AKT sohasidagi tezkor rivojlanishlar va globalizatsiya jarayoni dunyo bo‘ylab bilim va texnologiyalar almashinuvini tezlashtiradi. Bu esa yangi texnologiyalar va ularning atamalari bilan tanishishni talab qiladi. Ingliz tili xalqaro biznes va texnologiya sohasida asosiy til sifatida qabul qilingani uchun ko‘plab inglizcha texnologik atamalar boshqa tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham kirib kelmoqda.

Texnologiya sohasidagi mutaxassislar va talabalar ko‘pincha ingliz tilidagi manbalardan foydalanadilar, chunki ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari, dasturiy ta’minotlar va texnologik yangiliklar avval ingliz tilida taqdim etiladi. Bu esa sohadagi yangi atamalar va tushunchalarning ingliz tilidan bevosita o‘zbek tiliga o‘tishini rag‘batlantiradi.

Dunyoning yetakchi texnologik kompaniyalari mahsulotlarini va xizmatlarini xalqaro bozorga, shu jumladan O‘zbekiston kabi mamlakatlarga taqdim etganda, ularning interfeyslari va hujjatlarida asosan ingliz tilidan foydalaniladi. Foydalanuvchilar bu texnologiyalardan foydalanish jarayonida inglizcha atamalar bilan tanishib, ularni o‘z tiliga moslashtiradilar.

Soha mutaxassislari, tilshunoslar va olimlar yangi texnologik atamalarni o‘zbek tiliga mos ravishda tarjima qilish yoki o‘zbekcha muqobillarini yaratish ustida ishlaydilar. Bu jarayon ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishni, ba’zan esa mavjud o‘zbekcha so‘zlarni yangi tushunchalarni ifodalash uchun qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Texnologiya sohasida ishlaydigan yoki shu sohada ta’lim oladigan odamlar orasida ingliz tilidagi atamalarni ishlatish ko‘pincha madaniy normaga aylanadi. Bu esa yangi texnologik tushunchalar va atamalar ingliz tilidan bevosita o‘zbek tiliga kirib kelishini rag‘batlantiradi. Shunday qilib, ingliz tilidagi AKT atamalari o‘zbek tiliga asosan sohaning global rivojlanishi, ta’lim jarayonlari, texnologik mahsulotlar va xizmatlar, lug‘at va terminologiya ishlari hamda texnologik madaniyat va til orqali kirib keladi. Bu jarayonlar o‘zbek tilining boyishiga va zamonaviy texnologik tushunchalarni o‘z ichiga olish qobiliyatining oshishiga olib keladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi ingliz tilidagi atamalarning o‘zbek tiliga kirib kelishining metodologik ahamiyati bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon tilshunoslik, ta’lim, madaniyat hamda texnologik integratsiya kabi sohalarda keng qamrovli ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Quyida ushbu metodologik ahamiyatning asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Yangi atamalar tilning leksik bazasini boyitadi va mavjud so‘z birikmalarining yangi kontekstlarda qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Soha bo‘yicha xalqaro miqyosda qabul qilingan terminlarni o‘zlashtirish, ilmiy va texnologik almashinuvni soddalashtiradi, bu esa o‘z navbatida, xalqaro hamkorlikni rag‘batlantiradi.

Inglizcha atamalarni moslashuvchan tarzda qabul qilish orqali tilning o‘zgaruvchan dunyoda dolzarbligini saqlab qolish imkoniyati yaratiladi.

Ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarga muvofiq dasturlar va kurslar taklif etilishi, talabalar va mutaxassislarning global bozorda raqobatbardoshligini oshiradi.

Ingliz tilidagi asl atamalarni o‘rganish orqali sohadagi eng so‘nggi texnologiyalar va tendensiyalar haqida chuqurroq bilim olish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro miqyosda qabul qilingan atamalarni ishlatish orqali soha mutaxassislari o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlik osonlashadi.

Yangi texnologik atamalar, ularning qabul qilinishi va ishlatilishi orqali mahalliy madaniyatda texnologik yangiliklarga nisbatan qiziqish va qabul qilish madaniyati shakllanadi.

O‘zbek tiliga moslashtirilgan yangi atamalar o‘zbek tilining global texnologik diskursdagi o‘rni va ahamiyatini oshiradi, bu esa milliy identifikatsiyani mustahkamlashga yordam beradi. Yangi atamalarning qabul qilinishi texnologik innovatsiyalarni mahalliy kontekstda qo‘llash va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, ingliz tilidagi AKT atamalarning o‘zbek tiliga kirib kelishining metodologik ahamiyati til rivojlanishini, ta’lim sifatini yaxshilashni, madaniy integratsiyani va

texnologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z navbatida jamiyatning umumiy rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari sohasidagi ingliz tilidagi atamalarning to‘gridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga kiritilishi bir qator natijalar va munozaralarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonning bir qator jihatlarini ko‘rib chiqish mumkin:

Ingliz tilidagi texnik atamalar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda, bu o‘zbek tilining so‘z boyligini oshirishi mumkin. Bu yangi texnologiyalar va tushunchalar haqida ma’lumot almashishni osonlashtiradi va sohada global miqyosda ishlash uchun zarur bo‘lgan til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ko‘plab O‘zbekistonliklar, ayniqsa, yoshlar va texnologiya sohasidagi mutaxassislar, ingliz tilida yaxshi darajada bilimdon bo‘lishadi. Shuning uchun, ingliz tilidagi atamalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga kiritish ular uchun tushunarliroq va qulayroq bo‘lishi mumkin.

Biroq, ingliz tilidagi atamalarning keng tarqalishi o‘zbek tilining sofligiga ta’sir qilishi mumkin. Bu til assimilyatsiyasiga olib kelishi va mahalliy tilning noyob xususiyatlarini yo‘qotish xavfi mavjud.

Ba’zi ingliz tilidagi texnik atamalar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki ularning o‘zbek tilida aniq ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin. Bu atamalarni qabul qilishda chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Har bir til o‘zgaruvchan va dinamikdir. Yangi texnologiyalar va tushunchalar paydo bo‘lishi bilan til yangi so‘zlar va iboralarni qabul qilish orqali o‘zini yangilaydi. Ingliz tilidagi atamalarning o‘zbek tiliga kiritilishi tilning rivojlanish jarayonining bir qismi bo‘lishi mumkin.

Bu jarayon atrofida munozaralar mavjud. Ba’zi tanqidchilar tilning saqlanishini va mahalliy madaniy identitetni himoya qilish zarurligini ta’kidlashadi, boshqalar esa global kommunikatsiya va texnologik taraqqiyot uchun ingliz tilidagi atamalarning qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlashadi.

Umuman olganda, ingliz tilidagi atamalarning o‘zbek tiliga to‘gridan-to‘g‘ri kiritilishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u tilning rivojlanishi, madaniy identitet (o‘ziga xoslik) va global integratsiya o‘rtasidagi muvozanatni topishni talab qiladi.

Keling ushbu maqolamizda o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib kelgan va ommolashuviga ulgirgan ba’zi so‘zlarni ilova tariqasida ko‘rsatib o‘tamiz.

Respondent – bu savol, xat, elektron pochta, so‘rovnoma yoki javobni talab qiladigan boshqa narsalarga javob beradigan shaxs deb ta’rif beriladi. Yana bir manbada Ijtimoiy so‘rovda qatnashuvchi shaxs; anketa savollariga javob beruvchi kishi, deb ta’rif beriladi. Boshqa bir manbada (ingliz tilidan resspondent javob beruvchi) ijtimoiy-psixologik tadqiqot ishtirokchisi deb talqin qilinadi. Umumiy holda ijtimoiy so‘rovda anketa so‘rovlarida va tajriba sinov jarayonlarida qatnashuvchi shaxs desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu manbada respondent (ingl. respondent, interviewee) - aholini ro‘yxatga olish jarayonida so‘roq qilinadigan jismoniy shaxs. Respondent – bu tadqiqotchilar uchun muhim bo‘lgan so‘rov ishtirokchisi. Navbatdagi jumla: kontent – bu raqamli formatda yaratilishi va tarqatilishi mumkin bo‘lgan har qanday ma’lumot: matn, rasm, video, audio va multimedia. Bu – atamaning keng ta’rifi. Boshqacha qilib aytganda, foydalanuvchi kompyuter yoki telefonda ko‘rishi, o‘qishi yoki tinglashi mumkin bo‘lgan kontent ma’lumotlari. Tarkib maqolalar, chizmalar, filmlar, videolar, musiqa, podkastlar va boshqa ko‘p narsalar bo‘lishi mumkin. Agar kimdir “tarkib” desa, bu internetda yoki kompyuteringizda topishingiz mumkin bo‘lgan deyarli hamma narsani anglatishi

mumkin. “Kontent”so‘zi inglizcha tarkibdan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimada “tarkib”degan ma’noni anglatadi. Rasmiy ravishda, odam iste’mol qiladigan har qanday ma’lumot hisobga olinishi mumkin.

Kontent – bu veb-sahifalar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardagi kanallar va turli xil dasturlarning mazmuni. Biz har kuni unga duch kelamiz.

Messenjer (ingl. message – xabar) – Internet orqali tezkor xabar almashish, qo‘ng‘iroq qilish va hatto video aloqa orqali aloqa qilish imkonini beruvchi telefon uchun maxsus dastur. Shubhasiz, ko‘pchilik WhatsApp, Viber va Telegram haqida eshitgan. Bu mashhur messenjerlarning namunalaridir. Agar sizda internet aloqasi bo‘lsa, messenjer yordamida xabarlarni bepul yuborishingiz mumkin. Messenjer (ingl. messenger – xabarchi, kuryer) – bu ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar o‘rtasida matnli xabarlar va ommaviy axborot vositalarini tezkor almashish dasturi.

“Brend” so‘zi inglizcha “brend” (brand) dan kelib chiqqan bo‘lib, u o‘z navbatida qadimgi norvegcha “brandr” dan kelib chiqqan bo‘lib, “kuyish” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni kuydirib tamg‘a bosish yoki belgi deb ataladi. Brend - bu o‘rnatilgan imidj va obro‘ga ega bo‘lgan savdo markasi.

Gadjet tushunchasi. Gadjet kichik, qo‘lda olib yursa bo‘ladigan texnologik qurilma bo‘lib, u odatda bir yoki bir necha funksiyalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Gadjetlarning yana bir o‘ziga xos xususiyati shuki, ular ko‘pincha yangilik sifatida qabul qilinadi va katta qiziqish bilan o‘rganiladi. Bunday qurilmadan har bittasi o‘zining original dizayni hamda foydaliligi bilan maqtovlarga sazovor bo‘ladi. Shu sababdan ham gadjet o‘zigacha ishlatilib kelingan ko‘pchilik ixtirolardan ustun turadi.

Hozirgi kunda gadjet nima ekanligini hamma biladi. “Ba’zi funksiyalarni bajaradigan aqlli qurilma” ... Qaysi biri? Bu savolga javob juda keng bo‘lishi mumkin. Axir, turli funksiyalar va foydalanish usullariga ega minglab gadjetlar mavjud. Keling, tasniflash kabi narsalarni yaratib, bizga ma’lum bo‘lgan gadjetlarning turlari va kichik turlarini biroz tartibga solishga harakat qilaylik. Birinchidan “Gadget” so‘zining o‘zini tushunishga harakat qilaylik. Gadjet (inglizcha gadget – aksessuar) – funksionalligi oshgan, lekin imkoniyatlari cheklangan (mutaxassislik) texnik qurilma (jumladan, raqamli texnologiyalar bilan) Ushbu so‘zlarning klassik ma’nosida “gadjet” va “qurilma” ni chalkashtirmaslik kerak. Gadjet (ingl. gadget – moslama, qurilma, xuddi shunday uni device deb ham atash mumkin) yana hayotni osonlashtirish va takomillashtirish uchun mo‘ljallangan kichik qurilma desa ham bo‘ladi. Gadjetlar turli sohalarda keng tarqalgan:



sport - fitnes-trekerlar, aqlli bilaguzuklar, sport qurilmalari, shu jumladan aqlli kiyimlar; tibbiyot: elektron yamalar.

Dasturiy ta’minotda gadjet (vidjet) ob-havo prognozi yoki valyuta kursi kabi qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etadigan kichik dasturdir. Eng rivojlangan versiyasi gadget so‘zini fransuzcha bilan bog‘laydi. Xorijiy “gadjet” so‘zi bizning leksikonimizga, ayniqsa, yosh avlod uchun uzoq va mustahkam kirdi. Ko‘pchilik ma’nosi haqida o‘ylamasdan ham uni o‘rinli va noo‘rin ishlatadi. Shuning uchun, keling, ushbu tushunchaga nima kiritilganligini, qanday turdagi gadjetlar mavjudligini va nima uchun ular insoniyat tarixida paydo bo‘lganligini aniqlashga harakat qilaylik. Agar biz ushbu so‘zni buyuk va qudratli so‘zlarga o‘tkazishga harakat qilsak, biz bir qator jarangli ma’nolarni olamiz: “hiyla”, “gadjet”, “adashgan”, o‘ta og‘ir holatlarda – “qurilma”, “moslama” demakdir.

Umuman olganda, biz buni aytishimiz mumkin: insonning hayotini osonlashtirish, uni yanada yoqimli va qulay qilish uchun mo‘ljallangan kichik qurilma. Avvalo, bu asosiy maqsadi aloqa uchun moslashgan qurilmalardir. Shunday qilib, quyida biz sizga gadjet nima ekanligini oddiy so‘zlar bilan aytib beramiz, shunda siz keyinchalik suhbatda ushbu ta’rifdan to‘g‘ri foydalanishingiz mumkin.

Devays (devays) o‘z – o‘zidan ishlaydigan va boshqa qurilmalarga ulanishni talab qilmaydigan mustaqil qurilma. Gadget – yordamchi qurilma, turli xil foydali vazifalarni hal qiladi, ammo mustaqil shaklda – foydasiz. device, asl ingliz tilida bo‘lgani kabi, bir nechta tarjimalarga ega: muayyan vazifani yoki bir nechta vazifalarni bajarishi kerak bo‘lgan har qanday texnik qurilma, mashina yoki asbob; bomba, yadro quroli; fitna yoki ritorik vosita.



Aksessuar (fr. lat tomonidan accessoire. accessorius –“qo‘shimcha”) – biror narsaga hamroh bo‘ladigan ixtiyoriy obyekt; biror narsaga tegishli, biror narsani yaxshilashi, bezatishi yoki to‘ldirishi mumkin. Biror qurilmaga bezak sifatida taqiladigan qo‘shimcha vosita deb talqin qilinadi.

Platforma – bu kompyuterlarning ma’lum bir oilasining boshqa barcha dasturlari va komponentlarining mosligini ta’minlaydigan dasturiy va apparat asosidir. Masalan, Windows operatsion tizimini qo‘llab-quvvatlaydigan IBM mos keladigan kompyuterlar bitta platformaga ega, MacOS boshqa platformaga ega bo‘lib, unda Windows uchun yozilgan dasturlar ishlamaydi. Android va iOS kabi mobil platformalar ham o‘z arxitekturasiga ega va boshqalarning dasturlarini qo‘llab-quvvatlamaydi. Lekin istisnolar ham bor. Bu har xil turdagi kompyuterlarda ishlashi mumkin bo‘lgan o‘zaro faoliyat platformali dasturiy ta’minot. Masalan, Java Virtual Machine, NET Framework, Adobe AIR va boshqalar keltirish mumkin.

Ramka faqat ishlab chiquvchi uchun bir xil tayyor to‘plamdir. Bu mutaxassisning vaqtini va kuchini tejaydi, aks holda bu asosiy narsalarni yaratish va oddiy xatolarni tuzatishga sarflanadi. Framework – bu ishlab chiquvchiga mahsulotni tezda yaratishga yordam beradigan tayyor vositalar to‘plami: veb-sayt, ilova, onlayn-do‘kon, CMS tizimi

SMART – bu ingliz tilidagi besh so‘zli qisqartma bo‘lib, maqsadga erishish uchun eng muhim mezonlarni bildiradi: bu mezonda maqsad shunday shakllantirilishi kerakki, uni tushunishda farqlar bo‘lmasligi kerak, u umumlashtirilgan yoki mavhum bo‘lmasligi kerak. SMART maqsadlarini belgilash uchun, masalan, SWOT tahlil usulidan foydalanishingiz mumkin. Ushbu usul kompaniyaning kuchli (Kuchli) va zaif tomonlarini (Zaif tomonlari) aniqlash, shuningdek, uning atrofidagi tashqi muhitni – imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlarni (Threats) baholashdir. Bunday tahlildan so‘ng, ish jarayonlarining samaradorligini qanday oshirish mumkinligi aniq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. uz.wiktionary.org›wiki/respondent
2. demografiya.uz›wiki/respondent/
3. https://journal.sovcombank.ru/tehnologii/chto-takoe-kontent-i-kakim-on-bivaet?ysc14. gadgets-reviews.com›Аксессуары›Современная классификация гаджет
4. Издательский словарь-справочник: [электрон. изд.] / А. Э. Мильчин. - 3-е изд., испр. и доп. -М.: ОЛМА-Пресс, 2006.

Alisher ABDINOBIYEV,
Toshkent davlat iqtisod universetiti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

“IQTISODIYOTDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR VA TIZIMLARI” FANINI KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasalari “Iqtisodiyotda AKT” fanidan kompyuter imitatsion modellar, multimediali elektron darsliklar yaratish hamda foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish masalalariga qaralgan.

Tayanch so‘zlar. Multimedia, elektron darslik, kompyuter imitatsion model, pedagogik talablar, psixologik talablar, texnik talablar.

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования технологий создания и использования компьютерных имитационных моделей, мультимедийных электронных учебников по дисциплине» ИКТ в экономике « высших учебных заведений.

Ключевые слова. Мультимедиа, электронный учебник, компьютерная имитационная модель, педагогические требования, психологические требования, технические требования.

This article considers the issues of creating computer imitation models, multimedia electronic textbooks on the subject of higher education institutions “ICT in economics”, as well as improving the technologies of use.

Key words. Multimedia, electronic textbook, Computer imitation model, pedagogical requirements, psychological requirements, technical requirements.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 10-iyunda qabul qilgan “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari Respublikamizda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. Fan, texnika va texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi oliy ta’lim muassasa(OTM) lari ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, fan va texnika sohasida sodir bo‘layotgan muhim yangiliklarga oid materiallarni o‘quv dasturlari, shuningdek, darsliklar mazmuniga jadal kiritish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o‘z navbatida, talabalarda ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan oson, qulay va mustahkam egallashga keng imkoniyatlarni yaratdi.

Kompyuter imitatsion modellashtirish abstraksiyalash yordamida uning muhim xususiyatlarini ajratib olish, ashyolar hodisalarning asosiy xarakteristikalarini ifodalovchi farazlarni tanlash va yaxshilash, so‘ngra kompyuter imitatsion modelni amaliyot uchun foydali holga kelguncha mukammallashtirishdan iborat bo‘ladi.

“Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlari” fanidan kompyuter imitatsion model yaratishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– umumiy masalani soddaroq ichki masalalarga ajratib olish;

– maqsadni aniq ifodalash;

– ma’lum bir belgilashlarni tanlash;

– ko‘rinib turgan munosabatlarni qayd etish;

– agar kompyuter imitatsion modelni matematik ifodalash mumkin bo‘lsa, unga erishish va uni kengaytirish. Aks holda kompyuter imitatsion modelni soddalashtirish.

Imitatsiya – modellashtirish ko‘rinishlaridan biri.

Kompyuter imitatsion model – bu mantiqiy yo‘l bilan u yoki bu harakat natijasini bashorat qilish yoki qiyoslashga imkon beruvchi vosita bo‘lib, oqibatda qilinishi mumkin bo‘lgan harakatlardan eng yaxshisini tanlab ko‘rsata oladi.

Imitatsion kompyuter imitatsion modellardan foydalanish real obyektlar ustida tajribalar o‘tkazishning iloji bo‘lmaganda, yoki bunday tajribalar inson hayoti va ekologiya uchun katta xavf-xatar bilan bog’liq bo‘lgan yoki iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydigan vaziyatlarda boshqariladigan tajribalar o‘tkazishga imkon beradi. Fizik hodisalar (tabiiy jarayonlar) bilan bevosita tajribalar o‘tkazishda, odatda uning ayrim parametrlarini o‘zgartirishga to‘g’ri keladi va tajriba natijalari kuzatiladi.

Kompyuter imitatsion model – bu shunday narsaki, uning yordamida tajriba jarayonidagi qandaydir oby’ektlarni almashtirish mumkin bo‘ladi. Kompyuter imitatsion modellardan tajriba o‘tkazish uchun juda katta mablag’ talab qilingan hollarda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Mohiyati jihatidan har qanday kompyuter imitatsion model imitatsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Kompyuter imitatsion modellashtirish juda ham keng, ammo to‘liq va aniq ta’riflanmagan tushuncha bo‘lib, murakkab sistemalarni loyihalashtirish va faoliyat yuritishiga aloqador mutaxassislar uchun juda katta ahamiyatga ega.

Kompyuter imitatsion modellashtirish – bu real sistema kompyuter imitatsion modelini yaratish va bu kompyuter imitatsion modellar yordamida sistemaning xulqini o‘rganish yoki qo‘yilgan aniq kriteriyalar asosida turli strategiyalarni baholash maqsadlarida tajribalar o‘tkazish jarayonidir.

Shunday qilib, kompyuter imitatsion modellashtirish jarayonini yaratish va uni biror muammoni o‘rganish maqsadida amaliyotga tatbiq qilish jarayoni sifatida qabul qilamiz. Real hodisaning kompyuter imitatsion modeli deganda biz obyektlar yoki turli g’oyalar guruhini asliga qaraganda boshqacha ko‘rinishda ifodalashni tushunamiz.

Kompyuter imitatsion modellashtirish tajribaviy va amaliy metodologiya hisoblanadi va quyidagi maqsadlarga ega bo‘ladi:

– sistema xulqini ifodalash ;

– kuzatilayotgan obyekt xulqini anglashga qaratilgan nazariya va farazlarni qurish ;

– bu nazariyani sistemaning kelajakdagi xulqini bashorat qilishda foydalanish.

Ko‘plab texnik metodlardan farqli o‘laroq, kompyuter imitatsion modellashtirishni ixtiyoriy fan va sohalarga qo‘llash mumkin.

Jarayonlarni kompyuter imitatsion modellashtirish uchun kompyuter imitatsion modellashtirilayotgan vaziyatning asosiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi sun’iy tajriba o‘tkazish talab qilinadi.

Kompyuter imitatsion model jarayonlarni tushunish, mohiyatini anglash yoki mukammalashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Kompyuter imitatsion model biror oby’ektning boshqacha masshtabda ifodalangan aniq nusxasi bo‘lishi yoki oby’ektga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlarni abstrakt ko‘rinishi tarzida bo‘lishi mumkin.

Kompyuter imitatsion model – bu bashorat qilish va qiyoslash vositasi bo‘lib, mantiqiy usul yordamida yetarlicha ishonch bilan alternativ xarakatlarni baholash, bashorat qilish, afzallarini tanlashga yoki borliq olamni anglashga imkon beradi. Imitatsiya esa

kompyuter imitatsion modellashtirish ko‘rinishlaridan biridir.

Kompyuter imitatsion modellardan bugungi kunda quyidagi sifatlarda foydalanish mumkin.

– borliqning mohiyatini anglash vositasi;
– o‘zaro munosabat vositasi;
– o‘qitish va o‘rgatish, shug’ullantirish vositasi;
– bashorat qilish vositasi;
– tajribalarni o‘tkazish vositasi.

Kompyuter imitatsion modellarning real munosabatlar va qonuniyatlarni o‘rganish vositasi sifatidagi ahamiyati juda katta. Ular mulohazalarimizni tartibga solish, noaniq tushunchalar va o‘zaro hamda vaqtga bog’liq munosabatlarni anglashga, talab qilinadigan resurslarni aniqlashga yordam beradi.

“Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” degan naql bejizga aytilmagan. Kompyuter imitatsion model tadqiq qilinayotgan obyektning umumiy strukturasini tushunarliroq qiladi va muhim sabab-oqibat aloqalarini ochib beradi. Kompyuter imitatsion modellardan kasbiy tayyorgarlik va ta’lim sohalarida keng foydalanib kelingan va foydalainib kelinmoqda. Kompyuter imitatsion model – boshqaruv sistemasida turli tasodifiy xodisalarning ro‘y berishiga qarab javob reaksiyasini ko‘rsatishga operatorlarni tayyorlashda ajoyib vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Qolaversa, kompyuter imitatsion modellardan qimmatbaho yoki iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydigan yoki real holatdagi xulqini o‘rganish uchun obyektdan amaliy jihatdan foydalanib bo‘lmaydigan vaziyatlarda tajribalarni o‘tkazish va ularni boshqarishga imkon beradi. Jarayonlar ustida bevosita tajribalar o‘tkazilganda, odatda uning ayrim parametrlarini o‘zgartirib, qolganlarini o‘zgartirmay olingan natijalar taqqoslanadi. Real hodisa juda ham qimmat hamda uning bajarishning imkoni mavjud bo‘lmagan hollarda uning kompyuter imitatsion modelidan foydalaniladi. Murakkab jarayonning kompyuter imitatsion modeli bilan tajriba o‘tkazilganda, xuddi real jarayon ustida o‘tkazilgan tajribalardagi kabi uning ichki xususiyatlari va ularning o‘zaro aloqasi haqidagi ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Bu holat kompyuter imitatsion kompyuter imitatsion model strukturasi elementlarini o‘lchamga ega ekanligi va bu o‘lchamlarni boshqarib, uning xulqini nazorat qilishga imkon beradi.

Kompyuter imitatsion modeli ikki maqsaddan biri uchun xizmat qiladi: ifodalovchi, agar kompyuter imitatsion kompyuter imitatsion modeli obyektni chuqurroq anglash uchun xizmat qilsa; ko‘rsatmalovchi, agar kompyuter imitatsion modeli obyektning xulqini belgilovchi xarakteristikalarini qayta tiklash yoki bashorat qilishga imkon bersa. Ko‘rsatmalovchi kompyuter imitatsion modeli odatda ifodalovchi ham bo‘lishi mumkin, ammo aksi emas.

Texnik va ijtimoiy fanlarda qo‘llanadigan kompyuter imitatsion modellarning foydalilik darajasi kompyuter imitatsion modellarni qurishda foydalanilgan metod va vositalarga bog‘liq bo‘ladi. Texnikada kompyuter imitatsion modellar yangi tizimlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishda yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy sohada esa kompyuter imitatsion modellar faqat mavjud tizimlarni izohlash maqsadida foydalaniladi. Fizik hodisalarni ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan kompyuter imitatsion modellar ularning asosiy xarakteristikalarini qamrab olgan bo‘lib, obyekt xususiyatlarini izohlab berishi ham lozim.

Kompyuter imitatsion modellarni turli belgilariga qarab, turlicha sinflash mumkin. Ammo ularning birortasi ham talabga to‘la javob bera olmaydi. Kompyuter imitatsion

modellarning ayrim vakillarini keltirib o‘tamiz:

– statik (masalan, obyektning ko‘ndalang kesimi) va dinamik (vaqtga bog’liq qatorlar);

– deterministik va stoxastik;

– diskret va uzluksiz;

– tabiiy, analogli, simvolik (belgili).

Kompyuter imitatsion modellarni real obyektning maketi yoki aniq kompyuter imitatsion modelidan tortib to abstrakt matematik kompyuter imitatsion modelgacha bo‘lgan uzluksiz spektr ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin.

O‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlash uchun o‘quv materiallarini kompyuter imitatsion model asosida yaratilgan multimedia ilovalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Multiedia vositalari – amaliy dasturiy vositalar bo‘lib, ular o‘qitish jarayonining barcha sohalarida dasturiy tizimlarni yaratish, tayyorlash, tashkiliy materiallarni va ma’lumotlarni jamlash, grafik hamda animatsiyalarni qo‘llash va namoyish etish uchun mo‘ljallangan.

Oliy ta’lim tizimi o‘quv jarayonidagi asosiy kamchiliklaridan va muammolaridan biri ulardagi mavjud texnik vositalarning talab darajasida emasligi va zamonaviy AKT texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmaganlidir. Masalan, “Iqtisodiyotda AKT” fani o‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterning multimediali dasturiy vositalarning yetarli darajada qo‘llanilmayotganligi ba’zi bir o‘quvchilarda mavzularni o‘zlashtirish tasavvurlarni hosil qilish, fizik jarayonlarni tushunish hamda mustaqil fikrlash faoliyatining yetarlicha rivojlanmay qolishiga olib kelmoqda.

Agarda “Iqtisodiyotda AKT” fanini AKTdan foydalanilgan holda taqdimot, ovoz, matn hamda animatsiya ko‘rinishida o‘quv jarayonida qo‘llanilsa, o‘quvchilar ushbu fanning o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani shakllantirishga, asosiy bilimlarni egallashga, o‘zini-o‘zi nazorat qilishi uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga katta yordam beradi. Shuningdek, fanning nazariy asoslarini yanada samarali o‘zlashtirishga, fanga nisbatan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan muammolarni yechimini topish bartaraf etishda, maxsus maktab-internatlar ta’limida “Iqtisodiyotda AKT” fanidan kompyuter imitatsion modellar yaratish maqsad qilib olindi. “Iqtisodiyotda AKT” fanidan 42 ta mavzular ketma-ketligida kompyuter imitatsion modeli belgilab olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshimov R.R. Multimedial Electronic Textbook and Problems of Organizing Education on the Basis// International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 6 Issue 3, March-April 2022 Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470. Page.1831-1833.

2. Eshimov R.R. Ta’lim muassasalarida kompyuterli o‘qitish vositalaridan // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 Issue 4, Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 2022. ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-496-502 Page.496-502.

3. Raximov Abdulaxad Nematovich. Econometric analysis of production by german method. May.31.2022. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 153–157. Retrieved from

4. Raximov Abdulaxad Ne’matovich. Iqtisodiyotda ayrim qishloq xo‘jalik mahsulotlar ishlab chiqarishning ekonometrik tahlili. Iqtisodiyot, Moliya va Innovatsiyalar Jurnali. № 2. 27-12- 2022 ISSN 2181–3299 www.sbtsue.efin.uz. 23-29 bet.

Baxodir NAZAROV,
Toshkent davlat iqtisod universetiti Samaqand filali, “Kompyuter injeneringi” fakulteti dekani

5-SINF “INFORMATIKA” FANI MAVZULARINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O‘QITISH

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta’limda informatika faniga doir mavzularni jonli tarzda taqdim etish orqali bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish darajasini rivojlantirishda multimedia texnologiyalariga asoslangan ta’lim jarayonini amalga oshirish haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Dasturiy vositalar, elektron va virtual ressurslar, Multimedia, Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi.

В статье рассматривается реализация образовательного процесса на основе мультимедийных технологий в развитии уровня формирования знаний, умений и навыков посредством живого представления тем по информатике в современном образовании..

Ключевые слова. программные средства, электронные и виртуальные ресурсы, мультимедиа, техника безопасности в компьютерном зале.

The article reflects on the implementation of the educational process based on multimedia technologies in the development of the level of knowledge, skills and skill generation by presenting topics related to Informatics in educational education in a lively way.

Key words. Software, electronic and virtual resources, multimedia, safety in the computer room.

Ushbu maqolada 5-sinf informatika fani mavzulari bo‘yicha ishlab chiqilgan zamonaviy taqdimotlar asosida dars jarayonini tashkil etish metodikasi keltirilgan. Ushbu metodika asosida har bir mavzu bo‘yicha ishlab chiqilgan taqdimotga audio, video va test topshiriqlari hamda kompyuter imitatsion modellari qamrab olingan. Bunday ko‘rinishdagi taqdimotlar yaratishdan maqsad umum ta’lim maktab o‘quvchilariga informatika faniga doir mavzularni jonli tarzda taqdim etish orqali bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish darajasini rivojlantirishdan iborat. Quyida keltirilgan taqdimotlarda bu jarayonlar namoyish etiladi.

Hamkorlikdagi raqamli vositalar va virtual guruh loyihalari zamonaviy ta’limning qimmatli tarkibiy qismlari sifatida paydo bo‘ldi. Tadqiqot ushbu vositalarning tengdoshlarni o‘rganish va jamiyat qurishga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi. Virtual muhitda tengdoshlar bilan uzluksiz hamkorlik qilish qobiliyati ta’limning ijtimoiy tomonini yaxshilaydi va yanada yaxlit o‘rganish tajribasiga hissa qo‘shadi.



Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari


“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘rganish maqsadida maktablarda maxsus kompyuter xonalari tashkil etilgan. Hammaga ma’lumki, barcha elektr asboblari kabi kompyuter ham inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan elektr toki yordamida ishlaydi. Bunday qurilmalardan foydalanishda ehtiyot choralarini bilish talab etiladi. O‘quvchi kompyuter xonasidagi tartib-intizom qoidalarini bilmasligi oqibatida ko‘plab noxush holat va xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Natijada, u nafaqat o‘ziga, balki atrofdagilar sog‘lig‘iga; qimmatbaho texnik qurilmalarga zarar yetishiga, shuningdek, kompyuter xotirasidagi muhim ma’lumotlarning o‘chib ketishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Yuqorida va quyida keltirilgan tasvirlarda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun har bir jarayon alohida tasvir orqali ko‘rsatilgan.(1-9-rasmlar).














Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari



Klaviatura va sichqoncha bilan ishlash ko‘nikmalari



Operatsion tizim tushunchasi

5-sinf “Informatika “ darsligida jami mavzular soni 34 tani tashkil etadi. Maqolada barcha mavzular bo‘yicha o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun taqdimotlar yaratilgan. Barcha taqdimotlarga video va test savollari biriktirilgan. Yaratilgan video va test savollarining ahamiyati shundan iboratki, mavzuni mazmunini ochib berishga va mazmuniga doir test savollarining tuzilishi bilan belgilanadi. Yana bir yaratilgan taqdimotlarning muhim ahamiyati shundan iboratki, mavzularga doir o‘quv materiallari ikkita oynada taqdim etilgan. Ya’ni har bir mavzuga doir matn va tasvir bir-biri bilan bog‘langan. Bu esa o‘z navbatida tasvirni matnga qanday aloqasi borligini va eslab qolish imkoniyatini yaratadi. Sababi matnga nisbatan tasvirni ko‘rish orqali va vizuallashtirilgan obyektlar mazmuni ochib beriladi.

Bunday taqdimotlar yaratish uchun zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanilgan. Bular sirasiga MS Power Point, ISpring QuizMaker, Ispring Pro, Course Lab, Camtasia Studio, Hot Potatoes Home Page va Auto Play dasturiy vositalarini keltirish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida nomlari keltirilgan dasturiy vositalarni har biridan taqdimot yaratish jarayonida unumli foydalanilgan. Masalan, MS Power Point dasturiy vositasi asosida oddiy taqdimot yaratilgan bo'lsa, ISpring QuizMaker dasturiy vositasi yordamida video va test savollarini kiritish imkoniyatidan foydalanilgan. Camtasia Studio dasturiy vositasidan foydalanib video darslarga mualiffning ovozi yozilgan. Course Lab, Camtasia Studio, Hot Potatoes Home Page va Auto Play dasturiy vositalari asosida mavzularni mazmunini ochib berishga qaratilgan imitatsion modellar yaratilgan. Imitatsion modellar yaratish jarayonida oddiy mavzular qamrab olinmaganligini e'tirof etish joiz. Imitatsion modellar mazmuni murakkab bo'lgan jarayonlarni ochib berish uchun ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, 5-sinf "Informatika" darsligi bo'yicha dasturiy vositalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy taqdimotlar yaratish va dars jarayonini tashkil etish fanda ko'zda tutilgan mavzular mazmunini ochib berish uchun ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi va informatika darsligini takomillashtirilgan metodika yordamida o'qitish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Никулова Г.А. Средства визуалной коммуникатсии - инфографика и метадизайн / Г.А. Никулова, А.В. Подобных // Международный электрон. журнал КНИТУ «Образовательные технологии и общество» (Эдуатионал Течнологй & Соиетй). - 2010. - Т. 13. № 2. - С. 369-387. - Казан.

2. Шаталов,В.Ф. Куда и как исчезли тройки. Из опыта работы школ Донеска / В. Ф. Шаталов; Предисл. В. В. Давыдова. – М.: «Педагогика», 1980.

3. Ермолаева,Ж.Е., Герасимова,И.Н., Лапухова,О.В. Инфографика как способ визуализатсии учебной информатсии // Консепт.–2014. –№ 11. [Электронный ресурс].–Режим доступа:/e-koncept.ru/2014/14302.htm.

4. https://ru.calameo.com/read/0004533118c4eba6fbbb4

5. Lutfillaev M.X., Fayziev M.A. Axborot texnologiyalari asosida kompyuter imitatsion modelini yaratish masalasi // Axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quv jarayonida: muammolar, yechimlar va istiqbollar: Respublika ilmiy-metodik konferensiyasi materiallari. I-qism 25-26 y.dekabr 2007. Samarqand, 2007. –B.4-7.

6. Lutfullayev M.X. Multimediali didaktik vositalar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish // Ta'lim va tarbiya. – T., 2003. - №3-4. – B. 55 - 57.

7. Adrespublikatsii: https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/469365-obosnovanie-ispolzovanija-tehnologii-vizualiz

Sanobar RASULOVA,
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

LOYIHALASH ORQALI DARS JARAYONINI BOSHQARISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining loyihalash orqali dars jarayonini boshqarish yo'llari keng yoritilgan. Shu bilan birga, loyihalashni amalga oshirishda o'qitish jarayonining muhim qonuniyatlari, o'qitish jarayonini loyihalashtirish uchun tayyorgarlik bosqichlari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar. Loyihalashtirish, mustaqil bilim o'zlashtirish, intensiv usullar, tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish, liderlik, kreativlik.

В данной статье широко освещены способы учителя начальных классов управлять процессом урока посредством проектирования. При этом описаны важные закономерности учебного процесса при реализации проектирования, этапы подготовки к проектированию учебного процесса.

Ключевые слова. Планирование, самостоятельное обучение, интенсивные методы, критическое мышление, умение выступать перед коллективом, умение работать в команде, лидерство, креативность.

In this article, the ways of primary school teachers to manage the lesson process through design are widely covered. At the same time, the important laws of the teaching process in the implementation of the design, the stages of preparation for the design of the teaching process are described.

Key words. Planning, independent learning, intensive methods, critical thinking, ability to give a speech in front of a team, ability to work in a team, leadership, creativity.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonining 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Shunday ekan bizning oldimizda ulkan vazifalar mavjud va biz buni qanday amalga oshiramiz? Mutaxassislar fikricha, dastlab o'quvchilarda o'qish va yozish ko'nikmalari, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi, moliyaviy, madaniy va fuqarolik savodxonligi, tanqidiy fikrlash, kreativlik (ijodiy fikrlash), muloqot qilish, jamoada ishlash kabi XXI asr ko'nikmalarini hamda qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qat'iylik, moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyatlari kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu kabi dolzarb vazifalarni bajarishda o'qitish jarayonining imkoniyati yuqori. Shu bois har bir pedagog globallashuv

davrida o‘qitish jarayonini zamon talablari asosida loyihalashtirish yuzasidan metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. O‘qitish jarayonini innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv, ilg‘or xorijiy tajribalar va milliy uyg‘unlikka ustuvorlik asosida loyihalashtirish yuzasidan metodik tayyorgarlikka ega bo‘lish omillarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot ishlarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini ta’minlashga doir omillar ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Bular motivatsion omil, ijtimoiy omil, axborotli-mazmunli omil, faoliyatli omil, tashkiliy-metodik omil, didaktik omil.

Shunigdek, tegishli kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik tushunchasiga ijtimoiy, psixologik, gnoseologik kabi komponentlarni kiritish va ularga o‘z navbatida, “o‘qituvchining kasbga yo‘naltirilgan qiziqishlari, kasbiy faoliyat bazasini tashkil etuvchi hamda kasbiy tayyorgarligi yuzasidan metodik talablarni o‘zida aks ettirgan barcha normativ hujjatlar, zaruriy bilimlar tizimi, ko‘nikma va malakalar to‘plamini o‘z ichiga oluvchi faoliyatni amalga oshirish usullari”ni kiritish muhim ahamiyat kasb etadi . Ilmiy tadqiqot ishlari, o‘quv adabiyotlari va mavjud tajribalar tahlili asosida o‘qituvchilarning o‘qitish jarayonini loyihalashtirishga doir metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan metodik ko‘rsatmalarni bayon etamiz.

Loyihalashtirilgan dars asosida o‘qituvchi dars jarayonini boshqarish yo‘llarini belgilab oladi. Yangi materialni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini nazorat qiladi va bu nazorati zamirida o‘quvchilar faoliyatini baholab oladi. Ana shu baholash natijasida bilim berish va bilim olish faoliyatini tekshirib, ko‘zlangan maqsad nechog‘li amalga oshganligini aniqlaydi.

Loyihalash ta‘limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o‘quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik vaziyatni to‘laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to‘g‘ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo‘la yoki birin-ketin anglanishiga bog‘liq. O‘qitish faoliyati uchun umumiy bo‘lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So‘ngra o‘qitish jarayonining ma’lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq.

Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri – o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirishdan iboratligi ta’kidlab o‘tildi. Ushbu jarayonning samaradorligini ta‘minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ta’lim amaliyotida faol qo‘llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo‘lish.

Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko‘rinishi bo‘lib, uni amalga oshirishda o‘qitish jarayonining muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur. Chunonchi:

– ta’lim sohasining jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi;

– tahsil oluvchilar faoliyati tavsifining ta’lim natijalariga bog‘liqligi;

– tahsil oluvchilarning yosh va individual xususiyatlari bilan o‘zaro muvofiq kelishi;

– ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilishini inobatga olish zarur.

O‘qitish jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi.

O‘qitish jarayonini loyihalashtirish uchun o‘qituvchi quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini bajarishi tavsiya qilinadi:

– mavzu asosida darsning mazmunini tanlash;

– beriladigan nazariy bilim va uning amaliy jihatlarini belgilash;

– mavzuda aks etgan tayanch so‘z va atamalarni aniqlash;

– maqsad, vazifa va o‘quvchilarda shakllantirilishi ko‘zda tutilgan tayanch va fanga oid kompetensiya elementlarini belgilab olish (kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta’lim standarti asosida);

– o‘quv jarayonining ixchamlashtirilgan mazmunini tayyorlash (modellashtirish);

– o‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasini tanlab olish (darsdan ko‘zlangan maqsadga muvofiq);

– bilim va tushunchalarni egallash, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish uchun sarflanadigan vaqtni aniqlash (vaqtni taqsimlash);

– darsning maqsadiga ko‘ra natijani belgilash (prognoz qilish);

– natijani olish uchun mashq va topshiriqlar, mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqish;

– o‘qituvchi va o‘quvchining kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish.

Loyihalashtirilgan darsdan quyidagi natijalarga erishiladi:

O‘qituvchi tomonidan:

– o‘z fanini yaxlit holda tasavvur eta oladi va yaxlit o‘quv jarayonini tashkil etadi;

– o‘quv jarayoni bosqichlarining ketma-ketligi, izchilligini ta’min etadi;

– dars jarayonida vaqtdan unumli va o‘rinli foydalanadi;

– darsning maqsadi va undan erishiladigan natijani aniqlay oladi;

– ta’limning mazmunini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltira oladi, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish samaradorligini ta’minlaydi;

– hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta oladi;

– o‘quv jarayonini optimallashtirish imkoni tug‘iladi;

– o‘quvchilarga o‘zlashtirgan bilimlarini amalda tatbiq etishi uchun tizimli imkoniyat yaratadi;

– dars jarayonini muayyan maqsadga yo‘naltiradi;

– mavzuning mazmuni, uni o‘zlashtirish usullarini o‘quvchilarning imkoniyati va qiziqishlariga moslashtira oladi;

– o‘quvchining bilim o‘zlashtirish jarayonini faollashtirish uchun barcha imkoniyatlarni oldindan belgilay oladi;

– o‘z faoliyatini va ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qila oladi;

– zamonaviy metodlarni qo‘llash imkoni kengayadi;

– o‘quvchi o‘zi mustaqil ishlashi uchun muhit yaratadi;

– o‘zini o‘zi rivojlantiradi.

O‘quvchilar tomonidan:

– ta’lim oluvchilar tayyor bilim bilan chegaralanib qolmasdan mustaqil o‘rganadilar;

– fanga bo‘lgan qiziqishlari kuchayadi;

– mustaqil, erkin, tanqidiy, ijodiy fikrlaydilar;

– doimiy izlanadilar, o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradilar;
– o‘ziga ishonish hissi uyg‘onadi;
– o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtiradilar va natijalarini tahlil qiladilar;
– o‘z-o‘zlarini nazorat qiladilar va baholaydilar.

Loyihalashtirilgan darsda o‘quv jarayonining motivatsiya, bilish faoliyati, boshqarish faoliyati kabi o‘ziga xos texnologik vazifalari o‘z aksini topadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, xalqaro loyihalarda ishtirok etishga tayyorgarlik va o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga doir o‘qitish jarayonini loyihalashtirish jarayonida ta’lim oluvchilarda quyidagi tayanch va hayotiy ko‘nikmalarning shakllanishiga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi:

– tanqidiy fikrlash;
– jamoa oldida ma’ruza qila olish;
– jamoada ishlay olish;
– liderlik;
– nostandart sharoitdan chiqib keta olish;
– kreativlik asosida kutilmagan muammolarni yecha olish va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda mustaqil bilim o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, bilim o‘zlashtirish faoliyatini o‘zi mustaqil bajara olishiga ishontirish, eng asosiysi “Nimani, qanday o‘rganish kerak?”ligini o‘rgatish bu pedagogdan yuksak bilim va mahoratni talab etadi. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, zamonaviy darsni tashkil qilish uchun intensiv usullarni tatbiq etishi, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish, xalqaro loyihalarda doimiy va samarali ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rishga doir o‘qitish jarayonini loyihalashtirishi bir so‘z bilan aytganda, innovatsion yondashishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: ped.fan.nom. –T., 2011. 138 b.

3. Raxmonov I.Y. Geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.fan.nom. –T., 2012. 150 b.

4. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) …diss. –T., 2019. – 162 b.

Dildora ZIKIROVA,
“TMC INSTITUTI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
Gulruhsor EGAMOVA,
“TMC INSTITUTI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

ZAMONAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlash, bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, dars turlari shuningdek,darsni tashkil qilish shakllari,kompetensiyalarni qo‘llash va kreativ fikrlashning kommunikativ usullari va ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv asosida haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Zamonaviy ta’lim, ta’lim mazmuni, tashkil etish, dars, dars turlari, komunikativlik, kompetensiya.

В статье рассматриваются вопросы формирования у обучающихся в образовательных учреждениях творческого мышления, знаний, умений, навыков, типов уроков,а также формы организации урока,применения компетенций и коммуникативных приемов креативного мышления на основе нового подхода к образовательному процессу.

Ключевые слова. Современное образование, содержание образования, организация, урок, виды уроков, коммуникативность, компетентность.

The article will focus on creative thinking, knowledge, skills, skills formation, lesson types of those educated in educational institutions,as well as on the basis of forms of lesson organization,the application of competencies and communicative methods of creative thinking and a new approach to the educational process**.**

Key words. Modern education, content of education, organization, lesson, types of lessons, communicativeness, competence.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida so‘nggi besh yillik islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy - ma’rifiy asoslari yaratildi, ta’lim tizimi yangilandi, yangilangan ta’lim tizimiga xos ta’lim mazmuni, ta’lim maqsadi, ta’lim vazifalari ishlab chiqildi. Ularning mohiyat-mazmuni demokratlashtirildi va insonparvarlashtirildi. Bundan anglashimiz zarur bo‘lgan eng birinchi masala - yangilangan ta’lim mazmuniga xos ta’lim texnologiyalari va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalangan holda ta’lim tizimini tashkillashtirish masalasidir.

Zamonaviy ta’lim bu o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma,malakalar, kompetensiyalarni qo‘llash va kreativ fikrlashning kommunikativ usullari tizimidir. Ya-

na-da aniqroq tushuntirish zarur bo‘lsa, ta’limning asosiy mazmunini saqlagan holda, uni yangicha yondashuv asosida tashkil qilishdir.

Ta’limni tashkil etishs hakli – bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq, ma’lum rejimda tashkil etiladigano‘quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir. Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichita’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Zamonaviy ta’limni tashkil qilishda ko‘proq o‘quvchi talabalarni asosiy markazga chiqarishimiz, ularning kommunikativlik kompetensiyalarini namoyon qilishlari uchun,o‘zaro kreativ fikr yuritishlari uchun imkon yaratishimiz kerak bo‘ladi.

Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar, sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqillik darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

1) individual;

2) sinf-dars;

3) ma’ruza-seminar.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limning individual shakli hisoblanadi. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanib kelingan. XVI asrdan boshlab individual o‘qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o‘rnini ta’limning individual-guruhli shakli egalladi.Ulardan biri bolalarning guruhli (jamoali) ta’limi sanaladi. U G‘arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g‘arbiy qismlari) birodarlik maktablarida ilk bor qo‘llanilgan va u sinf-dars shaklining asosi bo‘lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars va mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarni kiritdi. O‘sha davrlardan buyon to raqamli texnologiyalar rivojiga qadar darslar deyarli bir xil ko‘rinishda tashkil etilar edi. Ammo kompyuter texnologiyalarining rivoji o‘laroq, yoshlar ongida kechayotgan shiddatli o‘zgarishlar zamonaviy dars jarayonining vujudga kelishini talab eta boshladi va hozirda barcha pedagog-olimlarning oldida turgan birlamchi mas’uliyat ham aynan darsni zamonaviy shaklda tashkil qilish masalasidir.

Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratib berish zarur.

Ta’limni tashkil qilishda dars turlarini to‘g‘ri tanlashimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Dars mavzusining yana-da ko‘proq tushunarli bo‘lishi dars turiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, darsning quyidagi turlarni keltirishimiz mumkin:

– aralash (kombinatsion dars);

–yangi bilimlarni bayon qilish darsi;

– o‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsi;

– o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishdarsi;

– laboratoriya darslari;

– amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);

v) yangi mavzuni bayon qilish;

g) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;

d) o‘quvchilarni baholash;

e) uy vazifasi.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) yangi mavzuni bayon qilish;

v) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;

d) uy vazifasi.

O‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilgan mavzularga doir savol-javob o‘tkazish;

v) o‘rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;

g) o‘quvchilarni baholash.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);

v) nazorat ishini o‘tkazish;

g) uy vazifasi (o‘rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

v) laboratoriya ishini o‘tkazish;

g) o‘quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;

g) o‘quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim: – fanning ilg‘or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

– darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;

– o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– o‘quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish;

– ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

– shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivasiyalash va faollashtirish;

– o‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;

– pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

– zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;

– mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

– har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va tahmin qilish.

Darsning samarali bo‘lish talablari ham mavjud bo‘lib, quyidagilarni ushbu tarkibiy qismga kiritishimiz mumkin:

Ta’limiy talab. Har bir dars o‘quvchiga qandaydir bilim berishi lozim.

Tarbiyaviy talab. Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

Didaktik talablar. Bu o‘qituvchiga darsni to‘g‘ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to‘g‘ri belgiiash, darsdagi u yoki bu materialni o‘quvchilarga yetkazib berish usullarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllarini aniqlab olish demakdir.

Psixologik talablar. Bu talab shuni nazarda tutadiki, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining xarakter xususiyatini qanchalik darajada yaxshi bilishi juda katta ahamiyatga ega. O‘z o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o‘qituvchigina to‘laqonli dars uyushtirishi mumkin.

Gigiyenik talablar. Bu o‘quvchilar salomatligi haqida qayg‘urish demakdir.

Qo‘yilgan talablarimizdan kelib chiqqan holda ta’lim mazmunini tashkil qilamiz. Ushbu jarayonni tashkil qilishda qaysi ta’lim shaklini tanlamaylik, eng muhimi ushbu shaklning mohiyatini anglagan holda, undan ilmiylik prinsipi asosida foydalanishdir. Negaki darsning asosiy maqsadi ham ilmiy bilimlarni berish jarayonida o‘quvchini kelajak hayotga tayyorlab borishdir. Zero, zamonaviy ta’limning tayanch ustunlaridan biri hisoblangan “kompetensiya” tushunchasi ham aynan mana shu maqsadni o‘zida aks ettiradi. Shunday ekan, ta’lim jarayonida bolani shunchaki yodlashga emas, balki tushunib o‘qishga o‘rgatish samaraliroq ekanligi vaqt o‘tgani sari yana-da aniqroq isbotini topib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni-“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. PF-60-son

2. Xodjayev B.X. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Darslik. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2017-yil, 416-bet.

3. Adizov B.R. “Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari”. Ped. fan.dok… diss. – Buxoro-2002.

4. Azizxo‘jayeva N.N. “O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. TDPU-2000.

5. Z.T.Nishonova. “Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari”. – T., 2005.

Guzal XOLMATOVA,
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, ijodiy faollikning komponentlari va ijodiy faollikni shakllantirish tamoyillari keng yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Ijodiy tafakkur, ijodiy faoliyat, konstruktiv, texnik, ilmiy, badiiy, tasviriy, tasavvur, o'quv topshiriqlari, mustaqil faoliyat.

В данной статье подробно описаны педагогические возможности развития творческого мышления учащихся младших классов. Также широко освещаются компоненты творческой деятельности и принципы формирования творческой деятельности.

Ключевые слова. Творческое мышление, творческая деятельность, конструктивная, техническая, научная, художественная, изобразительная, воображение, учебные задачи, самостоятельная деятельность.

This article describes in detail the pedagogical possibilities of developing the creative thinking of elementary school students. Also, the components of creative activity and the principles of creative activity formation are widely covered.

Key words. Creative thinking, creative activity, constructive, technical, scientific, artistic, visual, imagination, educational tasks, independent activity.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o'zlashtirishi, malaka va ko'nikmalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo'lishida muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O'quvchining berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o'quvchida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faollikni shakllantirish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonni o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji uning harakatlarida yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Ijodkor shaxsni shakllantirishda pedagogning asosiy vazifasi o‘quv-tarbiya jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etish shakl, metod, usul, vosita va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta’minlash hisoblanadi. Shuning uchun axborot ta’minotini pedagogik jihatdan boshqarish, ularni ilg‘or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Ijodkor shaxsni shakllantirishda ijodiy faoliyatdan tashqari tasavvur qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur va ijod bir-biri bilan uzviy bog‘liq, ammo, ularning orasidagi aloqadan maqsadli vazifa kelib chiqadi. Bunda tasavvur ijodni keltirib chiqaradi. Ijodiy tasavvur jarayonida har tomonlama his qila olish yetakchi hisoblanadi. Tasavvur turlarining paydo bo‘lishi ijodiy faoliyatning xilma-xil shakllarini rivojlantirish natijasi hisoblanadi. Shuning uchun inson faoliyatning maxsus, o‘ziga xos turlari qancha bo‘lsa, tasavvurning shuncha maxsus turlari mavjud.

Bularga konstruktiv, texnik, ilmiy, badiiy, tasviriy, musiqiy turlarini kiritish mumkin. Ijodiy faoliyatning xilma-xil turlarida tasavvurning barcha turlari ijodiy tasavvur shakllari ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Shuningdek, ijodiy faollik quyidagi ichki komponentlardan tashkil topadi:

– o‘quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik;

– mustaqil faoliyatga intilish;

– topshiriqlarni ongli bajarish;

– o‘qishning tizimliligi;

– o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga harakat qilish va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishda qator tamoyillarga amal qilish talab etiladi:

1. Ta’limni individuallashtirish.

2. Ta’limni rivojlantirish.

3. Faoliyat turlariga qulay sharoitlarni yaratish.

4. O‘quvchilar qobiliyatlarining faoliyatda namoyon bo‘lishiga imkoniyatlar yaratish.

5. Darsdan tashqi faoliyatlar (ishlar) imkoniyatlaridan unumli foydalanish.

6. Ta’limning rivojlantiruvchilik tamoyilini qo‘llash.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir nechta fandan dars berishini inobatga oladigan bo‘lsak, u o‘z o‘quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda quyidagilarni ham inobatga olishi lozim:

– o‘quvchilarning o‘quv predmetlari ichida qay biriga ko‘proq qiziqishi va iqtidorini aniqlash;

– o‘quv fanlari bo‘yicha tayyorlangan o‘quv materiallar, masala, topshiriqlarning murakkabligi, ijodiyligi, ilmiy-tadqiqot darajalarini o‘z ichiga olgan holda ijodiy faollikni bolalar bilan ishlash buyicha tematik reja va dasturlarini tuzish;

– o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish yuzasidan individual ish rejalari ishlab chiqish.

O‘qituvchi dars loyihasi tuzishda o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali natija beradigan quyidagi faollashtirish vaziyatlarini inobatga olishi muhim:

– o‘z fikrida turish;
– bahs-munozaralarda ishtirok etish;
– o‘z o‘rtoqlari va o‘qituvchi oldiga savollar qo‘yish;
– o‘rtoqlarining javoblarini izohlash;
– o‘rtoqlarining javobi va yozma ishlarini baholash;
– orqada qolganlarga ko‘maklashish;
– bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga tushunmaganlarini tushuntirish;
– kuchi yetadigan topshiriqni mustaqil tanlash;
– biluv topshiriqlarining bir necha variantdagi yechimini topish;
– o‘z-o‘zini tekshirish, o‘zining biluv va amaliy xatti-harakatlarini tahlil qilish vaziyatlarini yaratish;
– biluv topshiriqlarini o‘ziga ma’lum bo‘lgan amallarni kompleks qo‘llagan holda bajarish.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroqdir. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltayeva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi // Zamonaviy ta’lim. №6. 2017. 48-52-b.

2. Samarova Sh.R. Ijodkor shaxslar shakllanishida faoliyat va tasavvur jarayonlarining o‘rni // Zamonaviy ta’lim. 2017, 6. 22-26-b.

3. Shodiyeva M. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, uning mazmuni va bosqichlari // TDPU axborotnomasi. 2022, 4-son. 100-107-b.

Dildor ESHMURODOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada muammoli ta’lim texnologiyasi – o‘qitish tizimi bo‘lib, unda o‘qituvchi darsda muammoli vaziyatni taqdim etadi, o‘quvchilar esa uni mustaqil hal qiladi. Texnika bilimlarni ijodiy egallashga va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ushbu texnologiyaning bugungi kunda oliy ta’limda samara berayotgani mohiyati ochib beriladi.

Tayanch so‘zlar. Texnologiya, o‘qitish, muammoli ta’lim texnologiya, muloqot, samara, talaba, metod.

В статье технология проблемного обучения представляет собой систему обучения, при которой учитель представляет на уроке проблемную ситуацию, а учащиеся решают ее самостоятельно. Говорят, что технологии помогают творчески приобретать знания и развивать мыслительные способности. Также будет раскрыта суть эффективности данной технологии в высшем образовании сегодня.

Ключевые слова. Технология, обучение, проблемное обучение, технология, коммуникация, эффективность, обучающийся, метод.

In the article, problem-based learning technology is a teaching system in which the teacher presents a problem situation in the lesson, and the students solve it independently. It is said that technology helps in creative acquisition of knowledge and development of thinking ability. Also, the essence of the effectiveness of this technology in higher education today will be revealed.

Key words. Technology, teaching, problem-based education, technology, communication, effectiveness, student, method.

Ma’lumki, texnologiya – har qanday biznes, mahorat yoki san’atda qo‘llaniladigan texnikalar to‘plamidir. Pedagogik texnologiya – bu shakllar, usullar, o‘qitish usullari, ta’lim vositalarining maxsus majmuyi va tartibini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar yig‘indisidir; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy qurolidir.

Pedagogik texnologiya – ta’lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi.

Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi deb talqin qilinadi.

Texnologiya – bu san’at, mahorat, ishlov berish usullari to‘plami, holatning o‘zgarishi ekan, o‘qitish texnologiyasi didaktik tizimning ajralmas protsessual qismidir. Pedagogik texnologiya – o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni so‘zsiz ta’minlagan holda ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha har bir detali bilan o‘ylangan qo‘shma pedagogik faoliyat modelidir. Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan texnik va kadrlar resurslari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va o‘qitishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli usuli hamdir.

Muammoli ta’lim – bu universitetlarda muayyan muammo va vazifalarni hal qilishga asoslangan o‘qitish usuli bo‘lib, protsessual nuqtayi nazardan muammoli ta’lim mazmuni o‘quv vaziyatlarini tashkil etishdan iborat bo‘lib, uni hal qilishda o‘quvchilar va o‘qituvchi ishtirok etadi. Har bir muammoli vaziyatni hal qilish jarayoni talabalarning maksimal mustaqilligi va o‘qituvchining atipik roli bilan tavsiflanadi – u ma’ruza o‘qimaydi, faqat o‘quv jarayonini mo‘tadil qiladi va boshqaradi.

Shu bilan birga, talaba tomonidan o‘zlashtirilgan yangi faktik bilimlargina emas, balki faol mustaqil bilish faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish ham qimmatlidir. Umuman olganda, muammoli o‘qitish tabiatan ko‘p funksiyali bo‘lib, bu ko‘plab dolzarb ta’lim muammolarini hal qilish imkonini beradi:

– motivatsiyani rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
– ta’lim, kasbiy, kasbiy muammolarga kognitiv qiziqishni oshirish;
– kognitiv qiyinchiliklarni bartaraf etishdan oldin psixologik noqulaylikni kamaytirish;
– mustaqillikni shakllantirish;
– ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
– ongli, shaxsan egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish;
– o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
– tadqiqot ko’nikmalarini rivojlantirish;
– aloqa ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Muammoli ta’lim markazida muammo turadi, bu holda u o‘rganish va hal qilishni talab qiladigan ma’lum bir savol (nazariy, amaliy) sifatida tushuniladi. Muammoning asosi muammoli vaziyat obyektining uchta qayd etilgan holati o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoki qarama-qarshilikdir:

– boshlang‘ich holati;
– bashorat qilingan holat (qoida tariqasida, bu obyekt shartlar bilan belgilangan muayyan harakatlar natijasida kirishi kerak bo‘lgan kutilgan holat);
– natija (obyektning bashorat qilinganidan farq qiladigan holati).

Xulosa qilib aytish mumkinki muammoli vaziyatlar asosan yuqori noaniqlik holatlaridir. Shunday qilib, muammoli ta’lim formatida talabalarning asosiy vazifasi noaniqlikni bartaraf etish yo‘llarini topishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ahliddinov R. Maktabni boshqarish san'ati: umumiy o‘rta ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2006. – 303 b.

2. Axliddinov R.Sh. Oldroyd D. va boshqalar. Ta'lim boshqaruvi muammolari yechimining metodikasi. – T., 1999. – B. 10-70.

3. Axliddinov R.Sh., Olfroyd D va boshqalar. O‘zbekistonda ta'limni boshqarish muammolar, yechimlar // Ta'lim taraqqiyoti. – 2000. - ¹1. – B. 5-93.

4. Axliddinov R.Sh. Uzluksiz ta'limda pedagogik boshqaruv masalalari // Uzluksiz ta'lim. – 2002. - ¹3. – B. 3-6.

4. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 328 b.

5. Valijonov R. Menejment asoslari. – T.: Sharq, 2002. – 136 b.6. Farmonovna X. R., & Farmonovna H. R. (2022). Ota-ona, maktab va o ‘qıtuvchı hamkorlıgıdagı harakat ta’lımnı qo ‘llab quvvatlashnıng samaralı usulıdır.

Umida USMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

NASRIY ASARLARNI “BLUM TAKSONOMIYASI” METODI ASOSIDA TAHLIL QILISH (Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)

Annotatsiya

Maqolada “Blum taksonomiyasi” adabiy ta’limda o‘quvchilarda badiiy matnni qismlarga ajratib o‘rganish, dalillarga asoslanib mulohaza yuritish, talqin qilish, qiyoslash, tasavvur qila olish, matnni to‘laqonli tushunish va matnosti ma’nolarni tahlil qilish, fikrlarni birlashtira olish, shaxsiy munosabatni bildirish, yangi g‘oyalar yarata olish kabi ko‘nikmalarni shakllantiruvchi asosiy metodlari yoritilgan. Shuningdek maqolada adabiy ta’limda “Blum taksonomiyasi” metodi qo‘llanganda qanday savol va topshiriqlardan foydalanish mumkinligi “Kecha va kunduz” romani orqali tushuntirilgan.

Tayanch so‘zlar. “Blum taksonomiyasi”, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash, yaratish, “Kecha va kunduz”, o‘qib tushunish, tanqidiy tafakkur, kreativlik.

В статье "таксономия Блюма" освещены основные методы литературного образования, формирующие у учащихся такие умения, как изучение художественного текста по частям, рассуждение на основе фактов, интерпретация, сравнение, воображение, полноценное понимание текста и анализ смыслов под текстом, умение объединять мысли, выражать личностное отношение, генерировать новые идеи. В статье также объясняется, какие вопросы и задания можно использовать при использовании метода таксономии Блюма в литературном образовании, в романе “день и ночь.

Ключевые слова. “Таксономия Блюма“, знание, понимание, применение, анализ, оценка, создание,” день и ночь», понимание прочитанного, критическое мышление, креативность

The article highlights the basic techniques of “Bloom taxonomy” in literary education that shape students ' skills such as piecemeal study of artistic text, evidence-based reasoning, interpretation, comparison, imagination, full-fledged understanding of text and analysis of textual meanings, ability to combine thoughts, express personal attitudes, be able to create new ideas. The article also explains through the novel “Day and night” what questions and assignments can be used when applying the method of “Bloom taxonomy” in literary education

Key words. Bloom’s taxonomy, remembering, understanding, applying, analyzing, evaluating, creating, Night and Day, reading comprehension, critical thinking, creativity.

Ta’lim sifatini oshirish mamalakatni har jihatdan rivojlantirishning asosiy yo‘llardan biri. To‘g‘ri va mantiqli fikr yurita oluvchi, puxta bilimli kadrlar aholi farovonligi darajasini o‘stiruvchi qudratdir, shu boisdan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[1] farmon qabul qilindi. Farmon barcha umumta’lim fanlar, jumladan, adabiyot darslarida ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish samardorligini oshirishni talab qiladi. Adabiy ta’lim sifatini yaxshilash jahon standartlariga mos o‘quv dasturlari, darsliklarni yaratish, sinfxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashni talab etadi. Ush-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori. – T.,2019

bu talablar amalga oshirilgan taqdirda ham o‘qituvchi mahoratli bo‘lmasa, ta’lim sifati yaxshilanmaydi. Shu boisdan o‘qituvchi o‘z ustida muntazam ishlashi, zamonaviy ta’lim metodlaridan samarali foydalanishni o‘rganib borishi lozim. “Blum taksonomiyasi” ta’limi rivojlangan mamlakat pedagoglarining asosiy metodlaridan biriga aylangan. “Britaniya ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ijodkorlik, faollik, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalaniladi. Mana shunday rivojlangan metodlardan biri “Blum taksonomiyasidir”[2] .

Taksonomiya so‘ziga izohli lug‘atda shunday ta’rif berilgan: “Taksonomiya (yun. taxis – tartib bilan o‘lchayman, nomos – qonun) butun borliqning murakkab, odatda, iyerarxik tuzilmali sohalarini tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqidagi fan”. Badiiy asar borliqning aksi, adabiyot o‘quvchini to‘g‘ri, sog‘lom, tizimli fikr yuritishga o‘rgatishi kerak, shunday ekan, “Blum taksonomiyasi” metodi adabiy ta’lim uchun aynan mos. “Blum taksonomiyasi” – talabalarni faktlarni eslab qolishdan tortib, olingan bilimlar asosida yangi g‘oyalar yaratishgacha bo‘lgan o‘rganish bosqichlarini taklif etuvchi metod. U olti bosqichda amalga oshiriladi. O‘quvchining kerakli ma’lumotlar bilan tanishganligini tekshirish, xotiraga qaratilgan savol-topshiriqlar berish metodning birinchi bosqichi hisoblanadi. Afsuski, aksar holda adabiyot darslari “Blum taksonomiyasi” ning birinchi bosqichi darajasida o‘tiladi, dars mazmuni badiiy asarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo‘lib qoladi, ya’ni o‘quvchi xotirasi mustahkamlanadi.

Bu jarayonda o‘quvchi asardan olingan tugal xulosalarga tayanishi lozim. Shunday ekan, yaratish bosqichi dars xulosasi o‘laroq uyga vazifa sifatida berilishi adabiy ta’lim uchun to‘g‘ri tanlov.

Quyida “Kecha va kunduz” romanini o‘qitish uchun “Blum taksonomiyasi” metodi asosida tuzilgan savol va topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz.

I. Bilish bosqichi. O‘rganishning bu bosqichi asosiy faktlarni, sanalarni, voqealarni, shaxslarni, joylarni, tushunchalarni bilishdan iborat. “Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

– kim? nima? qachon? qayerda? qaysi? nega? singari faktual savollarga javob bera olish;

– nomini aytish, ajratib olish, topish, moslashtirish, ro‘yxatini tuzish, qayta so‘zlab berish, tasvirlash singari amallarni bajara olish”. Bu bosqichda asarni o‘qilganligi, asar yuzasidan kerakli ma’lumotlarga ega bo‘linganligini tekshirish bilan bir qatorda asarni tushunish va tahlil qilishga xizmat qiluvchi muhim nuqtalarga e’tibor qaratish lozim.

– roman zamoniga xos tasvirlarni ayting.

– Asarda uchraydigan makonlar va unga bog‘liq obrazlarning paydo bo‘lish ketma-ketligini sanang.

– asardagi dramatik vaziyatlarni ajrating va qayta so‘zlang.

– matndan e’tiboringizni tortgan til yoki tuzilishga oid qismlarni ayting. (Cho‘lpon tili, syujetdagi to‘satdanlik, ortga qaytishlar haqida gapirish mumkin).

– nima uchun so‘rog‘i bilan boshlanuvchi faktual javob talab etuvchi savollar tuzing. (Nima uchun Razzoq so‘fi to‘yga rozi bo‘ldi?)

II. Tushunish bosqichida o‘quvchi asarni tushunishi, tushuntira olishi kerak. O‘qib tushunishga oid savol va topshiriqlar obraz xarakter xususiyatini, syujetni, muammoning sabablarini, makon, zamon, obraz nega bunday tasvirlanganini, voqealar kitobxonga nega bunday uslubda taqdim etilganligini tushunishga qaratiladi. Bu bosqichda o‘quv-

[2] Mirzayeva Z. O‘quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta’lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida. // Xalq ta’limi – 2019. 4-son

chi matnni qismlarga ajratib o‘rganishi, fikrlari uchun kerakli dalillarga ega bo‘lishi lozim.

1. Voqealarni, dialog, monologlarni birma-bir ko‘zdan kechiring. Muhim voqealar ro‘y bergan matnlarni ajrating. Bu matnda nima sodir bo‘layotgani, nima uchun muhimligi, nozik taraflari, so‘z tanlash, fikr tartiblanishi butun ma’nosiga ta’sirini tushuntiring[3].

Matn	*Tushuntirish*
Xadichaxon: “Buningiz amaldor bo‘lgandan keyin aynidi. Mingboshilik yomon hovliqtirdi. O‘z qishlog‘ini tashlab, bu yerga ko‘chdi. Bu katta hovlini sotib oldi. Mana bu katta imoratlarni soldirdi. Bog‘-rog‘ qildi, yer-suv ko‘paytirdi. Ko‘ngli boshqa savdolarga, o‘zga ko‘ylarga tushdi ... Bola ham ko‘ziga ko‘rinmadi, xotin ham. Yoniga “haybarakallachilar” kirishdi. Xotin topadigan, maslahat beradiganlar ko‘payishdi. Bir haftaning ichida to‘y qilib, mening ustimga sizni keltirib qo‘ydi...” (Kecha va kunduz”, 49)	*Romandagi erkakalarning amal, pul uchun iymonidan uzoqlashgani, o‘zligini yo‘qotganiga ishora qiladi. Yana bu yerda juda muhim fikr bor: o‘zbek millati birovning ta’sirga beriladi, mustaqillik, o‘z fikriga egalik, qat’iyatlilik kam. Ayni shu paytda Akbarali Miryoqub ta’siriga tushdi. Akbarali Xadichaning ta’rifiga qaraganda, yaxshi inson edi, ammo u ta’sir tufayli o‘zgardi. Keyingi voqealarda Miryoqub unga uylanishni taklif qildi, ishratxonaga olib bordi. Bu tasvir o‘zbekning tez yot ta’sirga berilishiga ishora. Razzoq ham shunday, Miryoqub ham shunday. Miryoqub Sharafiddin gaplaridan so‘ng tezlikda fikrini o‘zgartirib Mariyaga uylandi. Zebining ham qarshilik ko‘rsatishiga ta’sir etuvchi omillari: Umrinisabibi, Bahri, Enaxonsiz qolgach, ota-onasi, ovsinlar ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Demak, “haybarakallachilar” ta’siriga tushish o‘zbekning muammosi.*

Muammolarni tushunish uchun quyidagi ko‘rinishdagi savollarni berish mumkin.:

– Obraz xohishi, maqsadlariga erishishida to‘siq(lar) bormi? Bu qanday to‘siq? Nima sababdan to‘siq bor? To‘siq obrazning o‘zidami yoki tashqarida?

Obrazlarni qiyoslash orqali obrazlarning harakatlari sabablarini, ruhiyatini tushunish mumkin.

Razzoq so‘fi va Akabralini quyidagi savollar orqali qiyoslash mumkin.

– Ular dastlab qayerda yashar edi? Makon almashgach, ularning hayotida qanday o‘zgarish bo‘ldi?

– Ular kimlarning hisobiga kun ko‘radi?

– Ularning oilasiga munosabati qanday?

– Ular o‘tkir mulohazalarga ega, mulohazalar qanday vaziyatda yuzaga chiqdi?

– Nega aynan shu vaziyatda ular mulohaza qila boshladi? Nima uchun avval mulohaza qilishmadi? Bu ularga foydali bo‘lar edimi yoki zararli?

– Ularni umumlashtiruvchi jihat nima?

– Qiyos orqali avval anglamagan qanday yashirin ma’noni aniqladingiz?

Quyidagi obrazlarni tahlil qilish asarni tushunish uchun foyda beradi.

[3] Qarang. Literary Analysis Guide. Goshen Collegw.// https://www.goshen.edu/academics/english/literary-analysis-guide/

1. Saltanat, Poshsha.	*Mariya, noibning xotini*
2. Razzoqning yashash tarzi.	*Akbaralining yashash tarzi*
3. Qurvonbibi, O‘lmas, Xolmat, dehqonlar.	*Mingboshi, Razzoq, Zunnun, eshon, boylar.*
4. Sadri cho‘loq.	*Razzoq so‘fi.*
5. Hakimjon voqeasi (Miryoqub v.).	*Zunnun voqeasi.*
6. Akbarali (xiyonat voqeasi).	*Noib (xiyonat voqeasi).*
7. Umrinisabibi (harakatlari).	*Qosim laylak, Razzoqning akasi.*
8. Hasan abziy (gaplari).	*Sharafiddin (gaplari).*
9. Qishloq imomi.	*Shahar imom.*
10. Akbarali (o‘ylari).	*Miryoqub (o‘ylari).*
11. Maryam (o‘ylari).	*Jakob (o‘ylari).*

Obrazlarni quyidagi tartibda qiyoslash vaziyatlarning sabablari va natijasini tushuntiradi.

O‘xshashlik va farq	*Zunnun*	*Hakimjon*
Ko‘rinishi		
Afzallik		
Kamchilik		
O‘z hayotiga ta’siri		
Xulosa		

Bu bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng muhim ish matnni jumlama-jumla tushunib borishdir.

– “Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalarda, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar”[4]. Siyosiy kontekst bilan tanishing va savollarga javob bering. Bo‘shalgan suv singari erkinlik nash’asini kemirish tasviri orqali muz, suv, suvning g‘amli yuzlari, loyqalanishi nima(lar) yoki kim(lar)ning ramzi bo‘lib kelganligini tushuntiring?

– “Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada...” Davrning madaniy va siyosiy holatidan kelib chiqib savollarga javob bering. Nima uchun erkaklar gulli do‘ppi bilan tasvirlangan? Qulga o‘xshatilgan suv, erkinlikni ramzi bo‘la oladigan shabadaning erkaklar emas, ayollar atrofida esishi tasvirlaridan kelib chiqib, erkaklarning gulli do‘ppisi tasviridagi kinoyani tushuntiring.

Ma’lumotlarni integratsiya qilish orqali xulosa chiqarish, oqibatlarning sabablarini aniqlashga qaratilgan savollar tuzish maqsadga muvofiq. Savol tuzishda e’tibor berish kerakki, savollarning javoblari shaxsiy fikrni talab etmasligi, xulosalar matndan topilgan aniq javoblar orqali chiqarilishi, shuningdek, savollar asosiy g‘oyalarni aniqlashga emas, qismlarni tushunishga qaratilishi kerak.

– Poshshaxon Zebini zaharlashga tayyorlanganda unga nisbatan fikrining o‘zgarishi, keyinchalik kasal bo‘lib yotib qolishi inson ruhiyati haqidagi qanday haqiqatlarni tushuntiradi?

[4] Kecha va kunduz. Roman. Birinchj kitob. /Asr oshgan asarlan turkumi// Tahrir ha’yati: Bobur Alimov va boshq./. - T.: Sharq, 2004.- 5 b.

– Miryoqub ichki sudidan keyin fohishani qutqarishga urinishi bizga u haqidagi qanday ma'lumotni bermoqda?

– Romandagi ayollarning umumiy jihatlarini ko'rib chiqish orqali ayollarning hiylakor va xiyonatkor ekanligi sabablarini tushuntiring.

– Akbaralining farzandsizlikdan qiynalishi tasvirlangan o'rin kitobxonga nimani tushunishi uchun xizmat qiladi?

III. Qo'llash bosqichida o'rganilgan ma'lumotlar yangi kontekst va vaziyatlarda qo'llab ko'riladi. Bu bosqich asarda ko'tarilgan mavzular doirasidagi muammolarning sababi nimada ekanligini aniqlashga, obrazlar ruhiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

– Akbarali Miryoqub hayotiga hech qachon kirib kelmadi? Nima o'zgaradi?

– Razzoq so'fining puli ko'p bo'lganida eshonga munosabati qanday bo'lardi?

– Tasavvur qiling, Akbarali ayollari bilan, Razzoq Qurvonbibi va Zebi bilan juda yaxshi munosabatda. Nima o'zgarardi?

–Tasavvur qiling, Poshshaxon ilmli ayol. Shunday bo'lsa, u asarda qanday harakat qilar edi?

– Gimnaziyani ham tugata olmagan, Arsiboyevning kitoblarini o'qib, kechasi har uchratganni sevgilim uchradi, deb yurgan rus ayoli Miryoqubning o'g'lini tarbiya qildi. Tasavvur qiling, o'n yildan keyin Miryoqubning o'g'li qanday hayot kechiradi?

– Mamaturdi boy bo'lganida voqealar qanday kechar edi?

– Sudda imom Zebini oqlashga harakat qilganda qanday holat yuz berardi?

– Zebi turmushga chiqishga qarshilik ko'rsatganida, masalan, uyidan qochib ketsa, uning ahvoli qanday kechardi? Saltanat yoki Poshshaxon mingboshi, oilasiga qarshi chiqib, mingboshi uyidan ketib qolganida ular qanday holatda yashardi?

IV. Tahlil bosqichida asar asosiy nuqtayi nazarni aniqlashga qaratilgan savol-topshiriqlar beriladi. Matnda ochiq aytilmagan fikrni aniqlash, shaxsiy tajribalarga tayanib fikr yuritish, matnni matndan tashqari ma'lumotlar bilan integratsiya qilish asosida xulosalar chiqarishga qaratilgan savollar berish mumkin. Shuningdek, asar qismlarni strukturaga qanday mos kelishini tekshirish (syujet liniyalari va ularni siljituvchi shaxslarni aniqlash, kompozitsiya elemntlarining umumiy g'oyani ifodalashdagi ahamiyatini tushunish kabi), muhim qismlarni ahamiyatsiz qismlardan ajratish (bosh va yordamchi obrazlarni ajratish, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni anilqash kabi) ishlar amalga oshiriladi

– Roman boshida qayta-qayta go'zal bahor takrorlanishi haqida so'z yuritiladi. Sizningcha, Miryoqub, Akbarali, Razzoq qilmishlarining bunga aloqasi bormi?

– Akbarali bilan qarama-qarshi qo'yilgan Abdisamat nima uchun asarda jismonan qatnashmaydi? Uning ko'pxotinligiga jadidlarning ko'z yumishi, ammo Akbaralining ko'pxotinligiga e'tibor qaratishi haqidagi tasvirdan nimani anglash mumkin?

– Mariyaning o'tmishi, islavatxonada pul topish maqsadida ixtiyoriy turishi va jadidning Miryoqubga Mariyaga o'g'lini topshirishni maslahat qilishida qanday kinoya bor? Zunnunning 12-13 yoshlaridan ruslar qo'lida tarbiya topishi va uning qilmishlari Finlandiyada 5 sinfda o'qiyotgan bola, Mariyaga topshirilayotgan farzand kelajagi haqida nimalarni oshkor qiladi? Noib xotining xiyonati asarga nima uchun kerak?

– "Sizning dushmaningizni aytayotganim yo'q, dodho afandi. Turk-islom xalqining dushmanlarini aytaman ..." "Sizning" so'zi kimlarga ishora qilmoqda? Nemislar ularning qanday manfaatlariga zarar yetkazadi? Akbaralining oilasi, Miryoqub, abziyning so'zlari haqidagi haqli mushohadalari va ustidan kim shikoyat qilganligi ochiq-oydin turgan holatda ham fahmlay olmasligi kabi tasvirlar Akbarali obrazining puxta ishlanmaganligidan

dalolat beradimi yoki Choʻlponga vaqti kelganda ishlab, vaqti kelganda ishlamay qoladigan aql-u farosatga ega akbaralilar kerak edimi? Nima uchun? Akbarali haqiqatan Miryoqubga koʻra odamroq. Fikrni dalillang.

– Sizningcha, nima uchun Miryoqubning imperiyani olishdek “ezgu” maqsadi zinoga, millatni qutqarishdek “xayrli” niyati ajrimni oʻylashiga olib keldi? Quyidagi ikki fikrdagi qarama-qarshilikni aniqlang va romanning umumiy mazmuniga aloqasini tushuntiring: “Agar jadidlarning asosi puch boʻlsa, “Xalifayi Rum” jadidlarga tarafdor boʻlarmidi? Hamma tartib-nizom oʻsha tomonda deydi-ku. Yangicha oʻqish Rumdan kelgan… kalta kiyim Rumdan chiqqan… Rumcha yoqalar oʻsha tomondan kelib rasm boʻlgan…”

– Choʻlpon asardagi oʻzbek ayollariga bagʻrikenglik bilan yondashgan. Fitnalik barcha ayollarga xos va muhit bu illatni ularning qoniga singdirgan. Ushbu fikrlarni asoslashga harakat qiling.

– Razzoq soʻfi qizini mingboshiga berganini eshitgan qoʻshnilarning unga xushomad qilishi orqali xalq ahvoli, ruhiyati haqida nimalarni anglash mumkin? Syujetga deyarli ta’sir qilmagan Xolmatga alohida tavsif berilishi nima uchun xizmat qiladi? Oʻlmasning Xolmatga oʻxshash jihati nimada? Bu asarga nima uchun kerak?

– Oʻta dindor soʻfi nomini olgan Razzoqning boshga kelgan kulfatga sabr qilmay qotillik qilishi, pul oʻgʻrilashi bachchabozlik qiluvchi, vaqf yerlaridan foydalanuvchi, birovning hisobiga yashovchi din peshvolarining umumiy qiyofasini yaratishdagi bir vositami yoki bundan boshqa maqsad koʻzlanganmi?

– Miryoqub nima uchun Zunnunni koʻrgandan soʻng oʻzini taftish qilishni boshladi? Ayni shu voqeadan Choʻlpon nimani maqsad qilgan?

– Razzoqning oilaviy munosabatlari, Akbarali xotinlarining bir-biriga dushmanligi yuzasidan qanday fikr bildirish mumkin?

– Boylar aybsiz qishloqdoshlarini qamoqqa oldirishi, Akbaralini ishdan boʻshatishi nima haqida gapiradi?

– Ayollarning xarob ahvoli, Zebining erta turmushi, suddagi ayanch holati nimadan darak beradi?

– Xalqning ilmsizligi oqibatlari orqali qanday xulosa chiqarish mumkin?

– Zebi ramziy obraz sifatida asarning bosh qahramoniga aylanadi va millatimiz uchun makon va zamontanlamas holga keladi. Nima uchun? Fikrni tushuntiring.

V. Baholash bosqichida oʻquvchi aniqlangan muammo va gʻoyalarni oʻz hayoti, jamiyat, umumbashar bilan bogʻlab xulosa chiqaradi. Gʻoyalarning ahamiyatini, muammoning inson hayotiga ta’sirini baholaydi; obrazlarni oʻzi va atrofidagi insonlar bilan taqqoslash asosida oʻzi va atrofdagilarining xarakter xususiyatlari shakllanish sabablarini tushunadi, harakatlari va ruhiyatini tahlil eta oladi.

– Bugungi kun Miryoqub va Akbaralilari kimlar? Ular xalqimizga qanday zarar keltirmoqda?

– Razzoq soʻfi kabi dinga koʻr-koʻrona ergashuvchilarni va eshon kabi riyokor dindorlarni bugungi kundagi kimlarga qiyoslash mumkin?

– Gender tenglik masalasi yuzasida asardagi ayollar va atrofingizdagi ayollarni qiyoslang. Gender tenglikning ta’minlanishi mamlakat rivojlanishida qanchalik ahamiyatli?

– Oʻylab koʻring, siz koʻproq asarning qaysi obraziga oʻxshaysiz? Zebigami yoki Miryoqubga? Jamiyatimizda Zebiga oʻxshash insonlar koʻpmi? Bugungi kunda ularning “kar va soqov” ekanligiga sabablar nimada?

– Oʻzbek xalqining asarda tasvirlangan qaysi illatlari bugungi kunda ham mamlaka-

timiz rivojiga to‘siq bo‘lmoqda? Qanday va qay darajada?

VI. Yaratish bosqichi o‘quv jarayonining eng murakkab bosqichi bo‘lib, bunda o‘quvchilar yechimlarni taklif etadi, fikrlari asosida yangi narsa kashf etadi. Ular gipotezalar ishlab chiqadi, rejalashtiradi va yaratadi[5].

– Zebi, Razzoq so‘fi, Akbarali, Poshshaxon, eshon, imomlar, boylar, Miryoqubga aylanmaslik uchun, shaxsiy rivojlanish rejangizni ishlab chiqing. Rejangiz har kuni o‘zingizni kamol toptirib borishga qaratilgan topshiriqlardan iborat bo‘lsin. Topshiriqlar ikki mazmunga qaratilsin: birinchisi, fazilatlarni shakllantirish; ikkinchisi, bilim olish va dunyoqarashni kengaytirish.

– Millat rivojiga hissa qo‘shish uchun qanday illatlardan qutulishim va qanday fazilatlarga ega bo‘lishim kerak? Ushbu savolga javob berish uchun yutuq va kamchiliklaringiz ro‘yxatini tuzing.

– Romanda ko‘tarilgan muammolardan kelib chiqib oilangizni farovonlashtirish rejasi yoki xalq hayotini yaxshilash uchun takliflaringizni ishlab chiqing.

– “O‘zbek millatiga xos fazilat va kamchiliklar (“Kecha va kunduz” romani misolida)” mavzusida esse yozing.

– “Kecha va kunduz” romanining obrazlar tizimi” mavzusida tezis yozing.

–“O‘zbekiston iqtisodiyotini orqaga tortayotgan omillar yoxud milliy mintelatetimizga xos illatlar” mavzusida taqdimot tayyorlang.

Demak, “Blum taksonomiyasi” metodi o‘quvchining asar matnini to‘laqonli tushunib tahlil qilishini, asar mazmunini shaxsiy tajribalar bilan integratsiya qilgan holda anglashini, chiqarilgan xulosalar asosida o‘z shaxsiyati va borliqni baholay olishini, shu asosda yangilik yaratishini ta’minlaydi. “Blum taksonomiyasi” metodidan yuqorida keltirilgan shakl va mazmunda foydalanish adabiyot fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishish, o‘quvchilarda o‘qib tushunish, tandqidiy tafakkur, kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda samaralidir.

Xulosa qilib aytanda, adabiyot o‘qituvchisi “Blum taksonomiyasi” metodidan unumli foydalana olsa, adabiy ta’lim sifatini oshirishga erishadi. Metod samara berishi uchun pedagog matn bilan ishlashi, dalillarga asoslanib fikrlashga qaratilgan topshiriqlar tayyorlay olishi kerak. Shuningdek, o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, asarni ontologik tahlil qilishga xizmat qiluvchi savollar tuzish mahoratini oshirish ustida ishlashi, baholash va yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun kreativ yechimlar o‘ylab topishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T: ToshDO‘TAU, 2020. – 161 b.

2. Mirzayeva Z. O‘quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta’lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida. // Xalq ta’limi – 2019. 4-son

3. Mustafa Altun, Shohidahon Nurmatova. A Comprehensive Review of Bloom’s Taxonomy Integration to Enhancing Novice EFL Educators’ Pedagogical Impact // Arab World English Journal (AWEJ) Volume 14. Number 3 September 2023 Pp.380-388 DOI: https://dx.doi.org/10.24093/awej/vol14no3.24

4. Xusanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. –T.: Innovatsiya ziyo, 2022. – 400 b.

[5] Bloom’s taxsonomy// Learning theories. Valamis. https://www.valamis.com/hub/blooms-taxonomy

Anor RAXMATULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ‘‘Biologiya’’ kafedrasi dotsent v.b., PhD

BIOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILAR MUSTAQIL TA’LIMINI BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida biologiya fanida o‘quvchilar mustaqil ta’limini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish bosqichlari, mohiyati va metodikasi berilgan. Shuningdek, o‘quvchilar mustaqil ta’limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. Biologiya, mustaqil ta’lim, taksonomiya, kognitiv, affektiv, psixomotor, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash.

В статье представлены этапы, сущность и методика организации самостоятельного обучения учащихся биологии в общеобразовательных школах на основе таксономии Блума. Описаны достижения, достигнутые в результате самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова. Биология, самостоятельное обучение, систематика, когнитивное, аффективное, психомоторное, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка.

The article presents the stages, essence and methodology of organizing independent education of students in biology in secondary schools based on Bloom’s taxonomy. Achievements achieved as a result of independent education of students are described.

Key words. Biology, independent learning, taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation.

Bugungi kunda jahonda va mamlakatimizda ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi islohatlar natijasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. ya’ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar mustaqil ta’limini samaradorligini ta’minlash hamda bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda natijador tashkiliy shakllarini tadbiq qilishga bevosita bog‘liqdir.

1956-yilda taksonomiyani ishlab chiqqan o‘qituvchilar qo‘mitasiga rahbarlik qilgan xorijiy olimlardan Chikago universiteti professori Benjamin Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o‘quv maqsadlari taksonomiyasining yaratilishi diqqatga sazovordir. U, shuningdek, standart matnning birinchi jildini tahrir qilgan, “Taksonomiya” atamasi yunoncha ‘‘taxis’’ (tartib bo‘yicha joylashuvi) va ‘‘nomos’’ (qonun) so‘zlaridan iborat bo‘lib, obyektlarni o‘zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish ma’nosini anglatadi.

Blum taksonomiyasi o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakat). O‘quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo‘yicha mustaqil ta’lim jarayonidagi holati haqida to‘xtalib o‘tamiz:

1. Kognitiv soha. Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko‘nikma va malakalar bilan uyg‘unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o‘rganish zaruratiga tegishli

o‘quv maqsadlari kiritiladi.

2. Affektiv soha. Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta’sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.

3. Psixomotorli soha. Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat, jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq maqsadlar kiritiladi.

Quyida biologiya fanidan o‘quvchilarning mustaqil ta’limini BLUM taksonomiyasi asosida shakllantirish uchun topshiriqlar berilgan.

O‘quvchilarning bilishga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:

O‘quvchilarning bilish o‘quv maqsadiga erishganligini nazorat qilishda ular muayyan mavzu bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘quvchi mavzu bo‘yicha obyektlarni aniqlashi, ularga ta’rif berishi, ma’lumotlarni qayta ishlari, o‘z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, obyekt yoki voqeaning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishi kerak bo‘ladi.


Ushbu fikrlarni standart o‘quv va test topshirig‘i bilan amalga oshirib bo‘lmaydi, bilish o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashda quyidagi rasmli va ko‘p javobli nostandart testlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur test topshiriqlari tahsil oluvchilarning o‘zlashtirgan nafaqat bilimlarini balki oby’ekt va uning qismlarini tanish, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholash jarayonini haqqoniy va odilona amalga oshirish imkonini beradi.

1. Monosaxaridlar (A), disaxaridlar (B) va polisaxaridlar (C) ni aniqlang.

1	glyukoza	5	sellyuloza	9	xitin
2	glikogen	6	fruktoza	10	kraxmal
3	laktoza	7	saxaroza	11	dezoksiriboza
4	riboza	8	maltoza	12	murein

2. 1. Mikroskopda bakteriya, zamburug‘, hayvon va o‘simlik hujayralarini kuzating.

2. Quyida berilgan rasmlar bilan mikroskopda kuzatilgan hujayralarni taqqoslang.




O‘quvchilarning tushunishga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:

O‘quv maqsadlarining ichida tushunish muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar mazkur o‘quv maqsadiga erishishi uchun mavzu bo‘yicha o‘rganilayotgan muammolarning yechimini topish, ahamiyatini anglash, asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. O‘quvchilarning ushbu o‘quv maqsadiga erishganlik darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholashda ular tomonidan o‘quv materialidagi fikrlarni umumlashtirish, asosiy g‘o-

yani qayta ishlash, misollar keltirish, o‘z fikrini bayon etish va uni himoya qilish talab etiladi. Yuqorida qayd etilganidek, ushbu darajalarni standart o‘quv va test topshiriqlari vositasida aniqlab bo‘lmaydi, ularni faqat ko‘p javobli nostandart test topshiriqlari yordamida aniqlash tavsiya etiladi.

2.1. Monosaxaridlar qanday biologik funksiyalarni bajaradi?

2. 2. Hujayraning o‘ziga xos tuzilishini o‘rganing va jadvalni to‘ldiring.



O‘ziga xos tuzilish	Bakteriya hujayrasi	Zamburug‘ hujayrasi	Hayvon hujayrasi	O‘simlik hujayrasi
Yadro				
Nukleotid				
Sitoplazma				
Glikokaliks				
Mitoxondriya				
Plastida				
Endoplazmatik to‘r				
Golji majmuasi				
Lizosoma				
Vakuola				
Hujayra markazi				
Sitoskelet				
Ribosoma				

O‘quvchilarning bilimlarni amalda qo‘llash o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish prinsiplari ichida nazariya va amaliyot birligi muhim o‘rin tutadi, shuni hisobga olgan holda o‘quv maqsadlaridan o‘quvchilarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash imkoniyatini yaratish zarur. Buning uchun o‘qituvchi o‘quv topshiriqlarini tuzishda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatda qo‘llashini nazarda tutishi lozim. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar o‘quv materialini qayta ishlashi, moslashtirishi, loyihalashi, modellashtirishi, qayta aytib berishi talab etiladi.

3. 1. Nima uchun muzlagan kartoshka eriganidan so‘ng shirin ta’mga ega bo‘ladi?

3. Kraxmal, sellyuloza va glikogenni xususiyatlariga ko‘ra taqqoslang. Ularning o‘xshashligi va farqini aniqlang?

3. 1. DNK ning bir zanjiri asosida ikkinchi zanjirini sintezlang.

DNK ning 1-zanjiri	A	T	G	S	A	A	S	S	G	T	T	A

DNK ning 2 - zanjiri												

2. Tekshirishlar natijasida iRNK tarkibida 34 foiz guanin, 18 foiz uratsil, 28 foiz sitozin20 foiz adenin borligi aniqlandi. Mazkur iRNK uchun matritsa bo‘lgan DNK tarkibidagi nukleotidlarning foizlarini aniqlang.

O‘quvchilarning tahlilga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:

Bilimlarni o‘zlashtirishda tahlil muhim o‘rin tutadi, tahlil o‘quv maqsadiga erishish uchun talabalar axborotni yoki obyektni qismlarga ajratishi, taqqoslashi, qismlarga ajratishi, o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishi, qiyoslashi zarur bo‘ladi. Mazkur o‘quv maqsadiga erishish darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholashda quyidagi ko‘p javobli nostandart testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

4. 1. Molekulyar massa ortishi bilan uglevodlarning ta’mi va ularning suvda eruvchanligi qanday o‘zgaradi? Buning biologik ahamiyati nimada?

2. Nima uchun glyukoza hayvon va odam organizmida glyukoza shaklida emas, balki glikogen shaklida saqlanadi? Vaholanki, glikogen sintezi qo‘shimcha energiya sarfini talab etadi.

4. 2. DNK va RNK tuzilishini taqqoslang va jadvalni to‘ldiring

Xususiyatlari	DNK	RNK
Hujayrada uchrashi		
Funksiyasi		
Polipeptid zanjiri		
Uglevodlari		
Purin asoslari		
Pirimidin asoslari		
Sintezlanishi		

O‘quvchilarning bilimlarni sintezlash o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:+

O‘quv maqsadlari ichida bilimlarni sintezlash muhim o‘rin tutadi. Sintezlash o‘quv maqsadining asosiy mohiyati o‘quvchilar tomonidan kurs yoki mavzu mazmunidagi asosiy g‘oyalarni mujassamlashtirish, jarayon va obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish, yoki umumlashtirish, rekonstruksiya qilish sanaladi.

5. 1. DNK va RNK modelini chizing. Modelda nukleotidlarni to‘rt xil rangda ifoda eting. Fosfodiefir, vodorod bog‘larini ko‘rsating.

5. 2. Qo‘shimcha manbalardan foydalanib almashinmaydigan aminokislotalarga ega mahsulotlar jadvalini to‘ldiring.

Valin	
Izoleysin	
Leysin	
Lizin	
Metionin	

O‘quvchilarning xulosa yasashga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.

O‘quv maqsadlari ichida xulosa yasash yakunlovchi va tizim hosil qilish vazifasi-

ni bajaradi. Xulosa yasash o‘quv maqsadining asosiy mohiyati talabalar tomonidan o‘rganilgan kurs yoki mavzu yuzasidan xulosa yasash sanaladi. Bu jarayonda o‘quvchilar tomonidan ta’lim mazmunidagi ma’lumotlarga baho berishi, tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini qo‘llab fikrga qarshi fikr bildirishi, qo‘llab-quvvatlashi yoki inkor etishi talab etiladi.

1. O‘simlik hujayralarida kraxmal va hayvonlar hujayralarida glikogen zaxira funksiyasini bajaradi. Kraxmalning asosiy komponenti shoxlangan polisaxarid amilopektindir. Glikogen amilopektinga o‘xshaydi, lekin molekulyar og‘irligi past va shoxlangan strukturaga ega. Glikogenning bu xususiyatlarini biologik ahamiyati nuqtayi nazaridan baholang.

2. Tadqiqotchida bir xil uzunlikdagi uchta DNK molekulasi mavjud. Ma’lumki, birinchi namunadagi timin nukleotidlari (T) miqdori nukleotidlarning umumiy sonining 20 foiz ini, ikkinchisida 36 foiz, uchinchisida 8 foiz ini tashkil qiladi. Tadqiqotchi DNK namunalarini qizdira boshladi, haroratni asta-sekin oshirdi. Bu holda komplementar zanjirlar bir-biridan ajrala boshladi. Bu jarayon DNKning erishi deb ataladi. Dastlab qaysi namuna va eng oxirida qaysi namuna eriydi? Buning sababi nimada?

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etishda B.Blum taksonomiyasi asosda yondashuv ularning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan ekanligi asoslandi. Blum taksonomiyasi asosida o‘quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillar mustaqil ta’lim olish jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003. - 174 b.

2. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati // Maktab va hayot. –T;, 2004. -№ 1. – B. 18-20.

3. Tolipov O‘.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o‘qitish vositalari: // Xalq ta’limi. – T., 2000. №1.

4. Kuysinov O.A. Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. R.251-257.

5. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017 y.

6. Tolipova J., G‘ofurov A., Umaralieva M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. “Biologiya”. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Sharq, 2017 y.

7. Rakhmatullayeva Anor Kairullayevna, R. A. (2021). Modern pedagogical technologies used to identify Gifted students in biology teaching. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), 2(10), 211-214.

8. Gavhar Haydaraliyevna Qo‘ysinova //O‘quvchilar mustaqil ta’limni blum taksonomiyasi asosida tashkil etish// “Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta’ lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr, 720- 724 b.

Mirolim SHODMONQULOV,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Axborot texnologiyalari ” kafedrasi dotsenti, PhD

ARXITEKTURA VA QURILISHDA RAQAMLI TA’LIM JARAYONINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta’lim jarayoniga o‘tish oliy ta’lim va ta’lim tizimidagi pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning kasbiy faoliyatini sezilarli darajada o‘zgartirishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida paydo bo‘lgan pedagogik texnologiyalar talabalarning faolligi va ularning kompetensiyalarini shakllantirish uchun yangi shart-sharoitlarni ta’minlanishi, bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish dolzarb masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli ta’lim, ta’lim tizimi, tronsformatsiya, didaktika, raqamli didaktika, axborot texnologiyalari.

В статье рассматривается, как переход к цифровому образовательному процессу существенно изменит профессиональную деятельность педагогов и обслуживающего персонала в системе высшего образования и образования.Освещаются также актуальные на сегодняшний день вопросы оцифровки системы образования, о том, как педагогические технологии, появившиеся в процессе оцифровки, обеспечивают новые условия для активности учащихся и формирования их компетенций.

Ключевые слова. Цифровое образование, образовательная система, трансформация, дидактика, цифровая дидактика, информационные технологии.

The article considers that the transition to the digital education process will significantly change the professional activities of educators and service personnel in the higher education and education system.Also, the pedagogical technologies that appeared in the process of digitization are covered by the activity of students and the provision of new conditions for the formation of their competencies, current issues of digitization of the educational system today.

Key words. Digital education, educational system, tronsformation, didactics, digital didactics, information technology.

Oliy ta’lim jarayonini raqamlashtirishning bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi professional ta’lim va ta’lim tizimini raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish bilan bog’liq bo‘lib, bu kabi shakllanishi davrining global masalasidir.

Bugun respublikamiz oliy ta’lim muassasalari va umuman ta’lim tizimini modernizatsiya qilish ishlari davom etayotgan bir paytda ta’lim tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Axborot-kommunikatsiya predmeti muhitining ishlashi quyidagi omillar bilan belgilanadi: foydalanuvchi (foydalanuvchilar)ning o‘zaro (ta’lim o‘zaro ta’siri doirasida) va o‘rganilayotgan obyektlarning ekran tasvirlari bilan axborot o‘zaro ta’sirini amalga oshirish, ta’sir qilish; ko‘rib chiqilayotgan jarayonlar yoki hodisalar, ushbu fan sohasining axborot ta’lim resursidan foydalanish asosida yuzaga keladigan va rivojlanadigan o‘quv syujetlari to‘g‘risida; muayyan fan sohasi qonuniyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan

o‘rnatilgan o‘quv texnologiyalarini joriy etish sharoitida ishlash qobiliyati.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish jarayonlarini rejalashtirish chog‘ida ta’limni raqamlashtirishning ikkita muhim tomonlarini inobotga olish zarur: (Oliy ta’lim va ta’lim tizimining raqamli ta’lim jarayonini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning majmuasi).

Birinchidan, raqamli ta’lim muhitini, raqamli o‘quv vositalari, onlayn kurslar, elektron ta’lim resurslari to‘plami sifatida shakllantirish.

Ikkinchidan, raqamli jamiyat sharoitida inson hayotiga va raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlanishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan o‘quv jarayonini chuqur modernizatsiya qilish.

Shunday qilib, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, bir tomondan, ta’lim jarayoni va uning elementlarining, ikkinchi tomondan raqamli texnologiyalar va o‘quv jarayonida ishlatiladigan vositalarning chuqur qarama-qarshi o‘zgarishini anglatadi.

Shuning uchun raqamli kompetesiyalarni rivojlantirish uchun nafaqat fanlar aro bog‘lanishlardan foydalanish, balki o‘rganilayotgan fanlarga individual interfaol metodlardan foydalangan holda zamonaviy dars olib borish metodlarini ham kiritish kerak. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, raqamli kompetensiya hayotning barcha sohalarida axborot jamiyati texnologiyalaridan ishonchli va tanqidiy foydalanishni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonini transformatsiyalashdan maqsad raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan va raqamli texnologiyalarning didaktik salohiyatidan maksimal darajada foydalanishni ta’minlaydigan egiluvchan va moslashuvchan ta’lim tizimini yaratishdir. Raqamli texnologiyalarni transformatsiyalashdan maqsad - ularni pedagogik muammolarni tez va samarali hal qilishga moslashtirish.

Ta’lim har doim insoniyat hayotining belgilovchi tamoyillaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi, tabiatan “abadiy muammolar” deb ataladigan narsalarni keltirib chiqaradi, ularning dolzarbligi vaqt o‘tishi bilan so‘nmaydi. Bundan tashqari, insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining har bir yangi bosqichi bizni ushbu sohada sodir bo‘layotgan jarayonlarga tubdan yangi asoslarda murojaatda bo‘lishga majbur qiladi.

“Raqamli” atamasi kelib chiqishiga ko‘ra lotin va ingliz tillariga taalluqli holda “digital“ so‘zidan olingan va “raqamlardagi ma’lumotlar, signal”, “qadam-baqadam” ma’nolarida ketma-ketlikni bildiruvchi sifat darajasini anglatadi. O‘tgan asr 90-yillarning o‘rtalarida o‘zbek muomala tiliga kirib kelgan ushbu so‘z, eng avvalo, “raqamli iqtisodiyot” so‘z birikmasi ko‘rinishida namoyon bo‘ldi va hozirda ham iqtisodiyot sohasini tark etmagan holda o‘z ma’no doirasini kengaytirib, jamlovchi ma’noviy bo‘yoqda boshqa jabhalarga kirib keldi va axborot texnologiyalari sohasining muhim atamalaridan biriga aylandi.

Ta’lim tizimining o‘zgarishi haqida gapirishdan oldin, ushbu transformatsiyani keltirib chiqargan omillar haqida gapirish kerak bo‘ladi. Birinchi omil – bu yana bir sanoat inqilobi va nafaqat yangi, balki butunlay boshqa iqtisodiy tartibga o‘tish. Tabiiyki, nafaqat bilim, balki ko‘nikmalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Va ikkinchi omil – bu maktab ta’limining ichki tarkibiy qismiga ta’sir ko‘rsatadigan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi.

Transformatsiya jamiyatning muhim tarkibiy qismlarini, ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini va sohalarini o‘zgartirishni anglatadi. Transformatsiya o‘zgarish vektorini nazarda tutmaydi: ular progressiv yoki regressiv bo‘lishi mumkin. Transformatsiyadagi asosiy narsa – bu ijtimoiy hayot shakllari va mazmuni, uning institutsional sohasi, me’yorlari, qadriyatlari, mentaliteti va jamiyatning boshqa ijtimoiy-madaniy tomonlarining o‘zgarishidir.

Ta’limini raqamlashtirishdan kutilayotgan ta’lim va ta’lim jihatidan muhim natijalar, raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini aniqlash va to‘liq foydalanish bilan bog‘liq. Bu

natijalarga quyidagilar kiradi:

– individual ta'lim traektoriyalarini qurish va talabalarning o‘quv yutuqlari, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini doimiy ravishda shaxsiy monitoring qilish asosida o‘quv jarayonini to‘liq shaxsiylashtirish;

– o‘quv faoliyatini tashkil etishning turli xil individual va jamoaviy shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

– har bir talabani dars davomida faol faoliyatga jalb qilish,

– sur'atini oshirish, o‘quv mashg'ulotlari vaqtidan oqilona foydalanishni ta'minlash;

– o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida, shu jumladan takroriy o‘quv muvaffaqiyat holatlarini yaratish orqali talabalarning turli guruhlarida barqaror o‘quv motivatsiyasini saqlab qolish;

– berilgan ta'lim natijalarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta'minlash – kasbiy malaka olish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlar, kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, vakolatlar;

– zarur kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini avtomatlashtirish va tezlashtirish;

– tanlangan kasbiy faoliyat turiga doimiy qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish;

– o‘quv faoliyatining loyihaviy xususiyatini ta'minlash, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni birlashtirish;

– guruh talabalarining turli xil faoliyatining bir vaqtning o‘zida bo‘lishini ta'minlash;

– nogironligi bo‘lgan shaxslarni pedagogik jihatdan samarali ijtimoiylashtirish, professional ta'lim va o‘qitish uchun yangi imkoniyatlar yaratish va mavjud imkoniyatlarni kengaytirish;

– talaba bilan tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish, o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida to‘g'ridan-to‘g'ri o‘quv natijalarini tez va obyektiv baholash;

– jamg'arib boriladigan baholash texnologiyalari asosida ta'lim natijalarini qayd etish va monitoring qilish (reyting);

– zamonaviy ish beruvchilarning markaziy talabi bo‘lgan oliy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, joylashtirish va o‘zlashtirish muddatlarini sezilarli darajada qisqartirish;

– sharoitlari qiyin bo‘lgan hududlarda yashovchi shaxslar uchun ta'lim dasturlari mavjudligini ta'minlash;

– o‘qituvchini odatdagi qo‘l mehnatlaridan ozod qilish, o‘qituvchining umumiy ish vaqtini tejash.

Ta'lim tizimining axborot ochiqligi va shaffofligini oshirish, ta'lim sohasidagi barcha tashqi hamkorlar uchun geribildirim mexanizmlari (Geribildirim mexanizmlari, bir tashkilotda bir katta yoki bir birlikda qabul qilingan harakat yoki ishlarni baholash va yaxshilash uchun o‘zaro aloqalarni o‘rganish uchun amalga oshirilgan tizim va usullardir. Bu tizim va usullar, maqsadlarga erishish, yuqori natijalar olish va ishonchlilarni o‘stirish maqsadida foydalaniladi. Bu tizimlar, birinchi navbatda, ish faoliyati natijalarini baholash, xodimlar va mijozlar bilan aloqani yaxshilash, xizmat sifatini oshirish va yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish uchun fikr va takliflarni to‘plash va baholashni o‘z ichiga oladi. Bu usullar o‘zaro aloqani yaxshilashda va ish faoliyatini yaxshi natijalarga olib kelishda yordam beradi.) – bu teskari aloqa zanjirida sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, u kichik buzilish ta'sirini kuchaytiradi va ishlab chiqish, ota-onalarni ta'lim jarayonida ishtirok etish uchun axborot vositalari bilan ta'minlaydi.

Raqamli o‘quv jarayonini qurish – bu pedagogika fanining yangi yo‘nalishi-raqamli didaktika asosida ilmiy asoslashni talab qiladigan qiyin vazifadir.

Raqamli didaktika – pedagogika sohasi, raqamli ta'lim muhitida o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha ilmiy intizom, raqamli didaktika an'anaviy didaktikaning asosiy tushunchalari va tamoyillarini o‘rganish fani sifatida doimiy ravishda ishlatib, ularni raqamli muhit sharoitlariga nisbatan to‘ldiradi va o‘zgartiradi. Raqamli didaktikani

ilmiy bilimlarning transfer-integrativ sohasi deb hisoblash mumkin. Raqamli didaktika muayyan ixtisoslashgan sohalar, fanlar, modulli kurslarni o‘zlashtirish jarayonida talaba va o‘qituvchining faoliyati va o‘zaro ta’sirini loyihalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi .

“Raqamli didaktika” atamasi shartli bo‘lib, so‘zma-so‘z tushunilmasligi kerak, chunki raqamli didaktikaning predmeti raqamli ta’lim vositalarining ishlashi emas, balki inson faoliyatidir (o‘qituvchi, talaba). Xuddi shu narsa “raqamli ta’lim jarayoni” atamasiga ham tegishlidir.

Ushbu konsepsiyaning predmeti raqamli didaktika yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan professional ta’lim va o‘qitishning raqamli didaktikasi hisoblanadi.

Yangi didaktika asosida oliy ta’lim va o‘qitishning raqamli o‘quv jarayonini qurish O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish bilan yuzaga kelgan vaziyatning muammoli xususiyatini yengishga imkon beradi, bunda raqamli texnologiyalar va vositalarning jadal rivojlanishi o‘quv jarayoni va o‘quv texnologiyalarini tashkil etishning an’anaviy (raqamli) shakllarini saqlab qolish bilan birlashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta’lim muhitiga mos bo‘lgan raqamlashtirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Neal L. The basics of e-learning an excerpt from handbook of human factors in web design / L. Neal, D. Miller // eLearn Magazine, 2005 [Электронный ресурс]: URL-http://www.elearnmag (дата обращения 07.05.2018).

2.Neal L. Learning From E-Learning // eLearn Magazine, 10/02/2001, URL-http://www.elearnmag (дата обращения 17.09.2017).

3.Ricardo Nemirovsky and Alvaro Galvis. Facilitating Grounded Online In-teractions in Video-Case-Based Teacher Professional Development//Journal of Science Education and Technology, Vol. 13, No. 1, March 2004. – pp. 67–79.

4.Robert I.V. Ta’limni axborotlashtirish nazariyasi va metodikasi (psixologik-pedagogik va texnologik jihatlari). M.: IIO RAO, 2008 yil.

5. Тоджибаева К. С. К. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27). – С. 14-16.

6.Karimov A.A. Raqamli trasformatsiya - ta’lim sifatining lokomotividir. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023. ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1. https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal.

Nurxon KARIMOVA
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o‘qituvchisi

TA’LIMDA RAQAMLI SINFLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli sinf ta’limini yanada samarali interaktiv metodlar bilan kengaytirish va strategiyalarning ahamiyatini o‘rganish haqida fikir yuritilgan. Shuningdek, muallif loyihalar ustida birgalikda ishlash, bilim va g‘oyalarni taqdim qiladi.

Tayanch so‘zlar. Raqamli sinflar, axborot, kommunikatsiya, pedagogik mahorat, interaktiv o‘quv.

В этой статье рассматривается расширение цифрового обучения в классе с помощью более эффективных интерактивных методов и изучение важности стратегий. Автор также предоставляет знания и идеи для совместной работы над проектами.

Ключевые слова. Цифровые классы, информация, коммуникации, педагогическое мастерство, интерактивное обучение.

This article focuses on expanding digital classroom education with more efficient interactive techniques and exploring the importance of strategies. The author also provides work together, knowledge and ideas on projects.

Key words. Digital classes,Information,Communication, pedagogical skills, interactive learning

Ta’limni raqamlashtirish ta’lim sohasiga raqamli texnologiyalarni keng qamrovli jalb qilinishidan iborat bo‘lib, Respublikamiz miqyosida barcha ta’lim muassasalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangandir. Qaysidir ta’lim muassasasida axborot tizimlari allaqachon jahon standartlari ta’limni darajasida texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan. Ammo bir qator ta’lim muassasalari hali bunday texnologiyalarga muhtojdirlar. Ta’limni raqamlashtirish deganda ushbu ta’lim muassasa asosida barcha sinflarni maxsus standartlar asosida jihozlashdan iboratdir.

Raqamli sinf, ta’limni yanada samarali, qulay va interaktiv qilishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi va talabalarga ta’lim jarayonini boyitish imkonini beradi. Raqamli sinf, an’anaviy o‘quv sinflarining zamonaviy texnologiya bilan boyitilgan versiyasi hisoblanadi. Bu turdagi sinflar o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini yanada interaktiv va samarali qilish uchun turli raqamli vositalar va dasturlardan foydalanadi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida katta o‘zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin, lekin bu o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun resurslar, tayyorgarlik va strategiyalar kerak. Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun ta’lim tizimining barcha qatlamidagi ishtirokchilar bilan hamkorlik qilish muhimdir. Raqamli sinflarni qo‘llashning ahamiyati va dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ta’lim sifatini oshirish: Raqamli sinflar interaktiv ta’lim metodlari va turli ta’lim resurslarini qo‘llash orqali o‘qitish va o‘rganish sifatini yaxshilaydi. Bu, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni yanada faol ishtirok etishga undaydi.

– individual o‘rganish imkoniyatlari: Raqamli sinflar har bir o‘quvchi uchun shaxsiylashtirilgan ta’lim yondashuvlarini taqdim etish imkonini beradi, bu esa har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyoj va qobiliyatlari hisobga olinishini ta’minlaydi.

– texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirish: Raqamli sinflar o‘quvchilarni kelajakda

zarur bo‘ladigan muhim texnologik ko‘nikmalarni egallashga tayyorlaydi, bu esa ularni ish bozorida raqobatbardosh qiladi.

Ta’limning globalizatsiyasi: Raqamli sinflar orqali o‘quvchilar dunyo bo‘ylab boshqa o‘quvchilar va mutaxassislar bilan aloqada bo‘lishi va turli madaniy va ilmiy nuqtayi nazarlarni o‘rganishi mumkin.

– ta’limning samarasini oshirish: Raqamli vositalar yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirishga qaratilgan darslarni rejalashtirishi va amalga oshirishi mumkin, bu esa ta’limning samarasini yaxshilaydi.

– zamonaviy ta’lim standartlariga moslashuv: Hozirgi zamon talablariga javob berish uchun ta’lim tizimlari raqamli texnologiyalarni joriy etishga intilmoqda, bu esa raqamli sinflarning dolzarbligini ta’kidlamoqda.

– ta’lim muassasalarida texnologik yangilanishlar: Ko‘plab ta’lim muassasalari texnologik yangilanishlarni joriy etishga intilmoqda, bu esa raqamli sinflarni qo‘llashni yanada dolzarb qilmoqda.

– ish bozori talablari: Zamonaviy ish bozori texnologik ko‘nikmalarni talab qilmoqda, shu sababli raqamli sinflarni qo‘llash kelajakdagi ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini yaxshilaydi.

– ta’lim resurslariga kengroq kirish: Raqamli sinflar ta’lim resurslariga global miqyosda kirish imkonini beradi, bu esa bilimlar almashinuvi va o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli sinf juda muhim, chunki u talabalarga o‘z qurilmalari va internetdan unumli foydalanish uchun nou-xaularni taqdim etadi.

– talabalarga aks holda mavjud bo‘lmagan boy ma’lumot va resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi.

– o‘qituvchilarga o‘z o‘quvchilari bilan ma’lumot va resurslarni osongina almashish va boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi.

– talabalarga hamkorlikda o‘qishda ishtirok etish, guruh loyihalari ustida birgalikda ishlash, bilim va g‘oyalar bilan bo‘lishish imkonini beradi.

– o‘quv muhitini yanada qiziqarli va dinamik qiladi.

Barqaror rivojlanish ta’limga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy farovonlikni o‘z ichiga oladi. Axborot texnologiyalari umumiy bilimlarni tarqatish uchun paydo bo‘ldi va ta’lim islohotlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mobil qurilmalar, smartboards, MOOCs, planshetlar, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizuali-zatsiya va virtual laboratoriyalar kabi yangi texnologiyalar yordamida o‘qitish vositalarining joriy etilishi maktab va muassasalarda ta’limni o‘zgartirdi. Narsalar Interneti (IoT) yosh miyalarni tarbiyalashning eng tejamkor usullaridan biri ekanligi isbotlangan. Bu, shuningdek, har bir kishi uchun bir dunyo-sinf ta’lim tajribasini integratsiya uchun mustahkam mexanizmi hisoblanadi. Ta’lim texnologiyalari korxonalari doimiy ravishda yetarli ta’lim muassasalarini ololmaydigan shaxslar uchun ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish uchun yangi echimlarni yaratishga harakat qilmoqdalar. Ijtimoiy media o‘rganish vositasi sifatida uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Ko‘p sonli o‘qituvchilar va talabalar ijtimoiy tarmoqlardan umumiy elektron ta’lim tajribasining muhim elementi sifatida foydalanadilar.

Bugungi kunda bu muhim mavzular haqida ma’lumot almashish uchun juda muhim joy. Axborotni istalgan joyda, istalgan vaqtda etkazish qobiliyatidan tashqari ijtimoiy media saytlari ham ijtimoiy faoliyat va ehtimol, yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun tarmoq imkoniyatlarini ishlab chiqarishning ajoyib manbai hisoblanadi.

Raqamli sinflar talabalarga dars berish uchun elektron qurilmalar yoki ijtimoiy me-

dia, multimedia va mobil telefonlar kabi platformalar yordamida aniqlanadi. Ta'limdagi raqamli texnologiyalar bilan bugungi ta'lim manzarasi yaxshi yoki yaxshilanish uchun o'zgardi. Raqamli ta'lim – bu butun o'quv dasturini bajarish uchun texnologiyadan foydalanadigan va talabalarga tez va tez o'rganishga imkon beradigan o'quv strategiyasi. Raqamli sinf butunlay texnologiyadan foydalangan holda o'qitishga qaratilgan.

Raqamli sinf ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yanada samarali va qiziqarli qilishga qaratilgan. Bu, o'qituvchi va talabalar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Raqamli sinfning elementlari va tashkil etuvchilari turli komponentlardan iborat bo'lib, ularning har biri ta'lim jarayonini boyitish va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Quyida raqamli sinfning asosiy elementlari va tashkil etuvchilari haqida ma'lumot beriladi:

– interaktiv taxta yoki Smart Board. Dars materiallarini ko'rsatish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi interaktiv muloqotni rag'batlantirish va o'quv jarayonini yanada jonlantirish uchun ishlatiladi.

– shaxsiy elektron qurilmalar. Talabalar va o'qituvchilar uchun ta'minlanadigan noutbuklar, planshetlar yoki smartfonlar. Bu qurilmalar ta'lim materiallariga kirish va dars jarayonida ishtirok etish uchun zarur.

– yuklash stansiyalari va elektr ta'minoti. Talabalar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan qurilmalarni doimiy ish holatida ushlab turish.

– tezkor internet ulanishi: Raqamli resurslarga, onlayn kutubxonalarga va ta'lim portallariga ulanish imkonini beradi.

– raqamli o'quv resurslari. Elektron darsliklar, ta'lim portallari, onlayn ma'lumotlar bazalari va boshqa elektron o'quv materiallari.

– multimedia vositalari. Darslarni jonlantirish va tushunarli qilish uchun ishlatiladigan proyektorlar, videokameralar va boshqa multimedia qurilmalari.

– baholash va kuzatish tizimlari. Talabalar bilimini baholash va ularning o'qish jarayonini kuzatib borish uchun onlayn testlar va baholash vositalari.

– o'qituvchilar. Raqamli sinfni samarali boshqarish va ta'lim jarayonini yuqori sifatda olib borish uchun zarur bo'lgan pedagogik mahorat va texnologik bilimlarga ega bo'lishi kerak.

– talabalar. Raqamli sinfning faol ishtirokchilari sifatida, yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyor va ularni o'qish jarayonida qo'llay olishi zarur.

– texnik yordam. Raqamli sinfda foydalaniladigan texnologiyalar bilan bog'liq muammolarni hal qilish va texnik ko'mak ko'rsatish.

–Ta'lim materiallari yaratuvchilari. Sifatli va interaktiv o'quv materiallari, darsliklar va ta'lim resurslarini taqdim etuvchilar.

– ma'muriyat va reja tuzuvchilar. Raqamli sinfni loyihalash, uni moliyalashtirish va ta'minlash, shuningdek, ta'lim muassasasi doirasida uning integratsiyasini boshqarish.

Raqamli sinfning ushbu elementlari va tashkil etuvchilari o'qitish va o'rganish jarayonini maksimal darajada samarali va interaktiv qilish uchun birgalikda ishlashi kerak.

Raqamli sinflardan foydalanish metodologiyasi ta'lim jarayonini samarali va maqsadga muvofiq qilish uchun bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida raqamli sinflardan eng samarali foydalanish uchun ko'rib chiqiladigan asosiy metodologik yondashuvlar keltirilgan:

1. Maqsadlarni aniq belgilash. Ta'lim jarayonining maqsadlari va natijalari aniq belgilanishi kerak. Bu maqsadlar raqamli sinf formati va qo'llaniladigan texnologiyalarga mos kelishi lozim.

2. Raqamli resurslarni tanlash va tashkil etish. O‘qituvchilar ta’lim maqsadlariga mos keladigan raqamli darsliklar, multimedia kontenti, interaktiv dasturlar va boshqa o‘quv materiallarini tanlashlari va tashkil etishlari kerak. Bu resurslar talabalar bilimini oshirish va o‘qitish jarayonini boyitish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

3. O‘quv rejasini ishlab chiqish. O‘quv rejasi raqamli resurslar, dars ishlanmalar va o‘quv faoliyatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Bu rejada talabalar uchun aniq ko‘rsatmalar, dars jadvali va baholash mezonlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

4. O‘quv muhitini yaratish. Raqamli sinf muhiti qulay, interaktiv va talabalar hamkorligini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Bu, talabalar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantiradi va o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

5. Interaktiv metodlardan foydalanish. O‘qituvchilar darslarni interaktiv qilish uchun savollar, muhokamalar, guruh ishlari va o‘yin asosidagi faoliyatlar kabi usullardan foydalanishlari kerak. Bu talabalar qiziqishini oshiradi va ularni darsga faol qatnashishga undaydi.

6. Onlayn baholash va feedback. Raqamli sinflarda o‘quvchilarning taraqqiyotini kuzatib borish va ularga vaqtida qayta aloqa berish muhimdir. Online testlar, viktorinalar va dars vazifalari orqali talabalar bilimini baholash va ularning o‘rganish jarayonini yaxshilash uchun kerakli fikr-mulohazalarni taqdim etish kerak.

7. O‘qituvchi va talabalarning texnologik ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘qituvchilar va talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha treninglar va seminarlar tashkil etish kerak. Bu, raqamli sinf muhitida ishlash ko‘nikmalarini oshiradi.

8. Doimiy baholash va takomillashtirish. Raqamli sinflar samaradorligini muntazam ravishda baholash va zarur bo‘lganda o‘zgartirishlar kiritish kerak. Bu jarayon o‘qituvchilar va talabalardan olingan feedbackka asoslanishi kerak.

Raqamli sinflardan foydalanish metodologiyasi talabalarning turli ehtiyojlarini hisobga olishi, texnologiyadan samarali foydalanishni ta’minlashi va ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishi kerak.

Ta’limda raqamli sinflardan foydalanish bo‘yicha muhokama va natijalar turli kontekstlar va tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqiladi. Quyidagilar, ushbu muhokamalar va kuzatilgan natijalarning asosiy jihatlari hisoblanadi.

Texnologik ta’minot va tenglik: raqamli sinflardan foydalanishda eng muhim muhokamalardan biri texnologik resurslarga teng kirish masalasidir. Ayrim hududlar va o‘quvchilar bu resurslarga cheklangan kirishga ega, bu esa ta’limdagi tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

O‘qituvchilarning tayyorgarligi: o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qo‘llashga tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Ular raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga qanday qo‘shishni va talabalar bilan qanday samarali ishlashni bilishlari kerak.

O‘qitish metodologiyasi: an’anaviy o‘qitish metodologiyasidan raqamli metodologiyalarga o‘tish talab qilinadi. Bu, o‘quv dasturlarining qayta ko‘rib chiqilishini va yangi o‘qitish uslublarining joriy etilishini talab qiladi.

Talabalar motivatsiyasi va jalb qilinishi: Raqamli sinflar talabalar uchun yangi o‘rganish usullari va imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, talabalar o‘zlarini virtual muhitda qanday his qilishlari va bu muhitda qanchalik samarali o‘rganishlari muhokama qilinadi.

Ta’lim sifatining oshishi: ko‘p tadqiqotlar raqamli sinflar o‘quv materiallarining tushunarli va interaktiv taqdim etilishiga yordam berishi, shuningdek talabalar o‘rganish jarayonida ko‘proq jalb qilinishi natijasida ta’lim sifatini oshirishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

O‘rganishning shaxsiylashtirilishi: raqamli sinflar har bir talabaning individual ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan ta’lim yondashuvlarini ta’minlash imkoniyatiga ega.

O‘rganishning doimiyligi: raqamli sinflar o‘quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda ta’lim olish imkonini beradi, bu esa o‘rganish jarayonining doimiy va uzluksiz bo‘lishini ta’minlaydi.

Global hamkorlik: raqamli sinflar orqali o‘quvchilar dunyoning turli burchaklaridagi tengdoshlari va mutaxassislar bilan oson aloqa qilish va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Texnologik ko‘nikmalarning rivojlanishi: raqamli ta’lim, talabalar va o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshiradi, bu kelajakdagi ish imkoniyatlari uchun muhimdir.

Raqamli sinflardan foydalanishning muhokamasi va natijalari ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va talabalar uchun muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, bu o‘zgarishlar samarali amalga oshirilishi uchun tegishli strategiyalar, resurslar va qo‘llab-quvvatlash tizimlari zarur.

Bu bo‘limda maqolaning tugallangan xulosasi keltiriladi.

– virtual sinf o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida yuzma-yuz vaqtni ta’minlaydigan o‘qituvchilar tomonidan boshqariladi. Virtual sinfda o‘qituvchilar talabalarni ovoz berish va viktorina, raqamli doska, fayl almashish va boshqalar kabi turli xil vositalar orqali jalb qilishlari mumkin.

– o‘qituvchi virtual sinfning markazi bo‘lganligi sababli, atrof-muhit hali mustaqil yoki guruhlarda ishlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan yosh o‘quvchilar uchun, ayniqsa, qulaydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2. PF-6079-son farmoni. T.; 2020-yil 5 -oktabr.

3. The importance of digital classrooms in education - Search (bing.com)

4. P.L. Rogers. Barriers to adopting emerging technologies in education. Journal of educational computing research, 22 (4) (2000), pp. 455-472.

4. Haddad, W. D., & Draxler, A. (2002). The dynamics of technologies for education. Technologies for education potentials, parameters, and prospects, 1, 2-17.

5. C.I. Büyükbaykal. Communication technologies and education in the information age. Procedia-Social and Behavioral Sciences, 174 (2015), pp. 636-640.

Ammo faqat bolani har tomonlama o‘rganish bilan talabaning qobiliyatlari va imkoniyatlari haqida aniqroq ma’lumotlarni olish mumkin.

Voleybol jamoaviy o‘yinning murakkab turi bo‘lib, unda bolaning bo‘yi katta rol o‘ynaydi. O‘sishni bashorat qilish esa voleybol murabbiyi uchun muhim vazifadir.

Guruhlarni shakllantirish, sport maktabida voleybol bo‘yicha o‘quvchilarni guruhlarga to‘g‘ri tanlash yosh sportchilarni tayyorlashda muvaffaqiyat qozonishning hal qiluvchi shartidir.

Bolaning jinsi, yoshi, individual psixologik, jismoniy va boshqa xususiyatlarini hisobga olish voleybol murabbiylari va o‘qituvchilarining asosiy muammolari hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilish ijodiy, kasbiy va ilmiy tamoyillarni qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Voleybol bo‘yicha murabbiy-o‘qituvchi o‘quvchi shaxsining shaxsiy va fiziologik sifatlarini rivojlantirish uchun ijodiy qobiliyatga, pedagogik iste’dodga, psixologik bilimga, yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak, ular yordamida o‘quvchining sport faoliyatida yuqori natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Борьба греко-римская: учеб. для учреждений физвоспитания /под редакцией А. Ю. Шулики [и др.]. Ростов на Дону: Феникс,2004 С.102–107

2. Булич Э. Г. Здоровье человека / Э. Г. Булич, И. В. Муравов. — К.: Олимп. литература, 2003. — 424 с.

3. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика: [учебник для вузов] / Л. Ф. Бурлачук. — Санкт-Петербург.: Питер, 2005. — 352 с.

4. Губа В. П. Спортивный отбор как учебная дисциплина / В. П. Губа // Теория и практика физ. культуры.— 2008.— № 2.— С. 62–64.

5. Горбунов Г. Д. Психопедагогика спорта / Г. Д. Горбунов. — [3-е изд., испр.]. — М.: Советский спорт, 2007. — 296 с. — С. 198

6. Богин, П. А. Проблемы проведения спортивного отбора в вольной и греко-римской борьбе / П. А. Богин, А. В. Кокурин. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 21 (311). — С. 233-236. — URL: https://moluch.ru/archive/311/70276/ (дата обращения: 12.03.2024).

Umidbek AXUNOV,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi dotsenti, PhD

OMMAVIY SPORT SAMARADORLIGINI TIZIMLI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYANING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tabiya va ommaviy sportga berilayotgan e’tibor va aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilishni tizimli yo‘lga qo‘yish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar. Sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va ommaviy sport, sport musobaqalari, iqtidorli sportchilar, jismoniy madaniyat, mashg‘ulot, o‘quv kunining rejimi.

В статье рассматривается физическая природа и внимание, уделяемое массовому спорту, и создание адекватных современным требованиям условий для регулярного занятия физической культурой и массовым спортом населения, особенно молодого поколения. Также нацелено системное внедрение широкой пропаганды здорового образа жизни среди населения, дальнейшее укрепление принципов здорового образа жизни в обществе.

Ключевые слова. Здоровый образ жизни, физкультура и массовый спорт, спортивные соревнования, одаренные спортсмены, физическая культура, тренировки, режим учебного дня.

The article reflects on the attention given to physical Tabia and mass sports and the creation of conditions in accordance with the requirements of the times for the regular participation of the population, especially the younger generation, in physical education and mass sports. It is also aimed at a systematic way of promoting a healthy lifestyle among the population, further strengthening the principles of a healthy lifestyle in society.

Key words. A healthy lifestyle, physical education and mass sports, sports competitions, talented athletes, Physical Culture, training, regime of the school day.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.06.2017-yildagi PQ-3031-son. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilishni tizimli yo‘lga qo‘yish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni zararli odatlardan asrash hamda har bir mahalla, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va boshqalarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatini samarali tashkil etish tizimini shakllantirish maqsadida aholining yoshiga qarab, umumiy jismoniy tayyorgarligini belgilovchi sport me’yorlarini o‘z ichiga olgan “Alpomish” va “Barchinoy” testlarining aholining keng qatlamlari o‘rtasida musobaqa tarzida doimiy ravishda o‘tkazilishini tashkil qilish hamda g‘olib va sovrindorlarning III,

II, va I darajali ko‘krak nishonlari bilan rag‘batlantirilish belgilab berildi.

Yoqaridagilardan kelib chiqib jismoniy tarbiya bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni ommalashtirish maqsadga muvofiqdir, Ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari jismoniy tarbiya mashg‘ulotining tashkiliy tizimi bo‘lib, darsdan tashqari vaqtlarda muassasada o‘tkaziladi. Darsdan tashqari ishlarning mazmuni, vazifasi tashqil qilinishi yosh avlodni jismoniy tarbiyasini maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Jismoniy madaniyat bo‘yicha mashg‘ulot shakllari. Jismoniy mashqlar mashg‘ulotlarning shakllari nihoyatda xilma xil bo‘lib, jismoniy madaniyatning har xil vazifalarini yechishda umumlashtirib pedagogiklar jamoasi, ota-onalar va darsdan tashqari muassasalarning rahbarlarning hamkorligida ish olib borishlariga bog‘liqdir, faqat shundagina o‘quvchilar pedagogik samarani turlari va uni ta’minlaydigan jismoniy mashqlarni tashkil qilishning barcha tizimiga tushadi. Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil qilish barcha jismoniy tarbiya jarayonini samarasini oshirishga yordam beradi va ishga mustaqil harakat qilish imkonini, ijodiy izlanish va qo‘pol xatolardan qutilish choralarini izlash imkonini beradi. Bu tizimning barcha bo‘limlari yagona maqsad yo‘nalishiga ega bo‘lib, o‘ziga xos vazifalar va tashkil qilish asoslari bilan xarakterlanadi. O‘quv muassasalarda o‘quvchilarni jismoniy tarbiya tizimini tashkil qiladigan asosiy bo‘limlar quyidagilardan iborat:

– mashg‘ulotlarning dars-dars tizimi: Barcha darslarda jismoniy madaniyat darsi turida haftada 2 soat o‘tkaziladi;

– o‘quv kunining rejimida jismoniy madaniyat sog‘lomlashtirish tadbirlari: bularga o‘quv mashg‘ulotiga qadar gimnastika, jismoniy madaniyat daqiqalari, katta tanaffuslardagi jismoniy mashqlar, kuni uzaytirilgan guruhlarga jismoniy mashqlar mashg‘uloti.

– darsdan tashqari ishlar: jismoniy madaniyat to‘garaklari, sport turlari bo‘yicha sektssyalar, umumiy jismoniy tayyorgarlik, “Alpomish” va “Barchinoy” guruhlari sport musobaqalari, ommaviy o‘yinlar, turistik paradlar, sayrlar va boshqalardan iboratdir.

Jismoniy madaniyat tizimini tashqil qilish shakllarini darsdan tashqari olib boriladigan jismoniy madaniyat ishlari bilan to‘ldiradilar.

Oilada olib boriladigan sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat ishlari: ertalabki badan tarbiyasi, dars tayyorlash paytida jismoniy madaniyat daqiqalari, chiqish tadbirlari, mustaqil o‘yinlar va boshqalar. Bu jismoniy madaniyat mashg‘ulotlari shakllarining barchasi umumiy qonuniyatlarga egadir. Bu qonuniyatlarni bilish har xil holat, vaziyatlarda jismoniy mashqlarni shug‘illantiruvchilarni organizmiga har tomonlama ta’sir etadigan darajada amalga oshirishiga imkon beradi. Berilgan ayrim vazifalardan kelib chiqqan holda jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarining barcha shakllari majburiy va ko‘ngillilikka ajratiladi. Ular ikkiga bo‘linadi.

– birinchi shakliga dars-dars shaklida o‘tiladigan jismoniy madaniyat darslar kiradi;

– ikkinchisi darsdan tashqari ishlar.

Jismoniy madaniyat bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni tashqil qilish shakllari: darsdan tashqari ishlarni tashqil qilishning jismoniy sog‘lomlashtirish ishlari, guruh mashg‘ulotlari, (dars shaklida tashqil qilish) qat’iy belgilangan jadval asosida shug‘illanuvchini doimiy tarkibi bilan jismoniy madaniyat to‘garaklari, umumiy jismoniy tayyorgarlik shubalari, sport turlari bo‘yicha shubalar, “Alpomish” va “Barchinoy” salomatlik guruhlari kiradi.

Ularni tashqil qilish epizodik xarakterda bo‘lib, shug‘ullanuvchilarni o‘zgaruvchan tarkibidan muassasa, dars o‘quvchilarni barchasini qamrab olgan holda o‘tkaziladi. Ularning bosh xususiyati o‘yin qoidalarini oddiyligi va qatnashish shart-sharoiti hisoblanadi va barcha o‘quvchilar bajara bilish imkoniyatlariga egadirlar. Guruh mashg‘ulotlarini tashkil qilish turlari: o‘quvchilarni yoshi jismoniy tayyorgarligi sathi har xil bo‘lganligi

sabablaridan tashqari mashg‘ulotlarni tashqil qilish bir nechta turlarni tashkil qilishni talab qiladi.

Jismoniy madaniyat to‘garaklari kichik dars o‘quvchilari bilan guruh mashg‘ulotlarni o‘tkazishning asosiy shakli. Sharoitlardan va istovchilar sonidan kelib chiqqan holda to‘garaklarni tashkil qilishning birdan-bir varianti tanlab olinadi. Bular har bir dars, boshlang‘ich darslarning barcha o‘quvchilari, o‘quv materiallarini o‘zlashtira olmagan o‘quvchilar va alohida qizlar va bolalar uchun tashqil qilinadi. To‘garaklar bo‘yicha o‘quv guruhlari 20-30 talabadan tashkil qilinadi va mashg‘ulotlar haftada 2-3 marta 1,5 soat davamida o‘tkaziladi.

Ertalabki gimnastika insonlarning kundalik rejimining majburiy qismidir. Uning o‘tkazib turilishi o‘quvchilarda asta-sekin yoqimli mushak sezgisi, ijobiy emotsiyalar xushchaqchaqlik kayfiyatini uyg‘otadigan jismoniy mashqlarga nisbatan ko‘nikishni tarbiyalaydi. Ertalabki gimnastikaning ahamiyati rang-barang: u organizmning hayot faoliyatini yaxshilaydi, uyqudan so‘ng nerv tizimini harakatga keltiradi, bedorlikka o‘tish vaqtini qisqartiradi, ijobiy hislar uyg‘otadi. Uyqudan so‘ng maxsus tanlangan jismoniy mashqlardan iborat ertalabki gimnastika talabaningi butun organizmini asta-sekin faol holatiga jalb etadi.

Jismoniy mashqlarni bajarish bosh miya tizimi faolligini kuchaytiradi. Ko‘rish, eshitish, tayanch harakat, teri kabi barcha retseptorlardan bosh miyaga keladigan butun impulslar oqimi nerv tizimi ish qobiliyatini va organizmining hayot faoliyatini tiklaydi. Ertalabki gimnastika to‘g‘ri qad-qomatni tarbiyalashga ta’sir etib, nafas olishni chuqurlashtiradi, qon aylanishini kuchaytiradi, modda almashishiga yordam beradi. Ertalabki gimnastika insonlarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faollikni oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi. O‘quvchilarning jismoniy mashqlarni ochiq havoda yoki darcha derazalari ochiq xonada suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush) bilan o‘tkazishlari juda sog`lomlashtiruvchi samara beradi, nerv tizimining umumiy holati va funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi, uni mustahkamlaydi va chiniqtiradi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining muqobillashuviga yordam beradi, almashinish reaksiyalarini yaxshilaydi, shamollash va yuqumli kasalliklarga nisbatan immunitet hosil qiladi, o‘quvchilarda tetiklik, yengillik, quvonch sezgilarini uyg‘otadi. Organizmini chiniqtirish maqsadida suv harorati asta-sekin pasaytirib boriladi, bunda shifokor ko‘rsatmasi asosida har bir shug‘ullanuvchi yakka yondashishga rioya qilinadi. Ertalabki gimnastikani o‘tkazish uchun avval o‘rganilgan mashqlar ichidan tanlanib, mashqlar majmuasi tuziladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.06.2017-yildagi PQ-3031-son.

2. O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.01.2019-yildagi 65-son.

Umida KARIMOVA,
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

PEDAGOGLARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagoglarning kasbiy hamda metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari haqida bayon etilgan. Shuningdek ularni kasbiy faoliyat yuritishlari uchun malaka oshirish tizimini takomillashtirish kabi vazifalar haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar. Kasbiy kompetentlik, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, mustaqil malaka oshirish.

В данной статье изложены вопросы развития профессиональной и методической подготовки педагогов. Также обсуждаются такие задачи, как совершенствование системы повышения квалификации для их профессиональной деятельности.

Ключевые слова. профессиональная компетенция, методическая подготовка учителей, самостоятельное повышение квалификации.

This article describes the issues of development of professional and methodological training of educators. It is also thought about such tasks as improving the system of professional development so that they can be professionally operated.

Key words. Professional competence, methodic preparedness of the teachers, self-refreshing.

Ayni paytda pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni innovatsion faoliyat yuritishlari uchun zamin bo'la oladigan malaka oshirish tizimi o'quv-metodik ta'minotining takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalardan hisoblanadi. Buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat. Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasidir. Kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi asosiy mezonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Pedagogning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik, maxsus-metodik (kasbiy-metodik) va innovatsion tayyorgarlikni tashkil etadi. Biz quyida kasbiy tayyorgarlikning maxsus-metodik tayyorgarlik komponenti va uni takomillashtirishning o'quv-metodik ta'minoti yuzasidan mulohaza yuritamiz.

O'quv-metodik ta'minot – bu barcha o'quv-metodik hujjatlarning jamlanmasi, kelgusida amaliyotda qo'llaniladigan ta'lim jarayonining tizimli loyihasi. O'quv-metodik

ta’minot o‘quv jarayonida turli-tuman bo‘lishi, davr talabiga ko‘ra uning komponentlari o‘zgarib, yangilanib turishi ta’lim dasturlarining o‘zgaruvchanligiga moslashishi, tinglovchi (pedagog)larning amaliyotda tatbiq eta olishlariga imkon beradigan didaktik yondashuv ham talab qilinadi.

Pedagoglar malakasini oshirish tizimining takomillashtirilgan o‘quv-metodik ta’minoti pedagogik jarayonning barcha subyektlarining shaxsiy rivojlanishini ta’minlash uchun imkoniyat yaratishi hamda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Shuningdek, pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishini ta’minlash, o‘qituvchi shaxsi va ularning faoliyatiga qo‘yilayotgan ijtimoiy talablar – ta’limni modernizatsiya qilish, yangilash, o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish va o‘tkazish bilan bog‘liq kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga muvofiq, pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir o‘quv-metodik ta’minot komponentlari:

tinglovchi (pedagog)larning yangi bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishi, mustaqil o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilishi;

– tinglovchi (pedagog)larning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, kasbiy mahorat, bilim va ko‘nikmalarini oshirish, chuqurlashtirish hamda yangilashga xizmat qilishi;

– tinglovchi (pedagog)larning tajribalari oshishi, nazariy va amaliy mazmunning o‘zaro maqbul va bog‘liq holda taqsimlanishi;

– tinglovchi (pedagog)larning ilmiy-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini ilmiy va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish hamda olib borishga qaratilishi lozim.

Bizning fikrimizcha, pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini aks ettiruvchi o‘quv-metodik ta’minotda quyidagi komponentlar o‘z aksini topishi lozim: huquqiy va o‘quv-me’yoriy komponent (pedagogik faoliyatni tashkil etishning muvofiqlashtiruvchi, tizimlovchi huquqiy asoslari), motivatsion-maqsadli o‘quv-metodik komponent (rivojlantiruvchi va mustaqil o‘rganishga undovchi intellektual resurslar), ilmiy-axborot ta’minoti komponenti (ilmiy-tadqiqotchilikni shakllantirish manbalari), jarayonli-texnologik komponent (ilmiy-ijodiy va innovatsion kompetentlikni shakllantirishga doir innovatsiyalar), nazorat qilish va kompetentlik darajasini aniqlash komponenti (baholash mezoni va vositalari), mustaqil va uzluksiz malaka oshirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish komponenti (elektron axborot ta’lim muhiti).

Pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablardan kelib chiqib, takomillashgan o‘quv-metodik ta’minot asosida ularning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonining samaradorligi quyidagi yo‘nalishlarga asoslanishi aniqlandi:

– malaka oshirish tizimida ma’ruza darslari va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda tinglovchilarning diqqatini jalb qiladigan, ularda motivatsiyalarni shakllantira oladigan zamonaviy samarali usullardan foydalanish;

– nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llab ko‘rishlari uchun imkoniyat yaratish;

– pedagoglarning o‘zini-o‘zi boshqarish va mustaqil bilim olish yo‘nalishidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

– pedagoglarning malaka oshirish kursidan keyingi faoliyatini diagnostika qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda uning monitoringini uzluksiz olib borish.

Pedagogni o‘z-o‘zini uzluksiz kasbiy-metodik rivojlantirishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi va bu orqali pedagog o‘z kasbiy o‘sishining maqsadi, shakllari, vositalari hamda individual trayektoriyasini mustaqil belgilaydi. T.T.Shaymardonovning nuqtayi

nazariga ko‘ra, pedagogning kasbiy kompetentligi darajasi ta’lim samaradorligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini dinamik o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishi, innovatsion faoliyat va, nihoyat, o‘quv jarayonini sifatini ta’minlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir o‘quv-metodik ta’minotni amaliyotga joriy etish natijasida ularda quyidagi kasbiy ko‘nikmalar hosil bo‘ladi:

– o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitish jarayonini kompetensiyaviy yondashuvning konseptual asoslariga ko‘ra tashkil etish;

– axborotlarni tanlash, konstruksiyalash, o‘quv jarayonida foydalanish yo‘llarini belgilash;

– texnik va innovatsion texnologiyalarning konseptual asoslarini e’tiborga olgan holda o‘qitish jarayonini maqsadga muvofiq loyihalash;

– ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda o‘qitishning barcha shakllarini maqsadga muvofiq tashkil etish;

– mutaxassisligi bo‘yicha axborot to‘plash, ularni jamlash, qayta ishlash asosida ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar va Internet materiallaridan uyg‘un foydalanish;

– kompetensiyaviy yondashuvning konseptual asoslari e’tiborga olingan holda texnik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadida o‘quv materiallariga ishlov berish;

– kelajakni ko‘ra olish va rivojlantirish imkoniyatlarini oldindan aniqlay olish mahoratiga ega bo‘lish;

– ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikka kirishish, subyekt-subyekt munosabatlarini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, har bir pedagog kasb faoliyatida kerakli axborotlarni o‘zi izlab topishi, ularning orasidan eng muhimini tanlashi, o‘quv jarayonini har bir o‘quvchi uning faol qatnashchisiga aylanadigan tarzda modellashtirishi va amalga oshirishi, o‘quv faoliyatini o‘quvchilar o‘zlashtira oladigan darajada tashkil etishi zarur. Bu kabi ko‘nikmalar pedagogning kasbiy-metodik tayyorgarligining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: ped.fan.nom. –T.; 2011. 138 b.

2. Raxmonqulova N va b. Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash. Metodik qo‘llanma. –T .: Lesson-press, 2011. 160 b.

3. Toshpo‘latova M.I. B’olajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: ped.fan.bo‘yicha fals.dok. –T; 2017.148 b.

4. Shaymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning metodik tizimi: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) … diss. –T; 2017. 148 b.

5. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) …diss. – T.; 2019. – 162 b.

Lola AHMEDOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI KASB DUNYOSIGA OLIB KIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizmining poydevori maktabgacha ta'lim ekanligi, shuningdek, bola tasavvurini, kengaytirish, hurmat, kasb-hunarga qiziqishini shakllantirish va tushunchalarini boyitish orzusidagi kasbni tanlashi uchun maktabgacha ta'lim asos bo'lib xizmat qilinishi aytib o'tilgan.

Tayanch so'zlar. Maktabgacha ta'lim, kasb, kasblar olami, bola, o'quv qurollari, oshpaz, gulchi, nazoratchi, sayr, kitob, kutubxonachi, sport, guruh, tozalik, zoorahbar,shifokor, musiqa, ma'sulyat, ta'lim tizimi.

В статье показано,что основой системы образования является дошкольное образование, а также воображение ребенка.воспитание в дошкольном учреждении служит основой для выбора профессии мечты по расширению,уважению,формированию интереса к профессии и обогащению ее понимания.

Ключевые слова. Дошкольное образование, профессия, мир профессий, ребенок, школьные принадлежности, повар, флорист, супервайзер, прогулка, книга, библиотекарь, спорт, группа, чистота,зоруководитель, врач, музыка, ответственность, система образования.

The article says that the world is always developing, and education is its heart. The higher the education in this developing universe, the more a person finds his place in life as a person. Every teacher is responsible for this. For this reason, the role of preschool education as the foundation of our education system in this regard is invaluable. Preschool education serves as a basis for expanding a child's imagination, forming his respect for adult work, interest in the world of professions and enriching his ideas, as well as for choosing a profession of his first dream.

Key words. Preschool education, profession, world of professions, child, school supplies, cook, florist, supervisor, walk, book, librarian, sports, group, cleanliness, zookeeper, doctor, music, responsibility, education system.

Rivojlanib borayotgan bugungi asrda hayot zamon bilan hamnafas bo'lishni talab etmoqda. Globallashuv jarayonida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish, hayot yo'lini tanlash bevosita insonning kasbi, faoliyat turi bilan chambarchas bog'lanib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu sabab inson kasbni nafaqat ma'lum bir yoshga yetganda emas, balki bolalikdanoq shunga tayyorlanib, yo'naltirib borish bizning vazifamiz desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun biz ta'lim tizimimizning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni kasbga, mehnatga yo'naltirib borishimiz samarali natija beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim tizimiga qamrab olish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, intellektual, jismoniy tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini

ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash” ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb-hanarga qiziqtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirildi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mavjud bo‘lgan rivojlantiruvchi markazlar kun tartibidan muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda bola uchun zarur bo‘lgan asosiy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bola uchun eng asosiy bilish uchun o‘yin orqali amalga oshirish va bilishdir. Lekin belgilangan kun tartibidan tashqari bola kunning butun qismi davomida o‘zi bevosita ishtirok etishi orqali o‘rganishi yanada samarali natija beradi. Bunda kasbga yo‘naltirishning ilk belgilari bo‘lgan ma’lum sohaga javobgarlik va mas’ulyat hissini tarbiyalash uchun avvvalo unga ma’lum bir vazifani biriktirish lozim. Qiziqishlarini hisobga olgan holda mehnatga bo‘lgan ehtijoni qoplashda bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga kirib kelishi bilanoq ma’lum faoliyatga jalb qilinishi unda kattalar mehnatiga nisbatan hurmat va kelajada o‘z ishiga ma’sulyat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllanishi uchun yordam beradi. Buning uchun tarbiyachi bolaning qiziqishi va xohishidan kelib chiqqan holda yengil kasblar ro‘yxatini shakllantirib oladi. Deyarli har bir guruh uchun kerak bo‘ladigan “kasblar”.

O‘quv qurollari uchun javobgar shaxs. Kitob, daftar, rangli qalamlar, rangli qog‘ozlar, qaychi, yelim va boshqa o‘quv mashg‘uloti uchun zarur o‘quv qurollarini tarqatishda va yig‘ib olishda tarbiyachiga yordam beruvchi.

Gulchi – guruh xonasidagi gullarga qarash uchun javob beruvchi, gulga suv quyishga, to‘kilgan barglarini yig‘ib olish va changlarini artib, gullarga g‘amxo‘rlik qilishga tarbiyachiga yordam beradi.

Raqs ustasi – kun tartibidagi musiqa mashg‘ulotlari yoki bayram tadbirlari uchun sahnalashtiriladigan rasqlarni tayyorlashda yordam beruvchi, bunda raqsga nisbatan qobilyatli bola tanlab olinib, safning old qatoriga qo‘yiladi va boshqa bolalarga ham jarayon davomida harakatlarini to‘g‘irlash uchun yordam beradi.

Tushlik yordamchisi – tushlik paytida dasturxon tuzashga, idishlar, qoshiq, piyola, kosa va nonni dasturxonga tortish uchun tarbiyachiga yordam beradi.

Sayr nazoratchisi – kun tartibida sayrga chiqqanda bolalarni kuzatib turish, ularning maydonchada bo‘lish va o‘yinda tartibsizlik bo‘lmasligi uchun tarbiyachiga yordam beradi.

Saf sanoqchisi – ma’lum joyga borishda(faollar zali, bayram tadbiri o‘tkaziladiga xonaga, sayrga borishda) bolalarni sanab chiqish va safning oxirida turib ularni kuzatib borish bilan tarbiyachiga yordam berish.

Kutubxonachi – guruhdagi kitoblarni nazorat qilib, ularni o‘qishni istagan bolaga topishga, o‘rni va tartibini buzmasdan, toza va avaylab ishlatishlari uchun tarbiyachiga yordam beruvchi.

Sport mashg‘uloti ustasi – kun tartibidagi badantarbiya yoki sport mashg‘ulotlarida bolalarning harakatlarini kuzatib, mashqlarni to‘g‘ri bajarilishi uchun tarbiyachiga yordam beruvchi.

O‘yinchoqlar nazoratchisi – guruhdagi o‘yinchoqlarni o‘ynashdan oldin ularni tarqatish va o‘yin tugaganidan so‘ng ularni tartiblab o‘z o‘rniga qo‘yilishini nazorat qilish uchun tarbiyachiga yordam beruvchi.

Zoorahbar – guruhdagi (agar mavjud bo‘lsa) qushlar va baliqlarni parvarishlash, ularning ovqatlanishi va tozaligini nazorat qilishda tarbiyachiga yordam beruvchi.

Tozalik nazoratchisi – bolalar ma’lum mashg‘ulotdan so‘ng (sayrdan qaytish, ovqatlanishdan oldin va keyin, bo‘yoqlar yoki plastilin bilan ishlagandan so‘ng) qo‘llarini yuvishi va kiyimlarini tozaligini nazorat qilishi uchun tarbiyachiga yordam beruvchi.

Yuqorida keltirilgan taxminiy kasblar ro‘yxatidan tashqari har bir tarbiyachi o‘z guruhining imkoniyati va tarbiyalanuvchilar qiziqishidan kelib chiqqan holda kasblar

sonini yanada takomillashtirishi mumkin. Endi e'tiborimizni ushbu yangiligimizning ijobiy tomonlariga qaratadigan bo'lsak. Tarbiyalanuvchilar o'zlariga biriktirilgan ma'lum vazifadan kelib chiqib, guruhda ham mas'ulyat, bilan harakatlanadilar. Guruhdagi boshqa bolalar ham unga yordam berishlari esa to'g'ridan to'g'ri jamoaviylikning shakllanishiga yordam beradi. Berilgan "lavozim"ga doimiy egalik bo'lmaydi, aksincha tarbiyachi ularni ma'lum vaqtga o'sha kasb uchun javobgar qilib belgilaydi. Shu tariqa guruhdagi har bir tarbiyalanuvchi bu vazifalardan birini navbati bilan o'z zimmasiga oladi. Qiziqishi shu sohaga yuqori bo'lgan bolajon esa uni hammadan yaxshiroq uddalashga harakat qiladi, guruh orasida ham endi kasblar haqidagi tushunchalar amaliy kuchga kirib boraveradi. Bu bilan tarbiyalanuvchilar kattalarga va ularning mehnatiga hurmat bilan qarashni o'rganadilar, gulchilik qilganda nafaqat o'simliklar olami bilan tanishish, balki endi o'sha gullarni parvarish qilish orqali bolada psixologik tinchlanishni ham kuzatibgina qolmay, tarbiyalanuvchilar o'simliklarni asrab avaylashni o'rganadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Shu sababdan ham yuqorida keltirilgan amaliy mashg'ulotimiz tarbiyalanuvchilarda kasblar va uning ahamiyatini tushunish, shu bilan birga mehnatga nisbatan hurmat va qiziqish paydo qilish uchun yordam beradi. Ushbu taxminiy kasblar ro'yxatini har bir tarbiyachi o'z guruhi imkoniyatidan kelib chiqib boyitishi, shu bilan bir qatorda undan kun tartibida ham foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312, 2019 y.

2. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi //Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – T;, 2018.

3. Mavlonova R.A "Mehnat ta'lim metodikasi" O'qituvchi – T., 2000.

4. "Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kasblar haqida suhbatlar" Potapova T.V – M.: Sfera, 2005.

5. "Bolalar bog'chasida mehnat ta'limi. 3-7 yoshli bolalar bilan ishlash tizimi" Kutsakova L.V – M. Mozaika sintez. 2012.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Metodik qo'llanma. (birinchi nashr). Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Tashmuxamedova F.B., Mikailova U.T., Rustamova M.E., UNICEF. Toshkent, 2020.

7. "Kasblar. Nima ular?" . O'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun kitob. Shoryigina T.A. – M. Gnome,2013.

8. "Maktabgacha ta'lim(Xorijiy mamlakatlar tajribasi)" Abidov B https:CYBERLENINKA.ru

9. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish" . Kondroshov V.P. O'quv-uslubiy qo'llanma. Nikolayev – 2004.

Naim TASHBAYEV,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim sifati monitoringi samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta’lim tizimini takomillashtirish haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishni optimallashtirish, pedagog kadrlar bilan uslubiy ishlar samaradorligini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalar hamda ularning ota-onalarining imkoniyatlarini batafsil o‘rganish kabi ilmiy nazariy fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. Monitoring, tahlil, pedagogik tashxis, pedagogik monitoring, ta’lim sifati, maktabgacha ta’lim, tashkilotlar, MTT.

В статье представлена информация о разработке критериев оценки образовательной деятельности и совершенствовании системы образования в целях повышения эффективности мониторинга качества образования дошкольных образовательных организаций. Сформулированы такие научные теоретические положения, как оптимизация управления дошкольными образовательными организациями, повышение эффективности методической работы с педагогическими кадрами, детальное изучение возможностей дошкольников и их родителей.

Ключевые слова. Мониторинг, анализ, педагогическая диагностика, педагогический мониторинг, качество образования, дошкольное образование, организации, МТТ.

The article provides information on the development of criteria for assessing educational activities and improving the educational system in order to increase the effectiveness of monitoring the quality of education of preschool educational organizations. Scientific theoretical points are described, such as optimizing the management of preschool educational organizations, improving the effectiveness of methodological work with pedagogical personnel, and a detailed study of the capabilities of preschool children and their parents.

Key words. Monitoring, analysis, pedagogical diagnosis, pedagogical monitoring, quality of education, preschool education, organizations, MTT.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini (MTT) boshqarishni optimallashtirish uchun pedagog kadrlar bilan uslubiy ishlar samaradorligini oshirish zarur. Ushbu turdagi ish tashxisga asoslangan bo‘lsa, pedagogik jarayonni optimallashtirish mumkin bo‘ladi, chunki bunday asos maktabgacha yoshdagi bola va ota-onalarning ehtiyojlarini, har bir tarbiyachining va butun jamoaning imkoniyatlarini batafsil o‘rganishni o‘z ichiga oladi va bu esa pedagogik mahoratni, kasbiy malakasini oshiradigan, pedagoglarning ijodkorligini rag‘batlantiradigan uslubiy ishlarning eng samarali shakllari, usullari va uslublarining to‘plamini aniqlashga imkon beradi. Tarbiyachining pedagogik faoliyatini o‘rganib, uning maktabgacha yoshdagi bolalarning turli xil ish faoliyatini (mehnat, o‘yin, badiiy va teatrlashtirilgan o‘yinlar) tashkil etish va o‘tkazish qobiliyatini, nutqini rivojlantirish qobiliyatini, u bilan muloqot qilish fazilatlari va ko‘nikmalarini baholash zarur. Ilmiy va nazariy bilimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar pedagogik xodimlar malakasini oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayoni menejeri, pedagogga tashxis qo‘yish, amaliy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy asos ekanligini

tushunishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish tashxisi metodist tomonidan kuzatilishi va pedagog pedagogik jarayon tashxisi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi hamda pedagogning ijodkorligi va erkinligi rag‘batlantirilishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy pedagogik xodimlari (ta’lim jarayonining menejerlari) rivojlanishning psixologik-pedagogik tashxisi, ota-onalarning pedagogik madaniyatini o‘rganish, o‘zlarining kasbiy va psixologik faoliyatlarini mustaqil tashxis qilish usullarini; maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim sharoitlarini baholash qobiliyatini o‘zlashtirishlari kerak. Ta’lim jarayoni va uni o‘zida mujassam etgan pedagogik tizimning sifati va samaradorligini menejment, uning tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik metodlari to‘plami ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida “boshqaruv” tushunchasi “menejment”ga aylantiriladi. Boshqarishning o‘ziga xos xususiyati bozor ehtiyojlariga, ishlab chiqarish sifatini doimiy oshirishga, qaror qabul qilish erkinligiga, strategik maqsadlar va dasturlarning ustuvorligiga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimi faqat uning rivojlanishiga tizimli yondashish sharti bilan samarali va jadal ishlashga qodir. Avvalo, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun me’yoriy bazani yaratish kerak. Ta’lim sifati monitoringi samaradorligini oshirish deganda asosiy sifat mezonlarini aniqlashga, rivojlanish maqsadli yo‘nalishlarini ifodalashga va maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan boshqaruv qarorlari tizimi tushuniladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim sifati monitoringini samaradorligini oshirish deganda asosiy sifat mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagicha:

1. Analitik (tahliliy) faoliyat mezonlariga.
2. Informatsion faoliyat mezonlariga.
3. Tashkiliy-metodik faoliyat mezonlariga.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqa ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalarining tarmoq shakli jamiyat resurslari hisobidan ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishning istiqbolli usuli bo‘lib, tarmoqning o‘zaro ta’siri jarayonida ta’lim sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning muhim jihati xizmat iste’molchilarining talablarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish bo‘lishi kerak. Ushbu mezonni ko‘rib chiqishda xizmatning asosiy buyurtmachilari aniqlanishi kerak. Xususan, birinchi buyurtmachi rolini, o‘sib kelayotgan fuqarolarda keyingi rivojlanish uchun ma’lum shart-sharoitlarni shakllantirishdan manfaatdor bo‘lgan davlat o‘ynaydi. Ikkinchi asosiy buyurtmachi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalaridir. Maktabgacha ta’lim tizimida ota-onalarning maktabgacha ta’lim xizmatlaridan mamnunligini baholash usullari mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalar oilalarining so‘rovlarini aniqlash va ularning fikrlarini maktabgacha ta’limni rivojlantirishni strategik rejalashtirishda hisobga olish uchun monitoringni tizimlashtirish zarur. Uchinchi buyurtmachi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlaridir.

Davlat maktabgacha ta’lim standartiga muvofiq, bola tarbiya obyekti emas, u ta’lim munosabatlarining to‘laqonli subyekti hisoblanadi.

Ideal holda, uchta toifadagi buyurtmachilarning manfaatlari va so‘rovlari umumiy tilni topishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqilligi birlashtiruvchi bo‘lishi kerak. Davlat bir necha o‘n yilliklar ichida mamlakat taraqqiyotining iqtisodiy tarkibiy qismini yaxshilaydigan malakali kadrlarga manfaatdorlik bildirmoqda: ota-onalar kelajakda u munosib kasbni egallashi uchun o‘z bolasiga sifatli ta’lim berishga intiladi; maktabgacha yoshdagi bola qiziqishlarini va moyilligini hisobga olishlaridan manfaatdor, bu esa ularni kelajakda kasbda qo‘llashga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati va rivojlanishining ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim faoliyati sifatini baholash mezon-

lari tizimi ishlab chiqilgan, ularni uchta asosiy ajralmas reyting omillari birlashtiradi.

Umuman, maktabgacha ta’lim sifati ko‘p o‘lchovli sintetik tushuncha. Aynan shu ko‘p qirralilik yondashuvlarni belgilaydi va uni baholash uchun axborot bazasini shakllantirish mantig‘ini belgilaydi. Bugungi kunga qadar MTT ta’limi sifati parametrlari va uning natijalarini aniqlash bo‘yicha yagona yondashuvlar mavjud emas. Maktabgacha ta’lim tizimini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun javobgarlik asosan boshqaruv organlari zimmasiga yuklanadi. Aynan ta’lim bo‘limi maktabgacha ta’lim tizimining barqaror ishlashi va rivojlanishi uchun imkon beradigan muayyan tashkiliy va pedagogik sharoitlarni yaratishi kerak.

Innovatsion faoliyatni oshirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorining innovatsion sifati faoliyatini oshirish shart-sharoitlari bu shaklda bo‘lishi mumkin. Ularni amalga oshirish bilan, tashkilotning ta’lim-tarbiya va tarbiyachilarning yangi g‘oyalarga mo‘ljallangan, innovatsiyalarga yo‘naltirilgan ishlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Gorsheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstayeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixonova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. – T.: 2022.

2. Valiyeva F.R. Ta’lim sifati monitoringi. O‘quv-uslubiy majmuasi. T;. 2022. 3 b. https://videouroki.net/razrabotki/ta-lim-sifati-monitoringi-o-um.html

3. Danilova L.N., Ledovskaya T. V. I dr. Sennosti pedagogicheskogo obrazovaniya: sushnost i genezis // Sennosti i smisli. 2019. №4 (62). S.6–22. http://elibrary.ru/item.asp?id=26024483

4. Murtozayeva M.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nuqtini o‘stirishda o‘zbek adabiy tilining ahamiyati. / Maktabgacha ta’lim: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2-kitob. TDPU, 2023 yil 30 may. - 20-23 b.

5. Murtozayeva M.M. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda davlat (o‘zbek) tili modulini o‘qitishga zamonaviy yondoshuvlar. Maktabgacha ta’lim: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2-kitob. TDPU, 2023-yil 30-may. - 29-32 b.

Yulduz YULDASHEVA,
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazi, “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim ”kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL QILISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari, integratsiyalashgan ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish holatlari haqida batafsil bayon etilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning afzalliklari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, aksiologik yondashuv, mashg‘ulot.

В статье описаны педагогические условия интеграции содержания дошкольного образования, реализации личностного подхода в интегрированном образовании. Также выделены преимущества интегрированного обучения.

Ключевые слова. Дошкольное образование, интегрированное образование, личностно-ориентированный подход, аксиологический подход, обучение.

The describes in detail the pedagogical conditions for the integration of the content of preschool education, the implementation of a person-centered approach in integrated education. The benefits of integrated training are also highlighted.

Key words. Preschool education, integrated education, person-centered approach, axiological approach, training.

Dunyo va respublikamiz miqyosida yoshlarning qobiliyatlari, iste’dodlari, ichki imkoniyatlarini, o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlash sharti bo‘lib xizmat qiladi, chunki yosh va murg‘ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo‘lib yetishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyani egallashlari bilan bog‘liq holda qaraladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini o‘rganish va shu asosda chora-tadbirlarni belgilash, amaliyotga joriy qilish ishlari jadallashmoqda.

Maktabgacha ta‘lim tizimining yangi avlod rahbarlarini shakllantirish masalasi ham kundalik dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalar sirasiga kiradi. Bunda rahbarning muvofiqlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg‘unlikda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalari to‘g‘risida e’tirof etilgan funksiyalar bolalarning intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma’naviy barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma’naviy jihatdan o‘sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi

Maktabgacha ta’limni davr talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ustuvor o‘rin egallamoqda. Maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi bolalarni intellektual, jismoniy, ma’naviy rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga samarali tayyorlashdan iborat. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Maktabgacha ta’lim dasturining tuzilishi va mazmuniga qo‘yiladigan davlat talablarini amalga oshirish sharoitlarida undan o‘quv faoliyati shaklidagi ta’lim jarayoni, maktabgacha ta’lim yosh davridagi bolaning rivojlanish qonuniyatlariga mos kelmasligi tufayli, istisno etilgan edi. Shu sababli MTT pedagoglari oldida maktabgacha ta’limning modernizatsiyalashgan mazmuni asosidagi bolalar bilan ishlashning muqobil shakllari va metodlarini izlash vazifasi mavjud. Integratsiyalashgan ta’lim va tarbiya mazmunini aniqlash va tanlash muammosi bo‘yicha xalqaro ilmiy-uslubiy manbalami o‘rganish va tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasi MTTlarida pedagogik jarayonlami tashkil etishning ahamiyatli yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalarini belgilash imkonini berdi.

Maktabgacha ta’lim mazmuni integratsiyalashuvining o‘ziga xosligi hozirgi vaqtda shakllangan muayyan shartlar asosida yuzaga keladi. Bu pedagog va bolaning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida ta’limiy ishlarni amalga oshirishning yetakchi tamoyillari, yo‘llari va vositalarini belgilovchi bolalar ta’limi yondashuvlariga taalluqli. Rus olimi M.V.Lazarevaning integratsiyalashgan yondashuvi misolida maktabgacha ta’limning asosiy komponentlarining o‘zaro aloqasi xususiyatlari ochib berilgan. Integratsiyalashgan yondashuv uning yaxlitlik darajasini oshirishga olib keluvchi, tarbiya va rivojlanishning u yoki bu maqsadlari va vazifalariga muvofiq tarzda pedagogik jarayonning ixtiyoriy komponentlaridagi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro munosabatlar g‘oyalarini aks ettiradi. Maktabgacha ta’limga integratsiyalashgan yondashuv quyidagilardan iborat:

– atrof-olam to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlami shakllantirish asosida shaxsning rivojlanishi va tarbiyasining dolzarb maqsad va vazifalarini amalga oshirish;

– tarbiya va rivojlanishning nafaqat mazmunli, balki rasmiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish;

– dasturning turli bo‘limlari (turlararo integratsiya) va bo‘limlari ichidagi (tur ichidagi integratsiya) tarkibiy qismlari mazmunining aloqadorligini kuchaytirish;

– ta’lim va tarbiya jarayonining metod, usullarining o‘zaro munosabati (metodik integratsiya);

